

Muassislar:  
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi**

1982-yildan chiqa boshlagan.

Tahrir hay'ati:  
**Sirojiddin SAYYID  
Minhojiddin MIRZO  
Nodir JONUZOQ  
G'ayrat MAJID  
O'razboy ABDURAHMONOV  
Farrux JABBOV**

Jamoatchilik kengashi:  
**Qahramon QURONBOYEV  
Iqbol MIRZO  
Murodilla ESHMATOV  
Muhammad ALI  
Rustam NOSIROV  
Rustam QOBILOV  
Ahmad OTABOYEV  
Shuhrat SIROJIDDINOV**

Bosh muharrir:  
**Faxriddin HAYIT**

Bosh muharrir o'rinbosari:  
**Nurilla CHORI**

Mas'ul kotib:  
**Sa'dullo QURONOV**

Mas'ul muharrir:  
**G'iyosiddin O'NAROV**

Adabiy muharrir:  
**Husan MAQSUD**

Muharrir:  
**Yahyojon FAYOZ**


Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosi.  
Indeks 100066  
E-mail: yoshlik-jurnali@mail.uz  
Veb sayt: www.yoshlikjurnali.uz  
Tel.: (0371) 231-20-58, 231-20-59

**Navbatchi muharrir:** Sa'dullo QURONOV  
Bosishga 13.05.2019-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz formati: 60x84 1/8  
Nashriyot hisob tobog'i: 8,7  
Indeks – 822.  
ISSN 0207-9137. Jurnal 2007-yil 4-mayda  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi  
tomonidan № 0253 raqami  
bilan ro'yxatga olingan.  
Jurnaldan ko'chirib bosilganda  
"Yoshlik" dan olindi" deb izohlanishi shart.  
"SILVER STAR PRINT" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma № 22. Adadi: 1500  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani,  
22-mavze, 17-uy.

## MUNDARIJA

- JARAYON**  
**3 Shodi Otamurod**  
Ilhom va orom maskani
- NAZM**  
**6 Eshqobil Shukur**  
Hovuch to'la duo va salom...
- 38 Guli Nigor**  
Olamni to'ldirar bir ishq sog'inchi...
- NASR**  
**10 Normurod Norqobilov**  
So'nggi surat
- 22 Zulfiya QUROLBOY qizi**  
Bedor ruh
- 14 ESSE**  
**Bobur Elmurodov**  
Bahodirsiz kelar arg'umoq...
- 18 "YOSHLIK" YO'QLOVI**  
Asrning dolg'ali kunlari xotiri bilan
- SO'ZOYNAK**  
**31 O'rozboy Abdurahmonov**  
Adabiyotni alladan boshlaganimiz  
ma'qul



Muqovada:  
Nakurt tog'larining gul  
chechaklari.

3



10



18



31

**TADQIQOT**

**Sanobar To'laganova**

**34** Hayot falsafasining o'ziga xos talqini

**ADABIY DO'STLIK**

**Vadim Murodxonov**

**40** Ikki hikoya

**XOTIRA**

**Bahodir Qobul**

**45** Oy yog'dusidagi qorli cho'qqi

**UCHRASHUV**

**Azizbek Norov**

**48** "Eynshteyn jumbog'i"

**DILKO'PRIK**

**Sergey Knyazev**

**56** Yurakda yomg'irlar tinmas hech

**SIZNINGCHA...**

She'r ham, shoir ham millat uchun oyna

**58**

**SABOQ**

**Lev Tolstoy**

Kuchli odamlar hamisha oddiy bo'ladi

**63**





## ILHOM VA OROM MASKANI

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvda Zomin va Parkent tumanlarining so‘lim go‘shalarida ijodkor ziyolilarimiz uchun zamonaviy ijod uylari qurilishi rejalashtirilganini ta’kidlagan edi.**



Zomindagi qorli tog‘lar, quyuq archazorlar bag‘rida – O‘rikli soyda yozuvchi va shoirlar muayyan muddat yashab ijod qiladigan, salomatligini tiklaydigan majmua qad rostladi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan barpo etilgan 150 o‘rinli ushbu sanatoriyning 50 o‘rni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari uchun ajratildi.

Yaqinda bir guruh ijodkorlar Toshkentdagi Adiblar xiyobonidan ushbu maskan tomon yo‘l oldi. Ular dastlab Jizzax shahrida atoqli adib, ulug‘ davlat arbobi Sharof Rashidov haykali hamda Hamid Olimjon va Zulfiya haykallari poyiga gullar qo‘yishdi.



So'ng ijodkorlar Zomindagi ijod uyining ochilish marosimida hozir bo'lishdi. Yozuvchi-shoirlar, zominlik nuroniy otaxonlar, din peshvolari, senatorlar ishtirok etgan tadbirni O'zbekiston Qahramoni, Navoiy kon-metallurgiya kombinati bosh direktori Quvondiq Sanaqulov kirish so'zi bilan ochib berdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati qoshidagi "Farhod" madaniyat saroyi ijodiy jamoasining katta konsert dasturi va uyushma a'zolari ishtirokidagi mushoira tad-

birga fayz bag'ishladi. Tantanali ochilish marosimidan so'ng sanatoriy kutubxonasiga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan kitoblar taqdim etildi. Yakunda tadbir ishtirokchilari uchun Ramazon tuhfasida – iftorlik dasturxonini yozildi.

Ushbu ko'rkam, muhtasham bino bir yarim yil ichida qurib bitkazildi. Sanatoriy zamonaviy mebellar, tibbiy uskunalari va sport anjomlari, tezkor aloqa-kommunikatsiya vositalari



Rasmlarni **Ahmad TO'RA** olgan.



bilan jihozlangan. Isitish tizimlarini o'rnatishda yangi innovatsion usullar qo'llanilgan. Oynavand liftlarda atrofdagi manzarani bemaol ko'rish mumkin.

Sanatoriyning tibbiy muolaja hamda sport bilan shug'ullanish xonalari ham mavjud. Zamonaviy diagnostika uskunalari, ultratovush, ingalyatsiya xonalari, fitobar, shuningdek, tennis, velo-trenajyor, harakatlanuvchi yo'lak

kabi qurilmalar davolanuvchilar xizmatida.

150 o'rinli anjumanlar zali turli mushoiralar, tadbirlar, kitobxonlik kechalarini o'tkazishga arziydigan diltortar maskanga aylangan.

Binoning orqa tomonida landshaft me'morligi asosida 180 o'rinli amfiteatr ham barpo etilgan. Bu yerda Zomin seminarlari, shuningdek, boshqa tadbirlarda ijodkorlarning yoz oqshomlarini fayzli va shukuhli o'tkazishiga barcha sharoitlar bor.



Bu ijod maskani ijodkorlarga o'z asarlarini yaratish uchun ma'lum muddatga ijaraga beriladi. Bu yerda adiblarimiz nafaqat dam olib salomatliklarini tiklaydi, balki yangi ijodiy rejalarini amalga oshirishadi.

Hozir bu yerda Uyushma-niing dastlabki yo'llanmalariga ega bo'lgan adib va ijodkorlar ijod zavqi bilan dam olmoqda. Ular ijodkorlarga yaratib berilgan katta imkoniyatlardan behad minnatdor.

**Shodi OTAMUROD,**  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi, shoir





Eshqobil SHUKUR

# Hovuch to'la duo va salom...

## BOG'

Qorong'i bog' ichra oydin bir yo'lak...  
Xufton yulduziday titraydi yurak.  
Sevgilar, sog'inchlar, qayg'ular bilan  
Shu bog'da shu kecha uchrashsam kerak...

Suvday totli sohir suxanlar bilan,  
Gulga do'ngan aziz xok-tanlar bilan,  
Hazrati Xizr va chiltanlar bilan  
Shu bog'da shu kecha uchrashsam kerak.

Falakda bir gulzor, yerda bir gulzor,  
Har tilda ming da'vo, har dilda ming zor,  
Mening ham Xudoga aytar arzim bor,  
Shu bog'da shu kecha aytolsam kerak.

Boryapman o'z izim, o'z so'zim bilan,  
Ko'ksimdagi otash yulduzim bilan,  
O'zini izlagan o'z-o'zim bilan  
Shu bog'da shu kecha uchrashsam kerak.

\* \* \*

Aylanayin ovozingdan, Suv,  
Iforingdan aylanay, Havo.  
Ko'nglim ichra aziz bir tuyg'u,  
To'lqin-to'lqin esadi navo.

Himmatingdan aylanayin, Yer,  
Hayot, senga sharaf va sano!  
To'lib borar ko'zlarimga nur,  
Yuragimga to'lmoqda Xudo.

Aylanayin ovozingdan, Suv,  
Iforingdan aylanay, Havo.

## VASE

Javzoning o'n beshinchi kuni...  
Oy to'ldi.  
Xushbo'y shamol esdi tog'lar tomondan.  
Tun shunday go'zal ediki,  
U haqda she'r yozay desam  
Yolg'onchiga o'xshab qolaman.

## VOQIF SAMAD O'G'LI BILAN TANISHUV

Men Voqif Samad o'g'lining asarlarini uning tirikligida ko'p o'qiganman, lekin shoir bilan haqiqiy ma'nodagi ruhiy tanishuvim uning vafotidan so'ng bo'lgan. Shoirning o'zi aytganiday: "Bir go'zal dunyoning ichidan ketardim, To'xtamadim."

*Ellik besh yoshimda, elga yo'limda,  
Bir shoir Shamolning yonidan o'tdim.*

*Dil berib hayotga, chap berib o'limga,  
Javobsiz Savolning yonidan o'tdim.*

*Barq urib bahorlar kirdi dilimga,  
Gullagan Iqbolning yonidan o'tdim.*

*Shodlik o'ngimda-yu, qayg'u so'limda,  
Buyuk bir Zavolning yonidan o'tdim.*

*Ko'nglimda ne bor-u, ne bor qo'limda,  
Bir beva Xayolning yonidan o'tdim.*

*Ko'zyosh terib yurgan tunlar dilimda  
Uvada Uvolning yonidan o'tdim.*

*Qumrilar takallum qildi tilimda,  
Boboyiy bir Holning yonidan o'tdim.*

*Bordim, boraverdim, yetmish iqlimda  
Havvoyiy Jamolning yonidan o'tdim.*

*Hayot deb atalmish qaltis ilimda  
Keksa bir Maqolning yonidan o'tdim.*

\* \* \*

*Adirlar kiftida, qirlardan nari  
Jilg'aday shoshilib borardi bir yo'l.  
Na G'arbga, na Sharqqa uning safari  
Mening yuragimga kelardi bu yo'l.*

*Maysalar ergashar atak-chechaklab,  
Jilg'aday shoshilib borardi bu yo'l.  
Salkam oltmish yillik umrim yetaklab  
Mening yuragimga kelardi bu yo'l.*

## BUYUK CHILLA

*Qirq kecha-kunduzda biyday sahroni  
Yalangoyoq yurib o'tdi bu darvesh.*

*Qirq ming tomiridan qirqta daryoni  
Qumlar uzra bunyod etdi bu darvesh.*

*Qirq tomchi teridan qirqta shaharni  
Xarobalar uzra qurdi bu darvesh.*

*Qirq kun sahro bo'ylab qirqta bahorni  
Shamolday yetaklab yurdi bu darvesh.*

*Tuproqday xokisor xoki tanidan  
Bir tunda qirq buloq ochdi bu darvesh.*

*Hazrat Sulaymonning o'tib yonidan  
Bir kunda qirq yilni oshdi bu darvesh.*

*O'tdan yalangoyoq, yalangbosh o'tgan,  
Qirq kunga qirq hikmat bitdi bu darvesh.*

*Qirq ming yildan beri uyquda yotgan  
Sahroni uyg'otib ketdi bu darvesh.*

## ELLIK YILLIK HIKOYA

*Olti yoshda edim... go'daklik qilib  
Bobomni ranjitib qo'ydim bir kuni.  
Boladay arazladi keksaygan bobom.  
Yonida miq etmay uzoq o'tirdim...  
Sezdim ko'zlariga yosh kelganini.*

*Keksa do'stim mendan uch kun ranjidi...  
Janozadan qaytib to'rtinchi kuni  
Meni ko'rib qattiq bag'riga bosdi.  
Yelkasi titrardi, joni titrardi,  
Ko'zida yosh edi.. qari oshnamning...*

*Shundan beri mana, ellik yil o'tdi,  
Kechirim so'ragim kelar bobomdan,  
Uni tushlarimda izlab yuraman.  
Endi mening ko'zim to'la yosh...*

## IT

Go'yo ko'cha tinchin saqlayapman deb,  
Bu it xalal berar ko'cha tinchiga.  
Kecha-yu kunduz u o'z jag'ini yeb,  
Tinimsiz huradi har o'tkinchiga.

Undan xafa bo'lmang, ne qilsin, sho'rlik,  
O'zicha boshida katta bir yumush,  
Martaba tuyular unga bu xo'rlik:  
Har kuni hammaga tinimsiz hurish.

\*\*\*

Ezgu bir ish qilsang joningdan kechib,  
Kunduz terlar to'kib, tun yutib qonlar.  
Qaysidir kovakda tishlari qichib,  
G'imirlab qolarkan qora ilonlar.

Cho'lda buloqtopsang yillar axtarib,  
Achchiq qum ustiga to'kilsa jonlar,  
Shunda bosh o'rniga dumin ko'tarib  
G'imirlab qolarkan mudhish chayonlar.

Asli o'zi shunday bo'lgan qadimdan,  
To izg'ib yurarkan iblis dumlari.  
Tinmay choh qazirlar hammaga zimdan  
Shudir kasbu kori, shu udumlari.

Qodiriyini qasddan otganlar shular,  
Shular qatlgohga eltgan Cho'lponni.  
Shayton tupugidan tarqagan ular  
Bulg'ashga hozirlar butun jahonni.

Mayli, bu kimsalar g'imirlayversin,  
Tezak dumalatib yurgan nodonlar.  
Tinmasdan har qancha irillayversin,  
To'xtamay o'tajak bizning karvonlar.

Oqibat har kimning niyatiga mos,  
Kimdir go'ng titadi, kim gulga ravo.  
Ular qilmishidan qolmasligi rost,  
Men ham o'z ishimdan qolmasman aslo!

Zangor vohalardan jilg'aday o'tib,  
Yam-yashil bog'larga aylanajakman.  
Elga xayr tilab uyquga ketib,  
"Salom, Ezgulik" deb uyg'onajakman.

## IDROK

Loydan bosh ko'targan maysaga qarab,  
Hayotning sharhini anglasa bo'lar.  
Bir kichik yulduzdan sarguzasht so'rab  
Osmon tarixini anglasa bo'lar.

Tog'ning boshidagi sovuq qoridan  
Ichida vulqonni anglasa bo'lar.  
Bir ayol ohidan, bir er zoridan  
Suyakda armonni anglasa bo'lar.

Suvning kulgusidan, yomg'ir yoshidan  
Davron g'animatin anglasa bo'lar.  
Lahza hayqirig'i – yurak tovshidan  
Qur'on alomatin anglasa bo'lar.

O'zingdan bir qadam nariga ketmay  
Jamiyki odamni anglasa bo'lar.  
Ko'ngil kulbasidan tashqari chiqmay,  
Jimgina olamni anglasa bo'lar.

## AZOB TABASSUMI

Z...ga

Qarigan nigohlar ortida  
Bor edi bir sevgi... buyuk bir sevgi.  
Horigan dardlarning qatida  
Bor edi bir mehr... suyak bir sezgi.

Ko'zyoshlarning unsiz faryodlarida  
Bor edi bir vido... aziz bir kalom.  
Qartaygan qo'llarning hovuchida  
To'lib turar edi duo va salom.

So'ng g'amgin ko'zlarda kular iztirob,  
Bu chehra oy kabi boqadi ma'sum.  
Va so'lg'in lablarda g'unchalar azob  
Gulday ochiladi so'nggi tabassum.

## OLDINGA CHEKINISH

Ichkariga yo'l bor. Ichkariga!  
Ichkarida  
Xudoning siri berkitilgan bir joy bor.  
Bu dunyoda eng yaxshi boshpana ichkarida.



## UNUTILGAN TIL

Teraklar shiviri, suv shildirashi,  
Shamolning shovuri, tog' guldurashi,  
Ma'sum go'daklarning sho'x chuldirashi  
Qayg'uli ko'zlardan tosh gildirashi...

Bu tilni bilaman  
So'zi yo'q tilni...

Kapalak kulgusi, gullar yallasi,  
Xazonli bog'larning yig'i pallasi,  
Tobut qoshidagi armon nolasi  
Beshik boshidagi osmon allasi.

Bu tilni o'rgandim  
Lug'atsiz tilni.

Unsizlar, unlilar, ajab tovushlar,  
Suvlarda yonishlar, o'tda sovushlar,  
Chaqmoqni yurakka sanchib sevishlar,  
Tuproqqa do'nishlar, gulga ovushlar...

Men uzoq o'rgandim  
Bu so'zsiz tilni.

## YIG'I VA KULGU ORALIG'IDA

Biz bilmagan qanday yig'ilar qoldi,  
Qanday kulgu qoldi bizlar ko'rmagan.  
Yillar qalbimizning qo'rini oldi,  
Oylar otash berdi sizlar bilmagan.

Hayot porlab o'tdi tabassumlarda,  
G'amgin nigohlarda o'lim jamoli.  
Yurak yurtidagi xush nasimlarda  
Yengil-yengil yelar Xudo xayoli.

Aziz xotirlarni tumorday saqlab,  
Tovonlarni charxlab yo'llar tig'ida  
Boryapmiz... umrimiz chaqmoqday chaqrab  
Yig'i va kulgular oralig'ida.

## OLAM VA ODAM

Yozning bir kechasi... Ovloq adirda  
Do'ngsada yotardim osmonga qarab.  
Ko'zimga sig'ardi butun koinot,  
O'zimga sig'ardi yetmish ming taraf.

Cho'g'larday miltillar milliard yulduzlar,  
Oq ko'rpa ustida suzib borar oy.  
Olamlar kesishgan buyuk nuqtada  
Ona falak menga solib qo'ygan joy.

Uzatsam yulduzga yetadi qo'lim,  
Ko'zimga sig'adi borliq va hayot.  
Menda tugasa-da agarchi o'lim,  
Mendan boshlanadi butun koinot.

\* \* \*

Oy qiblaga botganda,  
Ko'nglimda tong otganda,  
Sening ko'changni bo'ylab,  
Bir hur shamol o'tganda.

Shu shamol menmasmidim,  
U xayol senmasmiding?

Bargda shudring labolab,  
Ko'z yoshlarga yetganda.  
Va yalpizlar havolab  
Xush atirlar tutganda

U xushbo'y senmasmiding,  
Ko'cha-ko'y menmasmidim?

Miltiragan yulduzlar,  
Xayr-xo'sh aytganida  
Va ming yillik ildizlar  
Hayotga qaytganida,

Chin iqbol senmasmiding  
Cho'ng zavol menmasmidim?



Normurod NORQOBILOV

## Sonnggi surat

(Hikoya)

– Jonsiz... umuman olganda, chizganlaringni bari jonsiz...

Bu damda janub tomonida maktabning oqish binosi qad rostlagan katta qishloq allaqachon past-baland do'ngliklar ortida qolib, qiz va yigitcha maysalari barvaqtroq sarg'aygan Ko'kliqir betidan o'rin olgan o'n chog'li xonadondan iborat ushoqqina ovul sari o'rlagan so'qmoq boshiga endigina yetishgan va manzilgacha hali yana yarim chaqirimcha bor edi. Agar bugun darsda chizilgan uch atirgul suratini qizga hadya etish fikri lop etib yigitchanning miyasiga kelmaganida edi, odatdagidek, imi-jimida yo'lda davom etishardi. Biroq bu safar bunday bo'lmadi – yigitcha, oyog'i so'qmoq-

qa yetmay, to'satdan keskin ortiga o'girildi-da, o'ng kiftiga osilgan eski, moshrang sumkasidan suratni olib, andak tantiqlanganicha, ma'sum qarashli qizga shartta uzatdi. Ammo qiz yigitchanning qo'lidagi suratga shunchaki bir qarab qo'yish bilan kifoyalanib, yuqoridagi gapni irod etdi. Qiz buni zardadan xoli, fe'liga xos, osayishta ohangda aytgan bo'lsa-da, lekin gapida bir emas, ikki bora takror etilgan "jonsiz" degan ibora yigitchanning ko'ksini misli o'qdek teshib o'tgan, buni sezgan qiz esa, bir lahzalik o'ng'aysizlikdan so'ng kechir, deya uni yonlab o'tib, so'qmoqqa qadam qo'ygandi.

Yigitcha uning ortidan g'azabnok tikilib qolarkan, birozdan keyin o'tli nigohini boyasaroq salgina sevalab o'tgan jaladan namlangan so'qmoq yuziga, so'ngra ovuldagi yagona "yashil nuqta"ga qadadi. Ovulning devorsiz keng hovlilarda tikkaygan biron daraxt yo'q, faqat qiz yashaydurg'on hovli sahnida, girdiga tosh terilgan supaning shimol tarafida tig'iz ekilgan bir necha tup atirgul uzoq-yaqindan "yashil nuqta" yanglig' ko'zga tashlanib turardi. Yigitcha bu dafa "yashil nuqta"ga adovat bilan tikildi. Boisi qizdan o'mganteshar gap eshitmog'iga aynan ushbu atirgullar sabab bo'lgan, ya'ni boya "yashil nuqta"ni ilg'ashi hamon sumkasidagi suratini birdan qizga hadya etkisi kelib qolgandi-da. Bunda u yo'l qo'ygan birgina xato – niyatini so'zda ifoda etmay turib, shaxd-la qizga suratni uzatgani edi. Buni o'zicha anglagan qiz esa tag'in mendan fikr so'rayapti, degan o'yda suratga o'z munosabatini bildirib, bir ondayoq uni "o'lik"ka chiqarib qo'ygandi.

U "yashil nuqta"dan ko'z uzib, hanuz qo'li-da tutib turgan suratga qiyalab razm soldi. Nazarida, chetlari xiyol g'ijim tortgan oppoq qog'oz yuziga moybo'yoqli qalamda mohirlik bilan muhrlangan qirmizi gullar sirayam jonsizga o'xshamas, rangli jurnal betida qanday tasvirlangan bo'lsa, aynan shunday ko'chirilgan edi. U suratni sumkasiga qayta joylab, kunbotishning olis g'uborli sarhadiga g'amgin nazar tashlaganicha, bo'yi yelkasidan kelmaydigan Tohir pakana qizlarnikiga o'xshash ingichka, chinkillagan ovozda o'zining yangi she'riy mashqlarini o'qigan kezlarida, hayajondan qizning ko'zlari o'tdek yonib, yanoqlari cho'g'day pushtilanishini ko'z oldiga keltirirkan, tag'in alami jo'shdi, baqiroq cho'pon qo'shnisi kabi bir maydon changitib so'kinmoqchi bo'ldi, ammo andisha qildi.

Tohir pakanaga zimdan o'chakishib, shu yilning qishidan boshlab qo'lga rangli qalam tutgan va duch kelgan kitob-u jurnallardagi o'ziga ma'qul kelgan rasmlarni dars payti chizib o'tirishni odat qilib olgan yigitcha, aksariyat sinfdoshlari nazdida, o'ta zo'r musavvir edi. U haftada ikki-uch bor hozirgina chizib tugatgan suratini hamisha katta tanaffus oldidan qavatida o'tirgan jo'rasi tomonga asta surib qo'yadi, bunisi qalay chiqibdi, deb. Jo'rasi esa har safargidek shovqunlab, u-u, bunisi yanayam zo'r chiqibdi, deya suratni oldingi partada o'tirganlarga uzatadi, – mana, buni ko'rib qo'yinglar! Turgan gap, chizganlari barchaga birdek yoqavermaydi – kimdir suratga qiziqish ila, kimdir o'ta loqayd nazar tashlaydi. Ammo yigitcha bu holga zig'ircha ahamiyat bermaydi, chizgan rasmi o'rta qatordagi birinchi partada o'tirgan qizga tezroq yetib bormog'idan boshqasini o'ylamaydi. Qiz ortdagi partadan uzatilgan suratni qo'lga olgach esa, butun vujudi ko'zu quloqqa aylanadi. Biroq, ming afsuski, qiz suratga birrov ko'z tashlash bilan kifoyalani, har damgidek, uni o'ng biqinida o'tirgan qizga uzatadi va uzatish asnoda, yigitcha tomonga yarim o'girilib, durust, degan ma'noda asta bosh irg'ab qo'ya qoladi. Bu esa surat muallifiga yoqmaydi, qizning, qo'y ko'zlari yonib, bug'doy rang yanoqlari pushtilani, mayin jilmayishini va jilmaygan holida, o-o, ajoyib, g'oyatda ajoyib, demog'ini istaydi. Axir, Tohir pakanaga doimo shunaqa deydi-da. Oqibat, yigitcha butun sinfni aylanib chiqqan suratni sumkasiga joylashdan bo'lak chora topmay, alamdanda labini tishlaydi.

U bugungi suratini tarix darsida boshlab, matematika darsi oxirida yakunlagan edi. Bu ishi uchun, jazo tariqasida, boshi gajak, beli yo'g'on ikki baho bilan siylangan esa-da, ammo chizganiga qoyil qolgan muallim tanglay taqilatishdan o'zini tiyolmagan, bir-ikki sinfdoshi chug'urlashib maqtagan bo'lgan, qiz esa, har doimgidek, durust, deya bosh irg'ashdan nari o'tmagan. Sinfidagi qilig'i kamdek, mana, suratini "o'lik"ka chiqarib, imi-jimida jilib qoldi.

Yigitcha ortiga qaray-qaray qirga o'ralayotgan qizga bot ko'z tashlarkan, g'azab to'riga qaytadan chirmaldi. "Qayta" deyilishining sababi shundaki, barcha chizganlariga shunchaki odob yuzasidan "durust" deya, Tohir pakananing mashqlaridan oshkora zavqlanadigan qizdan ichdan qattiq qahrlanadigan yigitchaning g'azabi dars yakunlanida, maktabning

ko'kish temir darvozasi ortda qolib, past-baland yantoqzor do'ngliklar va o'rliklar oralab, ipdek chuvalanib ketgan dasht yo'lga qadam qo'yishi bilan, qumga singgan suvdek, zumda g'oyib bo'ladi-da. Bejizga emas, chunki dashtda maktab o'quvchisi emas, balki qizning tinchligiga daxldor alp yigitdek his etadi o'zini; ro'y berishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatarni bartaraf etmoqqa qodir qo'riqchidek, qomatini g'oz tutganicha, hamisha qizdan to'rt-besh odim oldinda yuradi.

Xo'sh, bu xavf-xatar nima yoxud nimalardan iborat?

Bu xavf – yo'lning kimsasiz o'rlik va soyliklar oralab o'tganligi edi.

Bu xavf – dashtda qo'y boqib yuradigan sho'x-shodon yigitchalar edi.

Bu xavf – dashtda daydib yuradigan itlar va yana allanimalar edi.

Bu "xavf" dan qizni himoyalab yurish lozimligini hech kimsa yigitchaga uqtirmagan. Buni qizning yaqinlari va shuningdek, allaqachon saksonni qoralab qo'ygan bo'lishiga qaramay, hanuz birovga gapini bermaydigan olovfe'lli momosining qarashlari hamda ovul ulug'lariyu, padarining ayrim purma'no o'gitlaridan uqub, anglab, sekin-asta o'zining yigitlik burchiga o'girib olgan. Yigitcha botinidagi bu amalni – maktabda qizga shunchaki bir sinfdosh, dashtda esa qalban sodiq qo'riqchi ekanini o'zidan bo'lak hech kimsa bilmaydi. Qizni o'ziga yonlatmay, doimo oldinda yurishiga kelsak, buni momosining huv birdagi tanbehi tufayli qat'iy odat qilib olgan.

U paytda qiz-yigit endilikda ini va singillari tahsil olayotgan quyi ovuldagi to'rt yillik maktabga qatnashardi. Bir dafa qiz ikkisi yelkadosh bo'lib, nima haqdadir qizg'in bahslashganicha maktabdan qaytisharkan, supada jun titib o'tirgan momosi, siyraktob qoshlarini norozi chimirgan ko'yi yigitchani qavatiga imlab, degan: "Jigit odam qiz bolaning biqinida emas, ikki qadam oldinda yurishi kerak. Emasam, jigitliging qochib, anovu Sodiq malladay kifti qisiq, sho'rpeshtonaga aylanib qolasan..." Bu gap-so'zdan so'ng yigitcha kattalar yurish-turishini zimdan kuzatgan: qarasaki, chindanda aksariyat ovul erkaklari oldinda, ayollari keyinda yurarkan. Siddiq malladay kifti qisiq bo'lishni istamagan yigitcha, shu-shu qizdan oldinda yuradi.

U qattiq alamda emasmi, qiz ortidan yurmoqdan, namchil so'qmoq yuzida qolgan

izlariga oyoq bosmoqdan o'zicha orlanib, o'z navbatida, otashlanayotgan yuragi taftini bosmoq niyatida ovuliga aylanma yo'nalish – Bo'rijar orqali bormoqqa qaror qildi. Bo'rijar degani qirning janubi-g'arbidagi dara sifat uzun va teran jarlik bo'lib, uning o'rta so'l qirg'og'idagi tik va tor so'qmoqdan ovul kunbotishidagi toshli sayhonlikka bemalol ko'tarilish mumkin edi. Ovul ahlidan yolg'iz yigitchagina vaqt-bevaqt jar oralab yurar, qiz biror vaj tufayli maktabga bormay qolgan kunlari esa, momosining ta'biri bilan aytganda, itday sumanglab, Bo'rijar orqali ovulga qaytardi.

Yigitcha ortidan yetib kelishidan umidlanib, oshiqmay borayotgan qizni taajjubga solgan ko'yi, qir yoqalab kunbotishga, bir chaqirimcha naridagi Bo'rijar og'zi tomon yurdi. Yo'l-yo'lakay qizdan o'pka-gina qilib, ichida uni yanib bordi. Biroq jar og'zidan sal berida qomat kerib turgan Bukritoshni yonlab o'tishi hamon qizdan xafaligini zumda unutdi va go'yoki bu manzilga ilk bora qadam ranjida qilganidek, bir muddat tek turib qoldi. Bu uning azaliy odati – har safar jarning boshlanish qismidagi g'aroyib manzaraga, ya'ni har ikki qirg'oq betini quyiga qadar zinapoya yanglig' taramlab tushgantoshlar tizimiga hayratlanib boqqanidek, qirlar bag'rini tilimlaganacha, janubdagi archali dovon bag'riga borib sanchilgan jarning chuqur o'zaniga xavotir hisi bilan tikilib qolardi-da, so'ng oshiqmay “toshzinalar” sari jilardi.

U olg'a yurarkan, dastlab sezgani shu bo'ldiki, dashtdan farqli o'laroq, jar havosi xiyla salqin, yashil maysalar haliyam o'z tarovatini yo'qotmagan, qator “toshzinalar” bo'ylab sochilgan shirachlarning o'rta qismi oqish tusda gullagan holda, yuqori qismidagi och jigarrang tugunchaklari halicha noz uyquda edi. Ammo yigitchaning o'simliklar umuman bilan ishi yo'q, uni jar tubidagi quyuq butazor oralab ketgan ingichka so'qmoq ko'proq qiziqtiradi. U ana shu so'qmoq bo'ylab daydishni, ovloq makon shovurini tinglashni va onda-sonda yuragi qo'rquvdan shuvillab-shuvillab qo'yishini juda-juda xush ko'radi. Buning uchun avvaliga o'ng qanotdagi “toshzinalar” dan biriga cho'kib, jar o'zaniga ko'z tashlaganacha, oqshomgi gurunglarda kattalardan ko'p va xo'p eshitgan o'sha rivoyatni xayolidan o'tkazib, jarning afsonaviy egasi bo'lmish haybatli kulrang bo'rini tasavvurida jonlantirar va maboda, o'sha yirtqich ko'ziga chalingudek ersa, ne qilmog'ini o'ylaydi. Biroq qidirgan jondori jarda emas, olis



o'tmishda edi. Yigitcha buni yaxshi bilsa-da, lekin xayolatga chek qo'yishni istamas, ayniqsa, har gal butalar oralaganida, o'sha yirtqich qarshisidan lop etib chiqib qoladigandek, qo'rquv va hayajondan entikib-entikib qo'yardi. O'rta so'l qirg'oqdagi tik so'qmoqdan ovul kunbotishidagi sayhonlikka ko'tarilganida esa, quyidagi jarlikka g'olibona ko'z tashlab qo'yishni kanda qilmasdi. Sababi, g'oliblik hisi unga hamisha moydek yoqar, yoqqani bois ham qo'li bo'sh qoldi deguncha, Bo'rijarga intilardi. O'tgan dafa birinchi bor, ovrab-sovrab bo'lsa-da, qizni ham ergashtirib kelgan. Biroq qizi tushmagur u kabi “toshzinalar”ga cho'kmayoq iziga qaytmoqni ma'qul topgan. Bundan yigitchaning taajjubi chandon ortgan, nechun jardan bunchalik hayiqadi bu, axir, boboylar aytgan haybatli jondor bor-yo'gi bir afsona-ku.

Bu gal ham toshzinalardan birining labi cho'kishga cho'kdi-yu, biroq o'sha afsonaviy bo'rini tasavvurida jonlantirmoq uchun jarning sirli va vahimali o'zaniga ko'z tashlashga ulgura olmadi – o'ng biqinida mayin yeldan tebranib turgan bo'ychan shirachlardan biri sira kutilmaganda e'tiborini tortib, boya qiz tilidan ko'chgan “jonsiz” degan sovuq iborani qayta esiga tushirdi. Bundan tag'in alami qo'zidi, o'zicha qizga achchiq qilib, o'tirgan joyida o'simlikka chang soldi: “Nima, manovular jonlimi?!” Haytovur, novcha o'simlikning kuni bitmagan ekan, bu qiligi o'ziga erish tuyulib, yigitcha undan qo'lini tortdi. Bunga javoban o'simlik, ha-a, men jonliman, deganday zardali bir tarzda tebranib qo'ydi. Yigitcha esa, xuddi uzr so'raganday, uning oqish nozik gulchalarini barmoqlari uchi bilan asta siypalagan bo'ldi.

Shu kezgacha u biron-bir o'simlik turiga jiddiy e'tibor bermagan edi. Bu safar changalidan tasodifan omon qolgan o'simlikka boshdan-oyoq razm solarkan, uning qoyatoshlar oralig'idagi bir kaftgina tuproqda bo'ylanib turganini ko'rib, dastlab ajabsindi, so'ng yalang yerda himoyasiz qolgan palaponlarga duch kelganday, yuragida shafqat hisi uyg'ondi. Biroq xiyoldan keyin yengil epkindan qayta tebrarmoqqa tushgan o'simlik uning achinishiga aslo zor emasligini, boz ustiga, bu ovloq makonda u emas, balki o'zi yetti yot begonaligini his etib, beixtiyor ich-ichdan bir qalqib tushdi. U botinida yuz bergan bu to'lqin ta'sirida, novcha o'simlikning chamandek ochilgan oqish gullari hamda o'z ochilish muddatini intiq kutayotgan och jigarrang tusdagi tugunchaklariga o'zgacha nigoh bilan takror boqarkan, u ko'ziga sirli va go'zal ko'rinib ketdi. U ushbu tuyg'u ta'sirida tevarakka ko'z soldi va shunda uning nigohi asrlar davomida dashtning betizgin shamoli etagiga ilashib kelib qolgan changchung zarralaridan qoyatoshlar yag'rinidagi mayda-chuyda kavaklar hamda uzun-qisqa yoriq-yoruqlarda hosil bo'lgan katta-kichik tuproq qatlamlarida ungan turli giyohlar, turfa mitti chechaklarni ilg'adi. Shu kezgacha jajji kapalakdek mitti chechaklarni nazariga ilmasdi. Bu gal esa ularga qiziqsinib razm soldi.

Ana, ulardan ikki-uch tupini allaqachon toptashga ham ulguribdi.

Bu orada yigitchaning diqqatini tuproqli kavakchalardan birida o'zgachayashnab turgan qizg'ish, sarg'ish, pushti va binafsha tusdagi mitti gulchalar tupi o'ziga jalb etdi. Turfa rangdagi bu jajji chechaklarni bir yerda g'uj bo'lib turishi yigitchaga juda qiziq tuyuldi va unda ularni oppoq qog'ozga muhrlash istagi tug'ildi. U ushbu istak yo'rig'iga bo'ysinib, sumkasiga qo'l yuborarkan, toza qog'ozga ilashib chiqqan uch atirgul suratiga bexosdan ko'zi tushgach, taajjubdan dong qotdi. Vo-o, ajab, qog'ozdagi atirgullar tasviri chindan ham o'ta jonsiz, o'ta ruhsiz edi. Biroq bu bilan u qizni kechirib qo'ya qolmadi, qaytamga uning haq bo'lib chiqqanidan alami qo'zib, g'ururi bosh ko'tardi, toki Tohir pakana kabi qizni hayratu hayajonga solmaguncha, tinib-tinchimasligini idrok etib, birinchi bor chechaklarning asliga qarab chizishga kirishdi. Bu ish davomida ilgari hech tuymagan bir holatni – qog'ozga ko'chayotgan mitti chechaklar go'zalligida quyoshning iliq tafti va ona zamin quvvatini his etarkan,

borliqdan tiriklik bo'yi taralayotganini his etdi. Va pirovardida, u g'aroyib tuyg'ular og'ushiga sho'ng'ib, ma'lum vaqt bu dunyoni unutdi.

Ammo bu dunyo hech qachon hech kimga o'zini unuttirib qo'ymaydi.

– Davron!

Kutilmagan bu ovozdand sapchib tushgan yigitcha ilkis ortiga o'girilib, xijolatomuz kulimsirab turgan qizni ko'rdi. Azbaroyi dovdiragani-dan og'ziga kelgani shu birgina so'z bo'ldi.

– Mohigul!!!

– Mendan arazdamisan deya, xavotirda keldim... – dedi qiz uni qattiq cho'chitib yuborgani-dan yanada xijolat tortib.

Yigitcha arazdaligini eslab, tumtaygancha, o'zicha qayta ishga tutingan bo'ldi. Ammo qo'lidagi qalam uchi qog'ozga yetib-yetmay, so'l kiftida qizning hayajonga to'la ovozi eshitildi.

– Voy-y, buncha go'zal!

U bu gapga inonmay, yoniga o'girildi. Yo'q, qiz aldamagan – hayajondan ko'zlari cho'g'lanib, yanoqlari pushtilanib turardi. Buni ko'rgan yigitchaning elkasidan xarsangtosh ag'darilib, yengil, juda yengil nafas oldi. Qiz bitay deb qolgan suratga qo'l cho'zganida, monelik qilmay, tashdan xayolchan, ichdan mamnun holda jar tomon yuz burdi va shunda so'l sohili yog'dulanib, o'ng sohili ko'lankalanib turgan jar tubidagi yashil butalar ranggi quyuyq tortib, qoramtir tus olganini, quyoshning zarin nuriga yo'g'rilgan archali dovon etagidagi yashil rang esa "erib", ajabtovur yog'du hosil qilganini ilg'adi. Yigitcha ilgari biron marta duch kelmagan, duch kelgan taqdirda ham e'tibor bermagan yoxud idrok etishga ojizlik qilgan bu ranglar jilosiga mahliyo bo'lib turarkan, birdan ulkan bir haqiqatni – ona tabiatning buyuk musavviriligini yurakdan tuydi. Ana shunda qizning qo'lidagi surat ko'ziga shu qadar ko'rimsiz ko'rinib ketdiki, natijada o'zini uquvsiz sanab, yerga qarashdan o'zga chora topmadi. O'z navbatida, hanuz suratga tikilib turgan qiz uchun hamma narsaga hozir-u noziriligini, chizgan suratlari esa uning ko'nglini ovlash yo'ldagi shunchaki urinish ekanini favqulodda fahmlab, uyatdan lavlagiday qizarib ketdi. Keng borliq esa yigitchani o'zga bir ulug' ishlarga undar, biroq bu qanday ish – buni bilmas, bilmog'i uchun, nazdida, hali jindek vaqt borday edi.

U tizginsiz hayajonli o'ylar og'ushida qir yoqalab iziga qaytar ekan, har doimgidek, oldinda borar, qiz esa uning so'nggi suratini avaylab tutgancha sal ortda kelardi.



Bobur ELMURODOV

## BAHODIRSIZ KELAR ARG'UMOQ...

Qashqadaryoga bot-bot borsam-da, negadir bu xonadonga yo'l solish og'ir tuyuladi. O'g'il yo'qotgan ota-ona oldida mulzam o'tirasan. Ko'z-qoshingga, bo'y-bastingga qaraydi, o'xshatadi. Hayot bo'lsa, yonimda yurmasmidi degich o'y kechadi. Taxtaqoracha dovonidan o'tib, so'lim Kitob ostonasiga yaqinlashar ekanman, Ochamayli qishlog'idan shunchaki o'tib bo'lmadi. Ichma-ich qorishib ketgan tosh ko'chalar orqali ichkari yurdim. Yakshanba tongi emasmi, bahor yellari yer o'tlarini shovurib-shovurib silkitadi. Aytgancha, Ochamayli – yuz urug'ining bir bo'lagi. Aytilishicha, ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar "ochamay" deyilgan. Demak, bu urug'ning tamg'asi egar shaklida bo'lgan. Ochamayli urug'i och (ach) degan qadimgi

qabila nomi bilan atalar ekan. Yana kimdir boshqacha talqin qiladi.

Qishloqda Otabek Muhammadiyev yashagan xonadonni bilmaganlar yo'qday ko'rindi. Garchi uning vafotiga 19 yilcha bo'lsa-da, "qaysi Otabek, jangda halok bo'lganmi?" degich odamni uchratmadim. Demak, u yildan yilga o'sib, ulg'ayib, yashab yuribdi.

Darvozani uzoq taqillatdim. Hovli katta, ovozni yutib yuboradi, shundan quloqqa eshitilmas. Yugurib chiqqan qizchadan so'rayman:

- Momong uydami?
- Bozorga ketuvdilar.
- Unda bobongni chaqir?
- Bobom chiqolmaydilar, oyoqlari og'riydi...

Qizcha bilan ichkari kirdim. Qarasam, to'r xonadagi uy eshigidan hassaga tayangan kishi ko'rindi. Hol so'rashdik. Avaz aka – qahramon yigitning otasi.

"Vatanparvar" gazetasidan kelganimni bilgach, jim qotdi.

– O'g'limni yo'qlabsizmi, xush ko'rdik. Qani, ichkariga... Momongiz bozorga ketuvdi. Keb qolar...

– Oyog'ingiz yaxshimi, ota?

– Birnavi. "Selsovet"da 33 yil buxgalter bo'lib ishladim. Pensiyadaman. Baribir og'ir oldim. Ikki marta infarkt, bir marta insultdan keyin hassaga tayanib qoldim.



Avaz ota o'g'lining albobini qo'limga tutqazdi. O'zi esa krovatda xayolchan o'tirdi. Varaqladim. Otabekning yoshligi, o'spirinligi... Suratlarida u turlicha gavdalanadi: yuk mashinalari oldida, stadionda, turnikka osilganicha. Atrofida tengqurlari. Aftidan, chayir bolakayning sport bilan shug'ullangani seziladi. Yoshligidan yo'l-yo'l mayka kiyib yurishi esa harbiylikka havasi borligidan. Yana varaqlayman. Otabek suratlardan suratlarga ulg'ayib boradi. Bir o'rinda u O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov bilan so'zlashib turibdi. – Bir vaqtlar uchrashgan edi, – qistirib o'tadi ota. Ba'zi suratlarni fotoapparatimga muhrlab boraman.

Albom so'ngida bir quchoq gul tutgan kelin-kuyov surati. Ota noxos qaradi-yu, hech narsa demadi. Bir achchiq sukunat cho'kdi. So'rolmadim, indamadi...

Bilishimcha, o'sha mash'um kunda u endigina 24 yoshga to'lgan, uylanganiga esa atigi 8 oy bo'lgandi.

## O'zim bilan o'zim

...Deraza ortidagi keng hovlida bir zamonlar Avaz ota-ning o'g'illari jon-jo'ralari bilan yelib-yugurib yurishgan. Hozir ularning hammasi har yerda: birovi mashinada, birovi amalda, birovi piyoda. Ammo ular bu hovliga tez-tez kelib turishadi. Ammo Otabek o'z uyiga-da kelmaydi. Uning arg'umog'i yolg'iz qaytgan.

Ha, shoir Azim Suyun kuylagan qahramon kabi u.

*Maysalar lol egdi boshini,  
Qizg'aldoqlar to'kdi yoshini,  
Ko'k berkitdi shan quyoshini,  
Bahodirsiz kelar arg'umoq.*

Xuddi o'sha. Samoda qushlar unsiz qoldi, latif, sarin shabbodalar tindi, tog'lar tundlashdi. She'rni to'laligicha o'qib ham navqiron yigit ko'z oldimdan ketmadi.

## Adash qismat

Ota o'g'limning ismini "O'tkan kunlar" filmi ko'rib, Otabekka havas qilib qo'yganman, degan edi. Bekning o'tkir zehni, madaniyati, tarbiyasi sabab ko'plar unga havasmand bo'lgani tabiiy. Karomati keng Xudo, ism ortidagi taqdirga serjant Otabek Muhammadiyevni ham sherik qilganiga nima deysiz?

Ismdoshlik bir yon, qismatdoshlik esa bir taraf bo'ldi. Asardagi bekning hayot xotimasini bir eslang:

"...1277-yilning kuz kezarida bo'lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshodan bir xat oldi. Qanoatsho Avliyo otadan yozar edi. "O'g'lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo'shunda edi. Olmaota ustidagi o'rus bilan to'qunishmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo'ldi. Men o'z qo'lim bilan ikkisini dafn etdim..."

Otabekning hayoti ham qaysidir ma'noda dushman bilan kurashlarda yakun topdi. U ham yovga qarshi kurashib, qurolini biz zum yerga qo'ymadi.

Kitobdagi Otabek 24 yoshli yigit sifatida namoyon bo'lsa, bizning Otabek ham 24 yoshda edi.

Avaz ota buni yaxshi biladi. Otabekdan Yodgor qolgan edi. O'z o'g'lidan esa zurriyod qolmadi. – Armonim shu bo'ldi, – deydi u.




## Otabek yozgan xatlar

Otabek Muhammadiyevning harbiyda yozgan maktublarini bir-bir o'qib chiqdim. Xat tiliga ko'ra, yigitcha "O'tkan kunlar"ni suv qilib ichgan. Bekning noma bitmoq yo'sini shundoq seziladi.

Birinchi sog'inchnomani Otabek dadasi Avaz otaga yozadi:

"Ushbu xatim tez va qisqa kunlar ichida yetib borib, ma'lum bo'lsinki, ul go'zal Ochamayli qishlog'ida o'yab-kulib, sog'-salomat, charchamasdan ishlab yurgan dadajonimga!



Endi mendan so‘rasangiz, men yaxshi, sog‘-salomat xizmat qilib yuribman. Qiyinchiliklar yo‘q. Nima uchun qiyinchilik bo‘ladi? Hammaga so‘zini o‘tkazgan odam hech qachon qiynalmaydi. Kallani ishlatish kerak ekan, dadajon. Xuddi uyda yurganday yuraman. Lekin uy, uyda...

Sana: 25.01.1996-yil”.

Ikkinchi xat akasi Ozod Muhammadiyevga yozilgan bo‘lib, unda Otabekning ichki tiynati teranroq ochiladi:

“...onam faqat yangiliklardan yozmaysan deydi. Yangiliklar unchalik yo‘q. Boshqalarday yolg‘ondan yozgim kelmaydi. To‘g‘risini aytaman, uyni juda sog‘indim”.

## Voqea

...Bozordan qaytgan Toshbibi aya suhbatimizni bo‘lmay eshitdi. Xo‘jayinining gaplariga boshini silkib-silkib turdi. Oxiri bir hazin ovozda so‘z qotdi:

– O‘g‘lim 45 kun muttasil jang qildi. Hatto telefondan urush tugab qolganini, erta yo‘lga qaytishini ham takror-takror aytgandi. Kelar chog‘ini bir mahalla bo‘lib kutib o‘tirgandik...

Onaning boshqa gapirishga jur‘ati yetmadi. Qolganini qahramonning akasi Ozod Muhammadiyev harbiycha vazminlik bilan tushuntirib berdi. Baribir tafsilotlar kishiga og‘ir botadi.

Bilishimcha, Otabek chiqqan harbiy vertolyot jarlikka qulagan. Vertolyotning dum qismida marhumning Maqsud ismli chiroqchilik safdoshi ham bo‘lgan. Voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yigitcha xayriyatki omon qolgan.

Ozod Muhammadiyev ukasining vafotidan so‘ng aynan u xizmat qilgan harbiy qismda shartnoma bo‘yicha xizmat qilib, nafaqaga chiqdi. Ukasi kapitan Jonibek Muhammadiyev ayni paytda Qurolli

Kuchlarimiz safida sharaflı burchini o‘tab, yurt himoyasi yo‘lida xizmat qilmoqda. U Otabekdan yetti yil keyin tug‘ilgan ekan.

Buni qarangi, Ozod akaning o‘g‘li Zuhridinjon rahmatli amakisiga havas qilib Qurolli Kuchlar akademiyasida o‘qiyapti.

## Ota xotiralari

O‘g‘il yo‘qotib, yarim jon bo‘lib qolgan Avaz otaning harbiylikdan-da ko‘ngli qolgandir, deb o‘yladim. Balki farzandlariga jahl ustida: – Tamom, hech biring “voyenniy” bo‘lmaysan. Odam o‘ldirmaydigan kasblar tiqilib yotibdi, – degandir ehtimol. Ammo ikki o‘g‘ilning harbiyligi, otaning nevarasini “Temurbeklar maktabi”da o‘qitayotganini eshitib, taxminlarim tarqab ketdi.

– Har kuni urush bo‘lmaydi-ku, o‘g‘lim. Vatanni shular qo‘riqlab yotibdi-ku. Mana, meni olaylik. Hassaga tayanib qolgan yarim jon odamning qo‘lidan nima kelardi...

Shu kez ota o‘g‘li bilan bo‘lgan qisqa suhbatini esladi: – Dada, armiyada qolaman, – degandi o‘g‘il. – Udda qilsang qol, – degandi ota. Shu-shu, Otabek harbiy bo‘ldi.

Bolamning falon xarakteri bor edi deb maqtamayman, odam edi. Kimdir yiqilsa, qo‘ltig‘iga kirib eltadigan, ochiq yuzli, jo‘ralariga sodiq edi. Oshnolari haliyam yo‘qlab turadi. 14-yanvar – bayramda ham kelib, xabar olib ketishdi. Har zamon “chast”dan ham kelishadi.

O‘limning turi ko‘p. U tengilarning ayrimlari ro‘zg‘origa yaramayapti-ku. Xudoning ishi. Kerak payti sevintirib berdi – xursand bo‘ldik, yig‘latib oldi – chidaymiz.

## Loqaydlıkdagi jarohatlar

- Maktab, mahalla yo‘qlab turadimi?
- Mahalla tez-tez yo‘qlaydi, sog‘ligim uncha ko‘tarmaydi. Momon-giz maktablardagi uchrashuvlarga borib turadi.
- Qahramon o‘g‘il xotirasini abadiylashtirish uchun nimalar qilindi? Suhbatimizga Toshbibi aya qo‘shildi:





– Qashqadaryo viloyati hokimi Zafar Ro‘ziyev bayramdan bir kun avval uyimizga kelib, barchamizni tabrikladi. Keyin tegishli xodimlarga alohida topshiriq berdi. Unga ko‘ra maktab va ko‘cha o‘g‘limning nomi bilan ataladi, unga atab byust o‘rnatiladi, o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarimiz ham asfalt bo‘ladi. Hozircha ko‘chamizga Otabekning nomi berildi. Hokimiyat vakillarining aytishicha, shu kunlarda o‘g‘lim o‘qigan maktab uning nomi bilan atalib, qahramon byusti ham o‘rnatilar ekan. Harakatlar allaqachon boshlangan deyishyapti. Shu ishlar tezroq amalga ohsa deyman. Chunki Vatan uchun jon bergan o‘g‘il jasorati qanchadan-qancha bolani botir qilib ulg‘aytiradi. Akamday dovyurak bo‘laman deb harbiyga ketganlar, o‘qiyotganlar bor.

## Øz-o‘zimiz bilan

Toshbibi ayanning kuyunganicha bor. Bir safar u Mudofaa vazirligi tomonidan halok bo‘lgan jangchilarning oila a‘zolari uchun Xitoy davlatiga sayohat uyushtirilganini aytib berdi. O‘shanda aya o‘g‘lini yo‘qotgan onalar bilan suhbatda bo‘lgani, aksariyat halok bo‘lganlar xotirasi uchun uy-muzeylar tashkil qilingani, maktablar, ko‘chalar nomlangani, hatto stipendiyalar ham tashkil qilinganini bilgan ekan.

O‘zim ham uch-to‘rt viloyatga, qahramon o‘g‘illar xonadoniga borib, bu ishlar allaqachon amalga oshirilganiga guvoh bo‘ldim. Masalan, farg‘onalik Bobur G‘aniyevni olaylik. U yashagan xonadonda uy-muzey tashkil etilib, yodgorlik lavhasi o‘rnatilgan. Ko‘chaga Boburjon G‘aniyev nomi berilgan. Hatto uning nomi bilan ataluvchi stipendiya, o‘zi ta‘lim olgan oliy o‘quv yurtida ramziy yotoqxonaga ham bor. U ham serjant Otabek Muhammadiyev bilan bir safda, tog‘- u toshlar orasida edi. Demak, bunday xayrli ishlarni kechiktirib bo‘lmaydi.

Avaz ota va Toshbibi ayani uzoq tingladim. Ularning armonlari menga-da og‘ir botdi. Shu uydan qahramon yigit hammadan balandda, yelkadan yelkaga o‘tib chiqib ketayotgani ko‘z o‘ngimda gavdalandi. Uy sohiblari bilan xayr-xo‘shlashdim. Darvozadan chiqar ekanman, alamli satrlar tilimda aylandi:




*Qonxo‘r g‘anim, qonxo‘r qatil kim?..  
Havo bo‘g‘iq, badqovoq va dim,  
Chopib chiqqan el, xaloyiq jim,  
Bahodirsiz kelar arg‘umoq.*

## Tarjima qilinmagan hol

Serjant Otabek Muhammadiyev 1976-yil 8-yanvarda Qashqadaryo viloyati Kitob tumani Ochamayli qishlog‘ida ishchi oilasida tug‘ilgan. 1993-yili 11-umumta‘lim maktabini a‘lo baholar bilan tugatgan.

1993-1995-yillar tumandagi ip yigiruv fabrikasida ishchi bo‘lib faoliyat yuritgan. Otabek maktabni bitirgach, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga hujjatlarini topshiradi. Biroq kerakli ballarni to‘play olmaydi. Bundan ruhi cho‘kmay, yigitlik burchini o‘tashga chog‘lanadi. U 1995-yilning may oyida Kitob tumani mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan muddatli harbiy xizmatga chaqiriladi. Shu-shu faoliyatini milliy armiyamiz safida shartnoma bo‘yicha davom ettiradi. Otabek Muhammadiyev 1999-yilning noyabr oyida Toshkent viloyati Ohangaron tumani Yangiobod shahrida bir guruh terrorchilar bilan bo‘lgan janglarda faol qatnashdi.

2000-yil 16-sentyabr kuni Surxondaryo viloyatining chegara hududlaridagi jangarilar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda qahramonlarcha halok bo‘ldi.



## ASRNING DOLG'ALI KUNLARI XOTIRI BILAN

— o Ustoz Shukrulloni yo'qlab... o —

*Ket, desang Qashqar ketoyin,  
Yo'lda yolg'izlik yomon.  
Yolg'izlikdan kim o'libdir,  
Hammadan xo'rlik yomon...*

**Mana, necha kundirki, ular mening ko'z o'ngimda, tegramda. So'ngsiz sog'inch, g'ussa, alam, o'kinch qa'riga cho'kkan nigohlarga tikilmoq azob... Jallod zamonda ham boshini tik tutgan Qodiriy, chaqmoqdek chaqib o'tgan Usmon Nosir, xalqning ertasi uchun yosh umrini fido qilgan Ubaydullo Xo'jayev... Bu suratlarda xo'rliklar-u haqoratlarning musibati ko'chgan nigohlarning ohini ilg'ash qiyin emas. Bunda yuraklarga toshdek botgan onalarning faryodi, tirik yetim qolgan bolalarning ko'z yoshlari isi keladi. O'sha qora kunlar dog'i hali uncha-muncha qalblardan arimagan. Qalbi uyg'oqlarga u zamon ko'rgiliklarini eshitishning o'zi dahshat. Ko'rganni-ku qo'yavering...**

**Ayni dam 100 yoshni qarshilayotgan, o'tgan asrning dolg'ali kunlarini xo'b va ko'p tatigan ustoz ijodkor Shukrullo Yusupovni yo'qlovimiz, suhbatimiz shu boisdan ham bizga ulkan maktab bo'ldi.**

Chilonzor tumanining ko'rkam mahallari-dan biri. Xonadonga kirib borarkanman, ikki tomondagi imoratlarga ko'zim tushadi. Biri odmi, o'zbekona uslubda qurilgan, eshikromi ganjli, kitoblarga, tarixiy suratlariga boy. Yana biri zamonaviy, baland, viqorli. Go'yo zaminning shu bir parcha yerida kecha bilan bugun birga yashayotgandek, biri-birini tinglayotgandek. Yodimga adibning "Kafansiz ko'milganlar" asaridagi voqealar birma-bir tushadi: "1925-1926-yillarda otam yaxshi niyat bilan mening sunnat to'yimga atab, havas bilan imorat soldirgan edi. O'sha vaqtda hovlimizga kelgan Ubaydulloxonga (Ubaydulla Xo'jayev) maqtanib:

– Ubaydulloxon, hali uyimiz chala, shiplarni bo'yatib, devorlarini ganch qildiraman, o'shanda kelasiz, – deganda Ubaydullo akam:

– Ganch qilib shipining fanerlarini bo'yatish emas, iloji bo'lsa, fanerlarini buzib, tunukaning o'miga loy tom qilib qo'ying, zamonaning bu ketishi shu bo'lsa, boloxonalik uy-joying bor ekan, boy ekansan, deb tortib olib qo'yadi. O'zingizni quloq qilmasa ham, odam kiritadi, hozirgi siyosat shunday...” hadiksiz, istagan uslubida uy solish ham yurtning tinchligidan-da degan o'y o'tadi mendan...

Qizlari Xurshida opa shoarning yoniga boshlaydilar. Ustoz bizni nim tabassum, dilxushlik ila qarshilaydi, ko'zlarida mehr balqiydi. Qo'lida aso, issiq choy tutgan qo'llari titramaydi. Aksincha, stol ustida turgan ko'zoynakka, so'ng biz olib borgan kitoblarga uzaladi. Bir qarashdayoq oila a'zolari nuroniyini yaxshi parvarish qilayotganliklari seziladi: egni-da toza paxtali ko'ylak, boshidagi duxoba do'ppi, issiq jun paypoq... Mening ko'z oldimda esa yozuvchining navqironlik vaqti jonlandi. Uning asaridagi shunday tasvirlar yodimga keldi: “Lagerga kelganimning birinchi kunlaridanoq insoniy qiyofadan, otanonam umid bilan qo'ygan ismimdan mahrum qilishib, mahbuslik tamg'asi bosildi. Mahbuslik liboslarini berishdi. Oyoq kiyimi sifatida o'likdanmi, tirikdanmi qolgan, teshiklaridan sim o'tkazilgan. Eskirib, bujmayib ketgan botinka, yomg'ir-qorda kiyish uchun ming yamoq paxtali shim, telogreyka, o'zimga mutlaqo loyiq bo'lmagan (bu vaqtda vaznim 50 kilogramm atrofida edi) hilpillagan, pochalari uzun jomakor, bosh kiyim sifatida lagerning mashinalari tikkan qalpoq, uning ustidan kiyish uchun boshlik, brezentdan qilingan qo'lqoplardan iborat edi. Bu yerning qoidasi shu: sening ixtiyoringda hech narsa yo'q, berganini kiyib, berganini yeysan. Qor-yomg'ir joningdan o'tsa, yamab-yasqab olish sening o'zingga bog'liq”.

– She'rларim, doston-u romanlarim mening – tarjimai holim, – deydi ustoz. – Hujjatlarda yozilishicha, 1921-yil 2-sentyabrda Toshkent shahrining Shayxovandtohur dahasiga qarashli Olmazor mahallasining Eski O'rda ko'chasida tug'ilganman. Otam ham, onam ham diniy va dunyoviy bilimlardan boxabar bo'lishgan. Otam Yusufxo'ja qori emchi bo'lganlar. Yillar o'tib, qamalishimda otamning ana shu “dindor”ligi ham sabab qilib ko'rsatilgan. Onam Zaynabxon otinoyi bo'lganlar. Qur'on o'qigan va o'rgatgan, Fuzuliy, Navoiy asarlarini yaxshi ko'rgan. Boshqa otinoyilar “alif, be, te” deb yodlatib o'rgatishsa, oyim yozishni ham o'rgatardilar. “Bolalarimiz savodli bo'lishlari kerak” derdilar doim. Bizning shajaramiz ilmi bo'lgan. Eshitgandirsiz, xolamning o'g'li Ubaydulla Xo'jayev millat sha'nini hayotidan aziz qo'ygan inson bo'lgan.

“Ubaydullaxonning guno-hi bormidi?! Bunday savol faqat uning uyida yoki qarindosh-urug'lari orasidagina bo'lmay, qamalish xabarini eshitgan butun Toshkent shahridagi odamlar hatto uzoq-uzoqlardagi

tanishlari orasida aylanib katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi.

– Shunday odam qamalibdimi?

– Otilarmishmi?

– Yo tavba! Qaysi Ubaydulla?

– Shayxontovurlik Asadulla maxsumning o'g'li.

– Advokat-da!

– Faqat advokat emas, uning qilgan ishlari uncha-muncha odamning qo'lidan kelmasdi.

– ... Bu o'sha o'risning buyuk yozuvchisi Tolstoyga xat yozgan odam-da!

– Ha, o'sha! Ubaydulla!

– Bu advokat bo'lsa, yozuvchi bilan nimani talashgan?

– Millatni!

– Millatni?!

– Ha millatni! Millatning taqdirini talashishdan boshqa uni dardi bo'lgan emas. Bo'lmagan” (“Tirik ruhlar”. – Toshkent. Adabiyot uchqunlari. 2018-yil).

– U zamonlarda Tolstoy asarlarini o'qish emas, uni hatto ijodkorlar orasida ham bilganlar kam bo'lgan davrda, “Yovuzlikka qarshilik ko'rsatmaslik” haqidagi qarashlari uchun shunday buyuk adib bilan bahslashishga jur'at etish! Uning ustiga, o'sha xatni yana, rus tilida, Tolstoyni qoyil qiladigan saviyada yozish!..



Ha, tevarakda yovuzlik, qabohat avj olgan sari odamlar orasida qo'rquv, yolg'on, sotqinlik urchidi. Shunday bir pallada Tolstoyning "Nesoprotivleniye zlu" nomli yomonlikka qarshi yaxshilik bilan javob berish borasidagi e'tiqodiga bahs sifatida Ubaydullaxonning 1909-yilda yozgan xati yozuvchining hamiyatiga tegib ketadi va Lev Nikolayevich o'sha kuniyoq unga javob yozadi: "Ubaydulla Asadullayevich! Mening qarashim g'oya emas, niyat, ezgu istak", deb tushuntiradi. Nima desam ekan, davr bunday kishilarni xushlamas, fikrlash esa zamon uchun xavfli edi. Ubaydullaxonning umri chorizm davrida ham, 1919-yildan 1937-yillargacha ham goh ozodlikda, goh qamoqda o'tgan. Keyin 1938-yilda yana qamoqqa tushgach, shu yerda vafot qilgan. Eहे, aytaversam... Bunday kunlarning vahmi yodimga tushaveradi.

Adabiyotga qiziqishimda o'sha pallada gurkirab maydonga chiqqan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitratlarning ta'siri bo'lgan, albatta. 1936-37 yillarda Pedagogika bilim yurtida talaba edim. Usmon Nosir o'sha yillarning eng sevikli shoiri edi. "Yurak", "Mehrim" kabi kitoblari o'quvchilarning qo'lidan, ta'rif-tavsifi tillardan tushmasdi. Keyin u birdan xalq dushmani bo'lib qamaldi, degan gap tarqaldi. Komsomollar yig'ilishida uni la'natlab, kimning qo'lida kitoblari bo'lsa yoqib tashlashni buyurishdi, deya eslaydi adib.

Ustozni tinglar ekanman, otash-qalb shoirning ayni qamoq jazosi belgilangandagi, soch-soqoli o'sgan bir ahvolda, ko'zlari qariga cho'kkan adoqsiz mung zuhurlangan suratiga boqaman.

*"Senga tor keldi bu ko'krak,  
Sevinching toshdi qirg'oqdan.  
Tilim charchar, ajab gohi  
Seni tarjima qilmoqdan...  
Itoat et, agar sendan  
Vatan rozi emas bo'lsa.  
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,  
Yoril, mayli tamom o'lsam!," – de-*



gan satrlarni qachon, qay kayfiyatda yozgan ekan? Ona Vatani, xalqi uchun chaqmoqqa aylanishga hozir bo'lgan insonni qanday qilib xoin, dushman deyish mumkin axir...

Olis xotiralarga band bo'lgan ustoz yana tilga kiradi:

– Qamoqqa tushganimda o'ttizga ham kirmagan edim. Ikki bolam bor, xotinim yana homilador edi. Bu yo'lda men bilan yonma-yon turib, qiyinchiligimga bardosh bergan ayolni eslamay o'tsam bo'lmas. Munavvarxon juda sabrli, aqlli ayol edi. 1951-yilning yanvar oyida uyni maxsus xodimlar tintuv qilib, meni olib ketishgach sud 25 yillik qamoq jazosiga hukm chiqardi. Ammo 5 yil deganda aybsiz aybdor bo'lib, "jazoni o'tab" qaytdim. Shu kunlarda ko'rmagan xo'rliklarim qolmadi. Yurtdan olisda, inson zotiga, sha'niga zid qilmishlar, tuhmat va haqoratlar, aldov va zo'ravonliklarni ko'rib, xayolimda mening nohaq qamalغانimni xalqim, yaqinlarim bilarmikin, menga ishonisharmikin, ayolim shuncha yil kutarmikin degan azobli o'ylar, adoqsiz savollar iskanjasida yashadim. Qamoqdagi xo'rliklar bir tomon, shum xayollar bir tomon bo'lib yurganimda Munavvarxondan xat oldim: "Shukrullo aka, noumid bo'lmang, yigirma besh yil o'tadi-ketadi. Chiqqaningizda bor-yo'g'i ellik to'rtida bo'lasiz. Bolalarimiz endi atak-chechak qilayotibdi. Qamoqdan chiqqaningizda ularning uylanadigan, turmushga chiqadigan vaqti bo'ladi. Kelishingiz bilan to'ylar qilamiz", – deb yozibdi. Bu ayolning jasoratini ko'ring. Bu qadar hayotsevarlik, matonatli, bardoshli bo'lish hazilakam gapmi, qizim.

Men nohaq qamalib, qancha uqubatlarni ko'rgan bo'lsam, ayolimga ham "xalq dushmanining xotini", Yozuvchilar soyuzidagilarning "Yo'qol, biz hech qanday Shukrilloni tanimaymiz" degan haqoratlarga sabr qilish, uch bolani ochlik, qahatchilikdan omon-eson chiqarish, farzandlarimni men bilan uchrashtirish uchun kelganda tergovchilarning dashnomlariga chidash oson bo'lmagan...

Qamoqdan ham qaytdim. Bir o'g'il va ikkita qizni voyaga yetkazdik. O'g'lim Abdug'afur kimyogar, qizlarim Xurshida shifokor, Umida elektron mashinalar injeneri bo'ldi. Hammalari o'z sohasida fan nomzodlari hozir.

Necha yillarki, xalqimiz savodsiz, o'tmishsiz, ajdodlaridan olisda yashadi. Krasnoyarsk peresilniy punktida qamoqdagi so'nggi kunlarimda Stalin o'limidan so'ng bizga biroz yengilliklar yaratildi. U ham bo'lsa – uydagilardan xat olish, uchrashish, muzli qarorgohimizga yilda bir marta suzib keladigan kemalarda keltiriladigan gazeta va kitoblarni o'qish imkoniyati. Ana shunisi juda quvonchli edi. Yuragingda so'nggi umidlar ham parchalanayotgan bir paytda ozod bo'lish ilinji qalbingni bir tomonini yoritisa, yillab qo'lingga tegmagan kitoblarni varaqlasang, o'qisang... Kitoblar seni qayerda bo'lsang ham yashashga undarkan. Dunyo o'tkinchi, adabiyot abadiy ekanligiga ishontirarkan. Bu kuchni men shunday og'ir paytlarda angladim.

*“Lagerlarda o'zlarini ilg'or madaniyatli hisoblab kelgan ayrim ovro'paliklar biz O'rta osiyoliklarni “orqasi qoralar” deb chaqirib, madaniyat, san'atdan bexabar, ilm-ma'rifatdan uzoq xalqlar deb bilishardi. Hatto millatini aniq ayta olmayman-ku, Boltiqbo'yidanmi, polyakmi, rusmi bilmadim Panteleyev degan injenerga men o'zbekman deganimda, qozoq, tojikdan farq qilolmay, o'zbeklar yonida doim pichoq taqib yuradigan, savodsiz, vahshiy degan tushunchada ekanini aytgan edi.*

*Kunlardan bir kun shu odamning qo'lida kitob ko'tarib yurganini ko'rib, qanday kitob, deb so'rasam, kutilmaganda Oybekning ruschaga tarjima qilingan “Navoiy” romani bo'lib chiqdi. Bu tasodifdan qalbimda quvonch va g'urur paydo bo'lib, taassurotini bilmoqchi bo'lgan edim, u:*

*– Bu roman menga juda yoqdi. Qadimiy madaniy xalqlar*

*haqida. Alisher Navoiy degan buyuk yozuvchi haqida. Chindan ham juda ibratli, buyuk shoir bo'lgan ekan, – dedi.*

*Kechagina o'zbeklarning kimligini bilmagan, qoloq xalq deb o'ylagani uchun undan:*

*– Mening millatim kim? Navoiyning millati-chi? – deb so'radim. U:*

*– Navoiy?.. Navoiy samarqandlik o'zbek, – degan javobni qildi.*

*Men unga, kechagina meni “qoravoy, badaviy” degan eding, o'sha Navoiyning avlodi o'zbek men bo'laman, deganimda, u:*

*– Meni kechir, O'rta Osiyo xalqlarini bilmas ekanman, noto'g'ri tasavvur qilgan ekanman. O'zbek xalqi, haqiqatan ham, juda qadimiy madaniyatli buyuk xalq ekan, deb tan olib, uzrini aytdi.” (“Kafansiz ko'milganlar”. – Toshkenti “Mashhur-press”2017-y.)*

Asrning dolg'ali kunlari muhrlangan bu asarning har bir bobi ana shunday tasvirlarga to'la. Sodda, ishonuvchan, bag'rikeng elimizning ayovsizlarcha xo'rlanishi, xo'roz urishtirib yoki nobop yelpig'ich haqida gapirgani uchun ham surgun qilingan, millatning ozodlikka, hurlikka yetaklagani uchun ham qoralanib, ne-ne zakiy, zabardast ajdodlarimiz sovuq o'lkalarda kafansiz ko'milib, nom-nishonsiz ketganligini bilish azob.

Xonadonda qator suratlariga ko'zim tushadi. Bu yerda adib rus va qardosh xalqlarning zabardast ijodkorlari bilan birga tushilgan rasmlar batartib joylashtirilgan. Suratlar ijodkorning butun hayotini kinolentadek ko'z o'ngingizda tasvirlaydi go'yo. 2016-yili Turkiyaning “Qardosh qalamlar” nomli nufuzli jurnali hamda



“Turkiy jumhuriyatlarning adabiy jurnallari kongressi” hamkorligida “Yil insoni” tanlovida ustozimiz Shukrullo Yusupovning tan olingani ham bejiz emas. Zero, ovoz berish yo'li bilan aniqlanib, sara nomzodlar orasida e'tirof etilishi yozuvchining yuksak asarlar egasi ekanligini yana bir karra dalillaydi.

Suhbatimiz anchaga cho'zildi. Ustoz bizga Usmon Nosirning she'rlarini, Rasul Hamzatov so'zlarini yoddan aytib berdilar. Onalari, ustozlari haqidagi qadrli xotiralarini o'rtoqlashdilar. Eng qizig'i, o'zlari haqida “Men hamon o'quvchiman” degan iqrorini aytdilar. Asrga teng umr sohibi, qanchadan-qancha qalin kitoblarning, sahna asarlarining muallifi bo'lgan insonning jasoratiga, sadoqati-yu ezgu a'moliga qoyil qoldik. Bu barchamizga ibrat bo'lgulik xitob edi, aslida.

– Men bu uyni kelajakda Shukrullo nomidagi uy muzeyi qilaman. Otamning tuyg'ulari ko'chgan asarlar yosh avlodga saboq berishi kerak, menimcha, – dedi bizni kuzatar chog'i Abdug'afur aka. Biz ham shu niyatga qo'shildik. Toki, haq gapni hamma vaqt ayta olgan, vijdonli, xalqi oldida yuzi yorug', betakror asarlari bilan qancha qalblarga kirib borgan yozuvchining hali bizga aytar gaplari ko'p, nasihatlari mo'l...

**Nargiza ASADOVA**



Zulfiya QUROLBOY qizi

# Bedor ruh

Hikoya



Rasmlarni Oloviddin Sobir o'g'li chizgan.

“Zolujo aydi:

“Ey Jabroil, Izi azza va jalla Yunusni o‘zga zindonga solur bo‘lsa manda-o‘q tursun.

Man anga sandin bag‘irsoqman”

“Qisasi Rabg‘uziy” dan

Tongda dengiz sokin bo‘ladi.

Faqat uning siynasi qa‘rida ojiz bir shovullash elas-elas eshitilar, go‘yo uyqusida alag‘-chalag‘ tush ko‘rib bezovtalanayotgandek, suv yuzi bexosdan titrab-titrab ketardi. Kirib kelayotgan tongning bo‘zargan va tumanli jilosi miltillashi bilan tunda, osmon chiroqlarining qizg‘ish shu‘lasida musallas rangiga g‘arq bo‘lgan dengiz yuzi asta-sekin o‘zgara boshlaydi, goh och yashil, binafsha, goh zumrad rangda tovlanadi; baliqchi qushlar jimgina charx uradi, oppoq to‘lqinlar shovqinsiz kelib qirg‘oq quchog‘iga otiladi va yana shu zahoti dengizga qaytadi.

O‘zining naqshin ustunlar qad ko‘targan ayvonlari bo‘lgan son-sanoqsiz uylari, yonma-yon joylashgan qator-qator do‘konlar-u qovoqxonalari, qubbalari yaltiroq gumbazli ibodatxonalari, tijorat kemalari hech arimaydigan bandargohlari, ayollardek ko‘rkam va mag‘rur, tillarang bargli daraxtlari bilan dengizga yorib kirgan dabdabali va serviqor ko‘rfaz ham odatda tong chog‘ida sokin bo‘ladi, hayajonga to‘la yuragi qotib qolganday, tiq etgan tovush eshitilmaydi; go‘yo tungi ehtiroslar quyuni tinganidan yengil tortgan tabiat hordiq chiqarayotgandek, borliqda sukunat hukm suradi. Baland va keng qilib qurilgan, hafsala bilan turfa ranglarga bo‘yalgan uylarning devorlarida, noz-karashmali ayollarning shoyi liboslarida, yoqut ko‘zli marjonlariyu tilla taqinchoqlarida o‘zini ko‘z-ko‘z qilgan chiroqlarning olovrang shu‘lasi ham endi ko‘rinmaydi.

Dengiz ortidan tong shafag‘i mo‘ralab, quyoshning ilk nurlari suv yuzini tila boshlagan mahal safardan qaytgan kemalar gudogi mudrab yotgan ko‘rfazni mast uyqudan uyg‘otadi. Eng avval qirg‘oqdagi omborxonalarda yotib yuruvchi hammollar uyquli, qizargan ko‘zlarini ishqalagancha bandargoh og‘ziga sekin kirib kelayotgan kemalar sari yugurishadi. Keyin olibsotarlarning o‘tkir ovozlari yangraydi. Novvoyxonalar tepasida tutun o‘rlyadi. Dengiz shamoli kuydirilgan zaytun yog‘i hidini olislarga olib ketadi. Bozorlarning son-sanoqsiz rastalari odamlarga to‘ladi. Yuk ortilgan aravalar qo‘shilgan otlarning shiddatli tuyuqlari ostida yer titraydi.

Nozik qo‘lchalarida chiroyli tuffillarini likillatgancha oftobning ilk nurida erib ketayotganday

mayin shitirlayotgan qumda g‘ovur-g‘uvur qilib chig‘anoq terib yurgan ayollar paydo bo‘lishi hamon bandargohda ishni tugatib, qo‘li pul ko‘rgan hammollar mamnunlik bilan kaftlarini bir-biriga urib qo‘yib, asalarilarday g‘uvillagancha qirg‘oq tomonga otilishadi...

Peshinga borib ko‘rfaz ahlining hashamatga o‘ch tabiatlari ifodasi bo‘lmish – poydevori baland binolari, tundan tonggacha mast-alast kishilar arimaydigan qovoqxonalarning derazalari va sohilning noz-u ishvaga usta jononlaridek sollanib, suvdagi aksiga mahliyo bo‘lgan daraxtlar dengiz yuzida xuddi ko‘zguda aks etgandek tovlanib, lipillay boshlaydi, go‘yo barchasi bir lahzada izziz yo‘q bo‘lib ketadigandek...

Kech tushib, qirg‘oqqa bog‘langan qayiqlar tepasini moyga shimdirilgan olov-tayoqlar yorita boshlagan bir vaqtda ulkan baliq ko‘krak qanotlarini keng yoyib, ulkan quyrug‘i bilan zim-ziyo qorong‘ilikni tilimlagan sohilga yaqin suzib keladi. U olam hali murg‘ak pallada, dunyo faqat suv va jonzotlardan iborat bo‘lgan zamonlardan buyon shu dengizni makon tutgan; uzoq yashaganidan hatto necha yoshdaligini ham eslay olmas; mudom umrlarini harbu zarblarda o‘tkazadigan, nuqul urush va hiylagarliklar o‘ylab topadigan, hashamatga o‘ch odamlar paydo bo‘lgach tez-tez qirg‘oqqa yaqin kelib, suv ostida qimir etmay turgan otlar dupuri, suvoriylar hayqirig‘i, qilichlar jarangidan tortib, aravalarining tosh yo‘lga urilib g‘ichirlagan tovushlari va bilyardxonalaridagi qah-qahalar-u, go‘sh cho-pilayotgan to‘nkalarining gursillashlarini, doshqozonlar tagiga qalangan o‘tinlarning chirsillashi-yu tovuqlarning qoqog‘lashlarigacha eshitardi.

Unga odamlar hayoti sirli va qiziqarli tuyulardi.

Ulkan baliq shu qadar ehtiyotkor ediki, mavjud bo‘la turib, nomavjuddek yashardi.

Qirg‘oqda yashovchilar qanchalik aqli, boy-badavlat, o‘zlariga baland-baland qalalar qurib olgan, ziynatlagan, ustaxonalar qurgan, himoya aslahalari yasagan, hech kimni narzar-pisand qilmaydigan, o‘zlariga haddan ziyod ishonadigan kishilar bo‘lmasin, shu vaqtgacha uning mavjudligini payqashmagandi. Goh-gohida ulkan baliqning qiziquvchanligi, tabiatan sarguzashtalabligi ustun kelib, odamlarga bilinmoqni, oshkor bo‘lmoqni istab qolardi, lekin eshaklarning shaloplashi, baliqchilarning yovvoyi qichqiriqlari quloqlari ostida jaranglashi bilan oshkor bo‘lish yaxshilikka olib kelmasligini eslab, bu istakni ortga surardi har safar...

\* \* \*

Bu vaqtda ko'rfaz ahli odatdagidek, dengiz bo'yidagi qovoqxonaga jam bo'lishgandi. Ular tillarang naqsh bilan bezalgan gumbazsimon shifti musiqa sadolaridan titrayotgan keng va yorug' xonada, to'kin-sochin stollar atrofida o'tirgancha maishat qilishar, o'ynab-kulishar, kunduzi qo'qqisdan osmonda paydo bo'lgan oy kabi kutilmaganda kirib kelgan baland bo'yli, kelishgan, yuzidan nur yog'ilayotgan muhtaram Zot tomonga qaramasdilar ham.

Eshik oldidagi stolda o'tirgan bir necha kishigina ensalari qotib, ijirg'anib kulimsiragancha qarshilarida turgan Muhtaram zotning so'zlarini tinglardilar:

– Ey qavmim, men sizlarga faqat yaxshilik tilayman. Agar bu zalolat, gumrohlikda davom etsangiz, Ug'on tengri sizlarga shunday bir azob, balo-musibat yuboradiki, aniq halok bo'lursizlar!

Shunda odamlar orasidan past bo'yli, jikkak bir kishi chayqalgancha o'rnidan turib xirillagan ovozda dedi:

– Bas qilmaysanmi, ey, o'zini payg'ambar deb atayotgan zot. Axir, ko'rmayapsanmi, biz kun bo'yi eshakday ishlab, endi dam olishga kelganimiz...

Jikkak kishi yonidagi yarim yalang'och ayolni yetaklagancha nari ketarkan, ayol ishva bilan jilmayib, Unga likopchada bir bo'lak go'sht tutdi.

Muborak zotning og'riqli nigohlari na ayolga, na go'sht bo'lagiga parvo qildi, deraza osha dengizga talpindi.

– Xudodan qo'rqing...

– Nima, seningcha, ota-bobolarimiz sig'inib kelgan xudolar hech kim emasmi? – deya e'tiroz bildirdi o'tirganlardan biri ingichka bo'ynini cho'zib. – Sen aytayotgan o'zi yo'q Xudoga ishonib, biz uchun muqaddas bo'lgan ma'budlarimizdan harom narsadan irgangandek yuz o'girishimiz kerakmi?!

– Sizday shahvatparast, johil va gunohkorlarning gaplariga quloq soladigan xudolar qanaqa xudolar ekan?! – kinoya qildi Muhtaram zot.

Olomon Muhtaram zotni gapini davom ettirgani qo'ymadi.

– Yakkayu yagona Parvardigoringga borib ayt, agar biz gunohkor bo'lsak, o'sha sen aytib, qo'rqitayotgan azobini yubora qolsin! – deya qichqirishdi ular.

Likopchada go'sht tutgan ayol kutilmaganda yonidagi jikkak kishini ko'krigidan itarib yubor-

di-di, xona o'rtasida to'ntarilgan bochka ustiga sakrab chiqdi va moda silovsinday eshilib-buralib raqs tusha boshladi. Kimdir "Balandroq!" deb qichqirdi. Jazavali musiqadan qovoqxonaga shifti larzaga tushdi. Erkaklar vahshiyona qichqirgancha ayolni olqishlashardi. Ayol noz-u ishva bilan xirom aylarkan, joduli ko'zlarini Muhtaram zotdan uzmasdi.

Muhtaram Zot beozorlik bilan quturgan olo-monga bir zum qarab turdi, so'ng qahvaxonadan otilib chiqdi. Zero, chak-chak zahar tomib turgan hashamat va go'zallikdan uning ko'ngli ayniyotgandi

Hovlida dog' bosgan yuzi go'shtdor, chaqchaygan ko'zlari qonga to'lganday qip-qizil, bo'yni qatqat yog' orasidan zo'rg'a ko'rinib turgan qahvaxona xo'jayini kekxa Lahabiyga duch keldi.

– Hey, Mano o'g'li, otang durust odam edi, lekin sen telva desam, telvaga o'xshamayursan, ammo g'irt telvaning ishini qilyapsan, bunaqada meni xonavayron qilasan-ku! – dedi Lahabiy xuddi bir yeri og'riyotgandek og'zini qiyshaytirib, norozi ohangda.

Qahvaxonaning orqa hovlisida beliga isqirt peshbog' bog'lagan, qo'lida tig'i yaltiragan pichoq tutib, kallasini olish uchun semizgina xo'rozning ketidan quvib yurgan bukri xizmatchi axiyri xo'rozni tutolmasligiga ko'zi yetib, jahl bilan pichog'ini qiniga soldi va ularning oldiga kelib, harislik bilan iljaygancha Muhtaram Zotning atrofida aylana boshladi.

Muhtaram Zot qontalashgan ko'zlarini qisib, mazaxomuz qarab turgan "bir qop go'sht"ga nimadir demoqchi bo'ldi, lekin fikridan qaytib yo'lida davom etdi.

– Agar Ug'on tengri payg'ambar yuborishni xohlaganida, osmondan farishtalarni tushirgan bo'lardi, shunga aqling yetmadimi, telva?! – deya qichqirdi kekxa Lahabiy meshday qornini selkilatib, pixillab kularkan.

Bukri xizmatchi "Hozir uni boplayman," degandek yaltoqlangancha qahvaxona xo'jayniga ko'zini qisib qo'ydi va Muhtaram zotning ortidan yugurdi.

– Agar Sen haqiqatan ham Xudoning elchisi bo'lsang, Unga ayt, mening bukrimni to'g'rilab bersin! – dedi u tirjaygancha Muhtaram zotning yo'lini to'sib, sap-sariq ko'zlari yiltiragancha.

Muhtaram Zot bukriga boqdi, uning nigohlari-da qismat o'z muhrini bosgan jafokashning azobi emas, balki bo'lg'usi baxtsizliklar va falokatlar qayg'usidan bashorat bor edi.

– Noshukr bo'lma, Horon.



Bukrining jazavasi qo'zidi, u barcha omadsiz odamlar kabi alamzada edi:

– Nimaga shukr qilishim kerak?! Ayt-chi, nimaga? Meni va xotinimni bukri qilib yaratgani uchunmi?!

Haqiqatan ham bukrining nafaqat o'zi, balki xotini ham bukri edi. Ammo ularning o'n ikki yashar o'g'li sog'lom va hech bir kamchiliksiz tug'lgandi.

– Ibodat qil, deyishdan boshqa gap aytmayman senga, – dedi Muhtaram Zot va yo'lida davom etdi.

Bukri uning ortidan quloqni teshib, kar qilguday uzun hushtak chalib, qichqira boshladi:

– Topgan bahonasini qaranglar! Men undan nima so'radimu u menga nima dedi!..

Polizda turgan qo'riqchidek, o'tirganlarning ko'ziga balo-qazo bo'lib ko'ringan Zotning qahvaxonani tark etishi olomonga qo'l keldi, ular endi juft-juft bo'lib raqsga tusha boshladilar. Avvaliga ayol va erkak, keyin erkak bilan erkak..

Ular qalblarini junbushga keltirgan yovvoyi ehtiroslarini ko'proq, ko'proq va yanada ko'proq sarflashga shoshardilar.

Muhtaram Zot qirg'oq bo'yiga keldi. Bu vaqtda yerdagi ehtiroslar qaynovini jimgina yoritgan homilador oy barkashday bo'lib dengiz ustida osilib turardi.

– Tog'da, qo'ychivonlar orasida yurgan bir banda edim, – so'zlandi u o'zicha, yuzida o'ychan tabassum jilva qilardi, go'yo o'zining gaplaridan o'zi kulayotgandek. – Munda keltirishdi. Yalavochnig' qilarmushmen. Keksa Lahabiy unchalik aqlli odam bo'lmasa ham, shu gal to'g'ri aytadir, biror marta yumshoq o'rinda yotmagan, biror marta yaxshi to'n kiymagan va biror marta to'yib arpa noni yemagan odam yalavochn emish... Qavmingni to'g'ri yo'lg'a boshlag'il, chunki ular hech narsani bilmaydilar, deyildi. Ular hech narsani bilmaydilar?! Ular-a?! Uy qurishni, ziynatlashni bilgan odamlar-a! Ular juda yaxshi biladilar. Faqat o'zlari istaganday yashashni istaydilar. Nafslarini tiyishni istamaydilar. Qandayligidan qat'i nazar, orzularidan voz kechishni istamaydilar. Shularni epga solib bo'ladimi?..

Ufq ortidan ko'pchigan qornida o'tli iplar chaqnagan qop-qora, qahrvor bulutlar to'dasi ko'tarilib, irillayotgan arslonlar kabi guldigan gancha asta-sekin quti o'chgan dengiz tomon yo'l oldi. Go'yo sirli iloha ulkan qanotlarini keng yoyganча porlab turgan yulduzlarni bir-bir o'chirayotgandek, osmon bag'rini zulmat qoplay boshladi.

Muhtaram Zot ko'kka umidvor tikildi. "Ug'on Tengri ularg'a balo yiborg'aymen teb va'da qilmish erdi..."

Bulutlar to'dasi irillayotgan arslonlar kabi guldigan gancha Uning tepasidan o'tib ketdi.

Muhtaram Zot endi ko'kka ta'na bilan tikildi...

\* \* \*

Ammo yarim tunda dengiz jazavaga tushgan ulkan nahang misol ko'rfazga bostirib keldi. Kuchli to'fon shaharni qamradi va shu damning o'zida uylarni, daraxtlarni, odamlarni o'z komiga tortib, chirpirak qila boshladi. Ko'z ochib yumguncha to'fon hamma narsani vayron qildi. Ko'rfazni chang-to'zon, qorong'ulik bosdi. Sho'rta'm, muzday havodan odamlar nafas ololmay yerga yiqilar, yiqilgan qaytib o'rnidan turmas, muzga yopishganday qotib qolardi.

Shamol esa lahza sayin kuchayib, boshvoqsiz daydiga o'xshab, ko'rfazdagi bor narsani yakson qilar, ko'kka uchirardi.

Dovdiragan, rang-quti o'chgan odamlar o'zlarini ibodatxonaga urishdi. Bu yerda ularning o'zlari uchun holvadan yasab olgan butlari turardi.

Olomon holva but qarshisida tiz cho'kdi. Ular shu yerda, holva but qarshisidagina jon saqlab qolishlariga ishonishardi.

Ko'rfazda, qirg'oq bo'yida faqat birgina inson qolgandi...

\* \* \*

Kuchli to'fon ikki kun davom etdi.

Uchinchi kun tongida shamol o'z makoniga, dengizga qaytdi.

Odamlar birin-sirin ibodatxonadan chiqa boshladilar. Muhtaram zot o'z qavmdoshlarini endi imonga kelishlaridan umidvor edi. Ammo pishqirayotgan olomon och edi. Ular baqir-chaqir qilganча to'fon qirg'oqqa uloqtirgan baliq va qisqichqabaqalarni terish bilan band edilar.

– Ey qavmim, – deya murojaat qildi muhtaram zot ularga. – Allohga imon keltiring. Undan boshqa iloh yo'qligiga ishonung! Uning balosini ko'rdingizmi?!

Och-nahor olaomonga bu gap yoqmadi, ular g'azablanib ketishdi:

– Allohning yuborgan azobi shumi?! Bu bilan bizni qo'rqitolmaysan! Agar buzilgan imoratlarimizni aytayotgan bo'lsang, xotirjam bo'l, bundan yaxshiroqlarini qurib olishga qurbimiz yetadi. Faqat avval qornimizni to'ydirib olaylik!

Muborak zotning yuzi og'riqdan burishdi.  
Odamlardan yuz o'girib, dengizga yuzlandi.

– Meni zolimlardan qutqarg'il, – ich-ichidan nola qildi u: – Ularning yomonligini daf qilishda ojizmen... Ular faqat gumonga ergashurlar. Gumon esa Haqiqatning o'rnini bosolmaydi-ku!

Shu vaqt har tomondan boshiga namxush qum sochildi.

Muhtaram Zot seskanib, ortiga o'girildi.

Uch-to'rt qadam narida Bukri boshchiligida qo'llariga tosh-kesak ushlagan darg'azab odamlar turishardi:

– Ilohingga ayt, uning mutloqo keragi yo'q bizga!.. O'zing ham daf bo'! Yana ishimizga aralashadigan bo'lsang, tug'ilganingga pushaymon bo'lasan!

Muhtaram Zot yolvordi:

– Jim bo'lsangiz-chi! Men Ug'on tengri ko'nglimga solganini aytib olay...

Olomon uning iltijosiga quloq tutmadi.  
Qo'llaridagi tosh-kesaklarni uning ustiga yog'dirishdi.

\* \* \*

Yozning jazirama kunlaridan birida tuyqustdan osmonni zulmat qopladi. Samodan olov yog'ilganday suv yuzini chaqmoqlar tila boshladi. Sevimli mashg'uloti – tijoratchi sayyoh kemalar bilan quvlab yurgan Baliq ko'rfazdan kelayotgan nog'oralarning ovozi va kuchli shovqin-suronni eshitib qoldi. Bu ovozlarning ham avvalgilaridek, xuddi bo'ron qolgan ochofat qushlarning ovoziday o'tkir va qo'rqinchli edi.

Baliq qirg'oq tomon intildi.

– Qornimiz to'q, ustimiz but, uylarimiz koshona bo'lsa, bizga Xudoning nima keragi bor?! Biz xudosiz ham o'z yo'limizni topib olamiz! – bu bozorda to'plangan odamlarning ovozi edi.

Baliq quvonchdan entikdi. Mana hozir... o'sha, odamlarga yaxshilik istovchi, ularni to'g'ri yo'lga boshlab, balolardan asraguvchi Muhtaram Zot g'azabga to'lgan odamlarga qarab:

– Ey qavmim, men sizlarga faqat yaxshilik tilayman!.. – deydi.

Baliq tanish va qadrton ovozi eshitish ilinjida butun vujudi bilan qirg'oqqa quloq tutdi.

Darhaqiqat, ana u!

– Sizlarga ne bo'ldi? Sizlar Alloh balosi neligin bilmayapsizlar! Quloqlaringiz kar emas, ammo o'zingizni kardek tutyapsiz! Ko'zlaringiz ko'r emas...

Havoda toshlarning vizillib uchgan tovushi eshitildi.

Muhtaram zotning ham toqati toq bo'lgandi. U keng yag'rinli, baquvvat kishi edi, lekin kiftida og'ir yuk bordek va bu yuk uni ezib, parchalab tashlagandek, nihoyatda dili xufton edi.

– E, menga desa yer yutmaydimi ularni! – Uning qahri qo'zigan, hamma narsani chilparchin qilib tashlagisi kelardi. – Buzuqlik va fahsh botqog'iga botgan bu zaminni dengiz yutib yuborsaydi, undan bir dona tosh ham qolmasaydi!

Zulmat quyushib, ko'pirib-toshgan bag'rida chaqmoqlarni ortmoqlagan bulutlarning paqetib qorni yorildi: sharros jala quyib yubordi.

Yomg'ir shu qadar kuchli quydiki, suv yuzida "chuchvara qaynadi", to'lqinlar mavji dengiz bag'riga sig'may, ko'kka otildi...

\* \* \*

Nihoyat, kamalak paydo bo'ldi.

Chiroyi ochilgan osmon yana avvalgi beg'ubor qiyofasiga qaytdi. Baliqning qalbini qamragan o'kinchli g'ussa tarqaganday bo'ldi. Umidlandi, mana, endi hammasi o'z o'rniga tushadi.

Lekin negadir hamma yo'q suv quyganday jim-jit edi. Go'yo dengiz poyiga yastangan ko'rfaz o'zining baland-baland uylari, tillarang yaproqli daraxtlari bilan olis-olislariga ketib qolganday.

Bir mahal qirg'oqdan zardali ovoz eshitildi.

– Tangrim, yorlig'ing qirq kun edi. Undadim, biragu ham imonga kelmadi. Ular menga muhtoj emas... Ular bir sichqon misol. Kavaklari joylashgan binoni kim qurgan, qancha yashaydi, ishlari yo'q. Faqat yaxshi yashashni, inlarini yovvoyi jonivorlardan himoya qilishnigina biladilar, xolos.

Ufq tomonda ulkan kema tutun chuvatib suzib kela boshladi.

Muhtaram Zot barcha azoblardan qutilishning birdan bir chorasi topilgandek, yengil tortib, bir zum o'sha tomonga tikilib turdi, so'ng bariga qo'l siltab, kema tomonga tez-tez yurib ketdi. Uning yuragida bo'ron vaqtidagi to'lqinlardek shiddatli alam va g'azab mavj urardi:

– Itoatsiz kimsalar! Gaplarim ularga og'ir botgan bo'lsa, bas, butlari bilan bilganlarini qilaverishsin! O'zlari aql yurgizmagan odamlarga tushuntirib bo'larmidi?! Ug'on tengrining va'dasi ham qirq kun edi. Bugun qirqinchi kun. Muhlat bitdi! – uning so'nggi so'zlari keskin ta'nayu alamga to'la edi.

Muhtaram zot kemaga chiqdi.

\* \* \*

Afsus... Buyuklarning ko'rgan kuni qursin, har qadamda xorlik...

Dengizda notinchlik, ola-tasir to'polon qo'pdi.  
Kemaning cho'kishi aniq bo'lib qoldi.

"Gunohkorni suvga uloqtirmagunimizcha, bizga tinchlik bo'lmaydi," deyishdi kemadagilar va o'zaro maslahatlashib, qur'a tashlashga, qur'a kimning nomiga chiqsa, o'sha kishini suvga otib, o'zlarini qutqarib qolishga kelishib olishdi.

Yo tangrim!..

Birinchi qur'a ham, ikkinchi va hatto uchin-chisi ham muhtaram zotga chiqdi, chiqaverdi...

\* \* \*

Dengiz tinchlandi.

Kema olg'a intildi.

Kema bilan birga avvalgiga qaraganda ancha og'irlashib qolgan Baliq ham shiddat bilan suzar, kemadan ortda qolmaslikka tirishardi. Bu uning uchun, ayniqsa, maroqli edi. U kemalarni, ular bilan quvlashmachoq o'ynashni yaxshi ko'rardi. Bir gal tijoratchi kema bilan bahs boylashganday, uning ortidan suza-suza qutb yog'dusi va abadiy muzlik, sokinlik hokim bo'lgan shimoliy dengizga borib qolgandi. Oh, qanchalar ajoyib edi! Katta-katta muz bo'laklari... muzday to'lqinlar... kumush zarralar... Kemadagilar asosan tijoratchi, badavlat kishilar emasmi, yo'l bo'yi suvga mo'l-ko'l yemish tashlardilar, ammo baliq bularga qayrilib ham qaramasdi...

Biroq bu safar baliq kema ortidan uzoqqa ketolmasligini his qildi. Chunki ich-ichida, zimiston aro dimiqib o'tirgan pok bir banda tinmay iltijo qilardi:

– Sendan o'zga iloh yo'qdir. Sen barcha nuqsonlardan pokdirsan. Darhaqiqat, men o'zimga zulm qilguvchilardan bo'ldim. O'zing kechir, parvardigorim!

Uch kundan keyin Ulkan baliq qirg'oqqa yaqin keldi va og'zini ochdi. Undan biroz holdan toygan, ammo onadan qayta tug'ilganday ruhan pok Muhtaram zot chiqdi.

Ular bor-yo'g'i bir necha kungina birga bo'ldilar. Shu vaqt mobaynida Inson xuddi onasining qornida yashaganday baliqning vujudida yashadi. Baliq esa o'z vujudida inson taftini his etdi.

Mana endi ular ajralyaptilar.

Muhtaram Zot go'yo minnatdorlik bildirganday, egilib uning qansharini siladi, ko'zlariga tikildi, keyin tez-tez yurib ketdi.

Ulkan baliqning borlig'ida undan, insondan nimadir qolganday edi...

\* \* \*

Baliq o'z vazifasini ado etdi.

Endi ortga qaramay ketish qoldi.

Ammo baliq Uni baxtiyor holda yana bir bor ko'rishni, ovozini eshitishni istardi. Bu istak shu qadar kuchli ediki, yuragini behalavot, tushunik-siz iztirob chulg'ab olgandi.

Zero, endi hammasi boshqacha bo'lishiga ich-ichidan ishonardi. Kuchli to'fon tufayli yuz bergan ocharchilik sabab o'zlari holvadan yasagan butlarini paqqos tushirgan odamlar Muhtaram Zotni tirik holda ko'rib, ko'zlariga ishonmasliklari mumkin, lekin endi albatta uning aytganlariga ishonadilar va imon keltiradilar, deb umid qilardi.

Hadeganda Uning ovozi eshitilavermadi. Baliq kutishga qaror qildi. Zero, u kutib o'rgangan edi.

Nihoyat, dengiz botayotgan quyoshning olovrang nurida yorqin tovlanayotgan vaqtda qirg'oqdan odamlarning shovur-shuvuri, bukri xizmatchi Horonning tovuqlarini chaqirib "tu-tu"lagani eshitildi. Baliq bu ovozlardan o'ziga tanish ovozni, o'ziga tanish nafasni eshitish ilinjida qirg'oqqa yanada yaqin keldi: "Sendan o'zga iloh yo'qdir. Sen barcha nuqsonlardan poksan. Darhaqiqat, men o'zimga zulm qilguvchilardan bo'ldim..."

Ammo hamon tanish ovoz eshitilmasdi.

Son-sanoqsiz "ko'z"lar o'ziga qadalganini his qilgan Baliq kech kirganini, ko'kda yulduzlar bodray boshlaganini sezdi, hademay gunohkor kelindek xijolatdan qizargan to'lin oy ham suvni shaloplatmasdan, ohista cho'milishni boshlab qolsa ajabmas.

Qirg'oqdan notanish odamning ovozi keldi:

– Yolg'onchi yalavoch senmuse? Malik har kimki yolg'onchi Yalavochni munda ketursa, dor tikib, dorga osayin teyur!..

Baliqning yuragi xavotirdan uvishdi.

"Nahot Uni yana zindonga solsalar?!"

Odamlarning boshi aylanib qolganmi? Namuncha o'zlariga bino qo'ymasalar!"

Baliqning suv ostidan o'sib chiqqanday ulkan gavdasini o'zidan-da og'ir yuk bosib, parchalab tashlagandek, g'amgin bo'lib qoldi. Qalbiga qo'rqinch bostirib kirdi.

"Odamzod qalbi chumchuqqa o'xshab, bir kunda goh u yoqqa, goh bu yoqqa aylanib turarkan-da!.."

Avvallari sezgilari qanchalik o'tkir, uchqur bo'lmasin, baliq voqea-hodisalarning mohiyatini qamrab oladigan quvvatga ega emasdi. Shuning uchun ham avvallari qancha o'ylamasin, o'z mavjudligidan biror maqsad va ma'no topmas-

di. Ammo kutilmaganda u o'zini butun olamni mushohada qila olishdek ilohiy kuchga ega bo'lganday, yuz berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini anglayotgandek his eta boshladi.

To'g'ri, ummon tublarida uni sevguchilar son-sanoqsiz, lekin uning birorta ham do'sti yo'q edi. Suv maxluqlarining unga yaqin kelish tugul, hatto shovurini eshitgan zahotiy oq tum-taraqay bo'lishlari, o'z mahobati bilan atrofdagilarni larzaga solishlari avval-boshda zavqlantirgan bo'lsa, endi alamini keltirardi. Uning xo'rak ilinjida o'zlarini o'tga-cho'qqa urishdan toymaydigan mayda baliqlarga havasi kelar, ammo tishlari irjaygan akulalarni ko'rgani ko'zi yo'q edi. Akulalar azbaroyi u bilan yaqin bo'lish ilinjida har qanday vahshiylikdan qaytmasdilar, ammo qalblarida jo'sh urgan tuyg'ulari ola-kula ko'zlarida qanchalik oshkor porlamasin, ular unga duch kelishdan, unga ro'baro' bo'lishdan, u bilan uchrashib qolishdan shunchalik bezillashardi! O, bu olako'z nigohlarni u qanchalar yaxshi bilardi! Hatto ularning o'zlaridan ham yaxshiroq ularning dillarini va hayotlarini yaxshi bilardi. Faqat... baliq favqulodda diliga tushgan g'ulg'uladan qutulolmay, yana besaranjom bo'la boshladi. Bu ham g'alati, ham yoqimli, shuningdek, qalbni siquvchi, og'ir va haddan ortiq qayg'uli tuyg'u edi.

Qirg'oqdan tanish ovoz eshitildi:

– Mani borsun teb yana yorluq bormu?

– Izi yorliqar, Ninvag'a borg'il, yorliq tegurgil, imon keltirsunlar.

– Mavloning yalavochi mundoq bormoq loyiq ermas. Oncha zamon bergil!

– Mavlo tariqinda zamon bermak yo'q!

Baliqning ich-ichidan allanechuk istehzo ko'tarildi: Savdolashish bundan ortiq bo'lmas!

Iylanmagan teridan choriq kiygan oyoq saslari suvga yaqinlashdi.

“Sening fazlingga mushtoq bir tilanchimen...”

Baliqning tuyg'ulari idrokidan ustun chiqdi, natijada u o'zini ana shu tuyg'ulari ixtiyoriga topshirdi va qirg'oqqa har doimgidan ham yaqinroq keldi.

Baliq Uning o'zini suvga otishini intiqlik bilan kutdi. Ayni damda u hamma narsaga tayyor edi. Keyin... nima bo'lsa bo'lar, ammo hozir... o'zi intilayotgan maqsadga hamma narsani qurbon qilish sira oqlab bo'lmaydigan ish ekanligini yaxshi bilsa-da, ayni damda u hech narsadan o'zini tiyib turolmasdi. U o'zini suvga otsa bas!

Muhtaram Zot namxush qum ustiga cho'k tushdi. Go'yo yelkasidagi yuk zalvoridan charchagandek, nihoyatda behol va hafsalasiz ko'rin-

sa-da, odamlarning shafqatsizligidan ranjib, o'lib ketadiganlar xilidan emasligi yuz-ko'zlaridan sezilib turardi.

– Inson ustidan zo'rlik bilan g'alaba qilib bo'lmaydi. Inson o'zi tushunib yetmaguncha uni majburlash tahqirlash bilan barobar. Xuddi g'irrom o'yinda o'z baxtini sinab ko'rishga urinayotgan qimorbozga o'xshaymen... Bas, bu o'yinda men o'zimning oxirgi soqqamni tashlab bo'ldim! Endi meni eng og'ir jazoga mustahiq qil, shunda odamlar ahvolimni ko'rib hushyor tortar, dunyo behudaligidan o'zlariga kelib, o'z qalblariga, qilayotgan ishlariga razm solarlar, tavba tazarru qilarlar – maqsading ham aslida shu-ku!

U bemisl uqubatlar vaqtlar o'tib, o'ziga abadiylikka erishish saodatini ato etishini bilmagan, hatto xayoliga ham keltirmagan holda ovoz chiqarmay yig'lardi.

Go'yo g'ussasida xudbinlik, itoatida kibr-havo borday...

Shu vaqt kimdir hayajon bilan qichqirdi:

– To'rni ollaring! Nahang!

Qirg'oqda shovqin-suron qo'pdi:

– Dengizni chayqatishiga qaraganda, u oddiy nahang emas! Qayiqqa tushlaring!

Qarmoq va changaklar bilan qurollangan odamlar o'zlarini qayiqqlarga urishdi.

Muborak Zot ko'zlarida olov yulqinlanayotgan olomonning yo'lini to'sdi:

– Unga yemish sifatida qaramang!

Ammo hech kim Unga quloq solmadi.

Baliq ehtiyotsizlik qilganini angladi.

Yuragini dahshat chulg'adi: ketish kerak, ketish!

Yuragi qanchalik o'rtanib turgan bo'lmasin, o'z tinchini o'ylab qirg'oqdan ancha uzoqlarga suzib ketdi.

Baliqchilar esa ikki soatlardan keyin qayiqqlari ag'darilgan, nayzalari singan holda quruq qo'l bilan qaytishdi...

\* \* \*

Halovat istab borgan yeri tinch, osoyishta, ammo o'ta zerikarli... va sovuq edi. Shunday bo'lsa-da, u okeanning tub-tubida ko'krak qanotlarini keng yoyib, ulkan quyrug'i bilan zim-ziyo qorong'ilikni tilimlaganicha, odam bolalarining turli-tuman munofiqliklari va hiyla-nayranglaridan yiroqlarda yashab yurarkan, ichida, zulmat ichra o'tirgan odamni hech unutilmasdi. Elchilik uyidan chiqqan yagona sarkash!.. Qochoq... Besabr... deya erkalab o'ylardi u uning “Hech kimni ko'rishni istamayman! Menga hech qanday

siylov kerakmas!" degan cha ovchining ta'qibidan qochgan kiyik misol o'zini yoqdan-bu yoqqa otib, tipirchilaganlarini eslab. Ha, tun zulmati, suv va baliq zulmati ichra bo'lmoq oson emas. Bu tadbir bilan istalgan odamni to'g'ri yo'lga solish mumkin.

Nafsilamrni aytganda, Uning sarkashligida ham ma'ni borday. Axir u hech narsani atay, qasddan qilmadi-ku. Zamonlar o'tib, g'azablangan olomon uchun ibrat namunasi bo'lib qolishidan ham cho'chimadi. Shunchaki, o'zlari aql yurgizmagan odamlarni imonga chorlashdan charchagandi, xolos. Uni unutgani ham yo'q edi. Har doim boshi sajdada edi. Nazari ham toymagan, haddidan ham oshmagandi. Ammo odamlar uni nazarlariga ilmadi. Ular uni yomon ko'rishardi, o'zlariga o'xshamagani uchun. Tafovut – nafrat tug'dirishi rost. U esa johil odamlar orasida hech qanday muvaffaqiyatga erisholmay, uyilib qolishdan cho'chidi. Bu damlar uning hayotidagi eng og'ir pallalar edi. Agar anavi munofiqlardan birortasi uni qo'llab yuborganida edi, uning bardoshi mustahkamlangan bo'lardi. U to'g'ri aytadi, odamzodni jazolash orqali to'g'ri yo'lga solib bo'lmaydi.

Tavba qilish aslida bilmasdan yomon ish qilib qo'yg'nlarga lozim. Ammo u tavba qildi. Eshit-yapsizlarmi, u tavba qildi!

U imdod kutib atrofiga nazar soldi. Poyonsiz bo'shliq va suvdan iborat borliqda sukunat, sukunat va yana sukunat hukmron edi. Shunda u mash'um haqiqatni yana bir bor ko'nglidan o'tkazdi, u yolg'iz edi. Qichqirayotgan ham uning yolg'izligi edi...

Baliq yana o'ylashda davom etdi:

To'g'ri, faqat dorulbaqoda nafi tegishi mumkin bo'lgan narsalardan bo'lak boshqa hamma narsalarga nisbatan nafrat bilan yashash odamzodning qo'lidan kelmaydi. Ortiqcha dunyoparastlik ham odamni yo'ldan ozdiradi. Bunda eng maqbuli – oraliq yo'l! Zero, kimdir hirs va nafsni qanoat qamchisi bilan savalab turmas ekan, odamzod jahannam sari yuzlanaveradi...

Oxiri bo'lmadi, anchadan buyon ko'nglini sust qilgan vasvasani yenga olmadi va kunlarning birida burniga osilib qolgan sumalaklarni parcha-parcha qilgan cha, marjon qoyalarni aylanib o'tib, ummon qa'riga g'araq bo'lgan kemalar-u shahar-qishloqlar xarobalari oralab, vujudida insoniyat kechmishi dolg'alanayotgan, iliq va kumushrang nurga yo'g'rilgan janubiy dengiz tomon yo'l oldi. U shitob bilan suzarkan, u bilan birga to'lqinlar kamalakdek tovlanib, bir nimalarni shivirlagan cha uning ortidan yugurishdi: "Bor-

ma! Yer yuzi – mislsiz evrilishlar makoni. U yerda aql bovar qilmaydigan voqealar ro'y bermoqda!"

Baliq qadrdon to'lqinlar shiviriga quloq tutmadi, hatto eshitishni ham istamay, tig'day o'tkir qanotlari bilan suvni shiddat-la tilib, entikkan cha olg'a intildi.

Kutilmaganda Baliq birdan hushyor tortdi, nazarida suvning ta'mi o'zgargan, allaqanday chuchmalmidi yoki kuyik ta'mi bormidi. Buning ustiga kunmidi, tunmidi, bilib bo'lmasdi, suvda na oyning, na quyoshning aksi suzardi.

Baliq qirg'oqdan ancha narida suzishdan to'xtadi.

Bu vaqtda haqiqatan ham osmonda na oy bor edi, na quyosh. Go'yo ehtiroslar quyunidanda zada bo'lgan oy bir yumalab g'oyib bo'lgan, quyosh jaranglab, birdan yorilib ketgan-u, ko'rfazni zimistonlik bosgandi. Uzoq-uzoqlarda qip-yalang'och daraxtlar do'l urgandek, sho'ppayib turar, ekinzor-u dalalar yakson bo'lgan, kemalar bir yonga qiyshaygan cha qumga botib qolgan, qayiqlar ag'darilib yotardi. Zimistonlik to'foni aro suv yuzida oppoq to'rlarga burkangan bolalar beshiklari suzar, do'ppaygan qabrlar orasidan birin-кетин chiqib kelayotgan motamsaro odamlarning goh tahdidona, goh g'azabnok ovozlari dam sayin avjga chiqardi.

– Ko'zlarimiz ochiq, lekin qorong'ilik quyuqligidan hech narsani ko'rmayapmiz. Ekinlarimizni do'l urdi! Mevalarimizni nobud qildi. Do'ldan qolganini chigirtkalar yeb bitirdi. Mana endi tirik qolgan bola-chaqamiz bilan chuvillashgan cha, rizqimizni izlab yuribmiz. Hammasiga Sen, Sening Xudoing sabab! Endi bizning bu holimizga o'zing chora top. Agar Xudoingga aytib, poymol bo'lgan ekinlarimizni, don-dunlarimizni tiklab bermasang, bizdan yaxshilik kutma!

Tahdidona ovozlar...

Tahdidona qadamlar... tobora yaqinlashib kelardi.

Sohilda esa... boshini changallagan bir odam o'tirardi. Beun. Chorasiz...

Bukri xizmatchi qo'lida bolasining jonsiz jasadini ko'targan cha bukchayib qolganidan yelkasi-dagi bukri yanada bo'rtgan gavdasini zo'rg'a sudrab, odamlar orasidan bir qadam oldinga chiqdi.

– Agar Sen chindanam Xudoning elchisi bo'lsang, Unga ayt, bolamni tiriltirib bersin, – dedi u telbavor ovozda. – Shunda men chindanam Xudoning borligiga ishonaman.

Muhtaram Zot boshini ko'tarib bukriga qaradi, bu jirkanch, aftodo holatdan etlari jimirlab

ketdi, ammo lom-mim demadi. U endi bir og'iz ham gapirmaslikka ahd qilgandi.

– Nega indamaysan? – dedi bukri. – Agar sen xudo bilan gaplashib, bolamni tiriltirib bersang, chindanam Sen xudoning elchisi ekanligingga ishonaman! Aks holda...

Muhtaram Zot uning adovatdan qiyshaygan, burishgan, motamsaro chehrasiga qaragisi kelmay, yuzini burdi, ko'ksidan og'ir xo'rsiniq otilib chiqdi: "Dunyoning holiga voy!"

Bukri bolasining jasadini yonidagi birovning qo'liga tutdi. Keyin bamisoli yuragiga kirib borib, hammasini bilib olmoqchi bo'lgandek, emaklagancha Muhtaram zotning naq burni tagiga keldi.

– Bilasanmi, aks holda nima qilishimni? – u atrofiga qarab alamli iljaydi. Keyin bo'g'ilgan, xirillagan ovozi bir parda pasaytirib, sirli ohangda dedi: – Sen azobini aytib qo'rqitayotgan Xudoning qayerdaligini men bilaman! U shu yerda, yonginamizda! Sen har kuni kelib arzhil qiladigan mana shu suvning tagida yotibdi! Odamlar uni nahang deyishyapti. Yo'q, u nahang emas. U o'sha sening Xudoying!..

Muhtaram Zot benihoya oqarib ketdi, lekin keyin negadir kulimsiradi, zum o'tib kulimsirash ayanchli kulgiga aylandi va birdan kulgisi kuchaygandan kuchayib kutilmaganda asabiy qahqahaga aylandi...

Baliq hammasini so'zsiz his qildi.

– Ha, birini biri bilan rizqlantirib turmasa bo'lmas!

\* \* \*

Kutilmaganda zim-ziyo falakning allaqayerida nimadir "yilt" etdi. Zum o'tmay "yilt" etgan uchqun tobora kattalashib, zulmat bag'rini yorib kela boshladi va birdan butun olam charog'on bo'lib ketdi.

Yog'dular raqsi boshlandi, yalt-yult qilgan o'tkir nayzalar dengiz bag'rini tilar, eritilgan oltinday tinimsiz quyilayotgan nurlar gir aylanar, tobora shiddatliroq, tobora jo'shqinroq raqs tushardi.

Odamlar dovdirab qolishdi, ularning nimalar yuz berayotganiga aqlari bovar qilmayotgandi.

Shu chog' yana bir favqulodda hodisa yuz berdi: dengiz qo'qqisdan qalqib ketganday bo'ldi, suv yuzasi qattiq chayqaldi-yu allaqanday ulkan maxluq sharpasi ko'rinib-ko'rinmay shuvillagancha suzib o'tdi. Qirg'oqqa kuchli to'lqin kelib urildi, atrofga suv zarralari sachradi, lahza ichida butun sohil oppoq tuman ichra qoldi. Va qumloq uzra bir dunyo baliqlar sochildi!

Zum o'tmay bu hol yana takrorlandi. Keyin yana!..

O'zlari yasagan marmar ma'budlarday tosh qotgan olomon kutilmagan qamchining zarbidan jazavaga tushgan otdek birdan titrab ketdi va ochko'zlarcha mo'may yemish ustiga yopirildi.

Suv yuzini bosgan oppoq ko'piklarga mahzun tikilgan Muhtaram Zot sekin pichirladi:

– Shu yerdaligingni bilardim!..

Qirg'oqdan sho'r baliq va tuz hidi kela boshladi. Va yana odamlarning quvnoq ovozlari... Ular ovda omadi kelgan ovchilarday shodon edilar va ob-havo, ekin-tikin haqida xotirjam gurung qilishardi.

\* \* \*

Saodatmand baliqning umidvor qalbi quvonchdan yayradi. Mana, nihoyat, u kutgan damlar. Endi qirg'oq yonida turib, istagancha odamlarning ovozlari, kulgilarini eshitadi, gullagan daraxtlardan taralgan yoqimli hidlardan bahramand bo'ladi.

Keyin... ilk daf'a ko'kka sapchib, odamlarga o'zining borligini bildiradi. Ana undan keyin boshlanadi, qocha-qoch, quva-quv! Ulkan baliq hozirning o'zida odamlarning shovqin-suronini, eshkaklarning shaloplashini, baliqchilarning qichqiriqlarini eshitganday bo'ldi. Azbaroyi zavqlanib ketganidan ortiq o'zini bosolmadi, suv tubida ulkan doira yasab, go'yo afsonaviy musiqa sadolari ostida raqs tushayotgandek, bor gavdasi bilan bir qur aylandi-yu ko'kka sapchidi. Va... hammasini bir zumda ko'rди:

Oftob nurida erib ketayotgandek mayin tovlanayotgan qumloqda ulkan taxt qad rostlagan, atrofini odamlar qurshab olgandi.

Taxt oppoq bo'lib, fil suyagidan yasalgandi.

Taxt ustida o'tirgan Muhtaram zot olomonni ibodatga da'vat etar, hamma izzat-ikrom bilan bosh egib qo'l qovushtirgan va xuddi bir odam o'qiyotgandek duo so'zlari yangrardi.

Ular orasida Bukri xizmatchi qo'rinmasdi, xolos.

Kutilmaganda gumburlagan ovoz eshiltildi, ulkan baliq vujudida qattiq og'riq, achishish tuydi. Zum o'tmay, ko'rganlarining barcha-barchasi, kattayu kichik narsalarning hammasi kichrayib, bir butun holga keldi va uning ichiga singib ketdi-yu, birdan hamma yoq suv quyganday jim-jit bo'lib qoldi...

*Uzbekiston xalq yozuvchisi*  
*U'rozboy*  
*Abdurahmonov:*

***Adabiyotni  
alladan  
boshlaganimiz  
ma'qul***

“*Milliy g‘urur insonning insonligini belgilaydigan asosiy mezonlardan biri. Uning shakllanishi bolalikdan boshlanib, tabiatdan olgan o‘rnakka, otana va jamiyatdan olgan mehr-oqibatga bog‘liq bo‘ladi.*



“*Inson g‘urur bilan yashaydi va haqiqatning oldida tik turishiga ham o‘sha g‘urur sabab bo‘ladi.*

“*Yozish istagi ko‘ngilda tuyulgan qandaydir sirli olamning xufiyasini oshkor etishdan tug‘ilar balki...*

*Bolaning qo‘liga ilingan dastlabki kitob-daftarlarga ko‘p narsa bog‘liq. Yoshiga, iqtidoriga qarab tanlangan kitob bola uchun bir umr buyuk adabiyot bo‘lib qoladi.*



“ Agar biz milliy mentalitetimizga loyiq, ajdodlar yo‘liga sodiq avlod yetishib chiqishini istasak, adabiyot darsini ona allasidan boshlaganimiz ma’qul.

“ *Inson shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, shaxs insonning intellektual imkoniga mos ravishda jamiyatda shakllanadi.*

“ *O‘zingiz o‘qimasangiz-u, bolangizga o‘qigin deganingiz, o‘zi aroqxo‘r odamning endi ichishni o‘rganayotgan bolasiga “ichmagin” degani bilan bab-barobar.*

“ *Agar bolaga mardlik, mehr-insof mavjlari o‘rniga chimdim yolg‘on tomchisi tushib qolgan bo‘lsa, oqibatini endi to-taverasiz.*

“ *Doimo chiroyli, mehrlil so‘zlar qo‘llaniladigan oiladan ma’naviy yetuk shaxslar chiqadi.*





Sanobar TO'LAGANOVA

## HAYOT FALSAFASINING O'ZIGA XOS TALQINI

Ijod insonning tiriklik mazmun-mohiyatini anglash yo'lidagi urinishlari hosilasidir. Insonning hayotdagi o'rni, maqomi, maqsadi, munosabati kabi masalalar qadimdan dunyo ziyolilarini qiziqtirib kelgan. Ijod insonning o'z "men"ini ifoda qilish yo'lida olib borgan aqliy faoliyat turidir. Ijod nafs bilan bog'liq falsafiy-estetik kategoriya sanalib, inson o'zligini, ya'ni nafsini qondirish istagida badiiy san'at va so'zga, timsol va ramzlarga murojaat qiladi.

Muallif ijod jarayonida tarjimayi holida aytilmagan sirlarini ongli va ongsiz ravishda badiiy matnga joylaydi. Binobarin, ijodkor shaxsiyatidagi mavjud belgili xususiyatlar ma'lum ma'noda uning badiiy asari va qahramoniga ko'chib o'tishi tabiiy hol. Shunday ekan, badiiy qahramon ijodkor siyratidagi "holat",

"holi" dan olingan ulgi. Hayot falsafasi Abdulla Qodiriy nazdida islomiy-ma'rifat va ezgu amallar timsolida bo'y ko'rsatadi. Dunyo o'tkinchi, O'zi va o'zligiga sodiq qolish, xiyonatdan saqlanish kabi falsafiy tushunchalar adib hayotida mezon bo'lib, bu uning ijodida turli ko'rinishda aks etgan.

Muallif "men"i va qahramon orasidagi ichki bog'liqlikni o'rganishda biografik yondashuv eng muhim usul bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Qodiriy asarlarida hayot falsafasini anglash, mag'zini chaqishga intilish, o'ziga xos tarzda talqin etilib, bu, ayniqsa, qahramonning o'lim bilan yuzma-yuz kelishi tasvirlangan epizodlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun mazkur epizod orqali qahramon ruhiyati va uning dunyoga munosabatini kuzatishga harakat qilamiz. Binobarin, kichik sahnada roman umumruhiyati aks ettirilgan. Zero, butunni bo'laklar asosida o'rganish adabiyotshunoslikdagi samarali usullardan biridir.

"O'tkan kunlar" romanida Homidning "chaquv"i natijasida Otabekning o'lim bilan yuzlashish sahnasi mavjud. Aynan mana shu epizodda qahramon tafakkuri va falsafiy idrokining o'ziga xos ko'lami yuksak darajada talqin etilgan. O'limga mahkum etilgan Otabek va Qutidorning dor ostiga olib ketilishi shunday tasvirlanadi. "Otabek garangsigan sumol devorga suyangan, mundagi allaqanday ma'nolarni anglatqan taxt, toj, xon, bek kabi lash-lushlar uning ko'z o'ngida qora pullik qadr-qimmatsiz... To'g'risi ul ajib bir tabi'atka kirgan, uning vujudi quruq va hissiz... Faqat... faqat shu turmushdagi birovgina uning ko'nglidan tezroq yuvilmas va yuvilishi ham qiyindek... Nihoyat bundan ham qutulgandek. Nima... ammo so'ng nafasida uning bilan vidolashsa, bo'g'oziga xanjar botar ekan, uning yuziga qarabqina ko'zi nursizlansa... Uning hamma orzusi shu edi hozir". Voqelikka mantiq ko'zi bilan qaralsa, Otabek o'lim bilan ro'para kelib turibdi. Unda jon talvasasi yo'q, qo'rquv xavotir yo'q. Otabek uchun "taxt, toj, xon, bek kabi lash-lushlar uning ko'z o'ngida qora pullik qadr qimmatsiz". Dunyo havaslari, mol-mulk uning uchun ahamiyatsiz, rangsiz va tussiz. Aslida, Otabek vujudida nafs ta'malarining yo'li kesilib ayni shu o'rinda "hissiz" odamga aylangan. Holbuki, Otabek hissiz emas, "uning hamma orzusi" "birovgina"ning diydori. Otabek dunyo havaslari va lash-lushlari oldida "hissiz", "bezragan" odam. Otabekning dunyo haqida shaxsiy qarashi mazkur uchlikda jamlangan. Dunyo falsafasining tiriklik formulasi aks etgan mana shu uchlik asosida Borliq harakatlanadi, mavjudlik mohiyatini o'zida jamlaydi. O'limni his qilgan Otabek ruhiyatidagi qo'rquv o'rnini kuchli ishonch hissi egallagan. Ishonchning ildizlari Sharq-musulmon madaniyatiga borib taqaladi.

O'limni anglash orqali tiriklik anglanadi. O'lim – hikmat, ibrat, haq, Yaratganning amri. G'azzoliyda shunday fikr bor: “Men dunyoda bo'lmam ham, oldin dunyo bor edi, dunyo o'taveradi, lekin men bir kun ke- lib unda bo'lmayman va yashamayman. Dunyodan tiyil va oxiratda iftor qil. Zero, dunyo sarmoyasi va havoyi nafsning oxiri – foydasi do'zaxdir”. Qodiriyning dunyo haqidagi falsafasi Otabekning ulug'vorligi va Yusufbek hojining taqvosida yanayam teranlashadi. O'lim bilan yuzlashuv Otabek qalbini to'lqinlantirsa-da, “uning yuzini” ko'rish havasi inson sifatida unga begona emas. Otabekdagi fozillik va oqillik yetakchi fazilat salsala-da, muhabbat masalasida u chin oshiq. Ammo oshiqlik havasi, ya'ni nafs talvasalari uning ikkilantir- maydi.

“O'tkan kunlar” romanidagi “Jonso'z bir xabar va qo'rqinch bir kech” deb nomlangan fasl romanning tub burilish nuqtasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. S.Meli “Samoviy miqyos: “O'tkan kun- lar” va “Qirol Lir” maqolasida mazkur faslga alohida to'xtalib, “Xo'ja Ma'oz roman simbolikasidagi marka- ziy o'rin, avval aytgandek, asarning ramziy modelidir”, deydi. Olim semantik qatlam sathlarini keng ko'lamda chuqur va asosli tahlil qilib, qabriston tasviri bilan bog'liq fasl asar ramziy poetikasida alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Romanda Homid uyushtirgan soxta maktublar tu- fayli hiyla-nayrang kuchayib, ayriliqning uzayib ketishi va munosabatlarning hadsiz murakkablashuvi sabab voqelik eng yuqori pallasiga ko'tariladi. Romanning shu nuqtasigacha obdon pishib yetilgan voqelik, ya'ni tugun yechilmog'i lozim. Faslning kirish qismida badi- iy shartlilik yetakchi poetik mazmun kasb etadi. Qahra- mon o'z yo'lini tanlashi shart holati sifatida tasvirlana- di. Otabek “yo'lning ayrilishig'a borib to'xtag'an edi”. Uning ruhiyatida “ikkilanish” alomati. E'tibor bering, qahramon ruhiyatidagi ziddiyat va murakkablikni yo- zuvchi yo'l ayirmasidagi ikkilanish holati orqali ko'rsa- tadi. Birinchi yo'l “poyabzal rastasi”, ikkinchisi “to'g'ri yo'l”. Otabek qaysi yo'lni tanlaydi, javobi oldindan aniq bo'lsa-da, yozuvchi yo'l ayirmasini atayin qistirib o'tadi. “Poyabzal” rastasi ko'chasida uning sevgilisi Kumush xonadoni joylashgan. Asarning boshlanishida Otabek “poyabzal” rastasidagi xonadonlarning biriga tahorat olish uchun kirganda Kumushni uchratgan edi. Bugun yana shu ko'chaga, “tilsimlik darboza” tomon burilishga qaror berdi. Ro'paradagi keyingi “to'g'ri yo'l” Otabek yo'li emas, u oxiri aniq bo'lmasa-da “poy- abzal” rastasidan ko'ngil uzmaydi. Eshikka yaqinlash- gan Otabek “jonso'z xabar”ni eshitib qoladi. Kumush- ni uning javobisiz o'zgaga turmushga bermoqchilar. Homidning nayrang firibi – soxta “taloq xat”idan be-



xabar Otabek hushidan ayrilish darajasida. Chunki “Jonso‘z” so‘zi roman matnida bir necha marta takror qo‘llangan. Bu xabar uning uchun go‘yo ustidan “bir chelak qaynag‘an suvni ag‘dargan edilar-da, butun terisi oyog‘iga sidirilib tushkan edi”. “Jonso‘z” xabari faqatgina uning jonini olmaydi, balki tanasiga azob berib, ruhga ta‘sir qiladi. So‘zning ta‘sir maydoni shunchalik kattaki, uning chegarasi, haddi yo‘q. Bu xabar ta‘sir kuchi insonning tanadan joni chiqmay turib, terisi “sidirilib” tushadigan qiyomat azoblariga o‘xshatiladi. Demak, xabarning ta‘sir kuchi Otabekka do‘zax azobi bilan barobar. Yozuvchi qahramon ruhiyatini ifodalashda hassos ruhshunos sifatida yondashadi, inson zotining evrilishlarini nazardan qochirmaydi. “Jonso‘z” xabar uning tirikligi bilan teng qiymatga ega.

## *Muallif ijod jarayonida tarjimayi holida aytilmagan sirlarini ongli va ongsiz ravishda badiiy matnga joylaydi.*

Otabekning “Xo‘ja Ma‘oz” mozorida bir necha marta tunagani avvalgi fasllarda e‘tiborni tortmaydigan darajada shunchaki qistirib o‘tiladi. Demak, Otabek uchun bu qabriston doimiy ziyoratgoh. Aynan qahramon ruhiyatini ochishda mana shu tungi qabriston ziyorati bir vosita o‘rnida xizmat qiladi. Mazkur fasldagi bayon uslubidagi mavhumlik va murakkablik, Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasida qo‘llagan uslubni esga soladi. Xo‘ja Ma‘oz makoniy chegara sifatida Otabek ong-u shuuriga ko‘chib o‘tadi. Muallif Otabek ongida yuz berayotgan ruhiy holatlarni tabiat hodisasi bilan qorishiq holda tasivirlaydi.

Tunda yuz bergan kuchli “yel” tasviri bilan bog‘liq epizod roman ruhoniyyatiga jiddiy ta‘sir o‘tkazgan. Adib bo‘ron, dovul, kuchli shamol ta‘siriga ega tabiat hodisasini yel so‘zi orqali ifodalashni ma‘qul ko‘radi. Bir lahzada ko‘tarilgan kuchli “yel”, katta chinorlardan birini “yerni titratib” yiqitib, olovning yanayam kuchayishiga xizmat qildi. Kuchli shamol – inson botinida yuz berayotgan ruhiy jarayon maromi va yangilanishni ifodalovchi timsol.

Olov kuchaygan paytda atrofda qarg‘a va zog‘chalar bayram qilishdi. “Och qolgan sherdek” mozorni titratgan olov asta-sekin pasaydi va o‘chdi. Butun roman voqeligi kuchli yel yonishini tezlatgan olov kabi shiddatli tus olgan edi. Olovning tezligi ko‘ngilga xavotir soladi. Ammo olov ham, shamol ham muqim emas, o‘tkinchi. Qorong‘ilikni bir dam yoritadi, ammo bu uzoq davom etmaydi. Qarg‘alardan so‘ng navbat boyqushlarga tegdi. Bu yerda Otabek haqida deyarli so‘z aytilmaydi, butun nigoh uning ruhoniyyatida yuz berayotgan g‘alayon po‘rtanalariga qaratilgan. Kuchli yel va olov voqeasi tugagandan so‘ng bayon usuli o‘zgaradi. Bayon uslubidagi shiddat maromi yangilanadi. Masjid minorasidan “ruhoniyyat yog‘dirib munglik azon tovushi” uyqu quchog‘ida yotqan tabiat uyg‘onib javob bergan kabi jong‘irab ketdi. “Allohu akbar”ning so‘nggi takrorida Otabek “tahorat olib namozga yuzlandi”, ya‘ni Yaratgan bilan uchrashuvga chog‘landi. Dunyo o‘tkinchi, uning g‘am-qayg‘u, shodlik, boyligi o‘tkinchi, ibtido va intiho yagona ekanligi roman ruhiyatiga singib ketgan.

Fasl sarlavhasi ikki qismdan iborat. Birinchisi, “Jonso‘z bir xabar” nima ekanligi va bu Otabekka qanday ta‘sir etgani haqida imkon doirasida to‘xtaldik. Ikkinchisi, “qo‘rqinch bir kech” deb nomlanadi. Yozuvchi bir jumlada “bir xabar”, “bir kech” deya “bir” so‘zini ikki marta takrorlaydi. Nega takror? Nega “qo‘rqinch”? Ma‘no urg‘usi qaysi so‘zga qaratilgan? Bir yagona, yolg‘iz. Tunlar ko‘p, xabarlar ko‘p, ammo bu yerda u inson hayot-mamoti bilan teng qiymatga egaligi uchun “bir” so‘zi qo‘llangan. Qabriston Otabek uchun qo‘rqinchli joyi? Yo‘q, Otabek bu tungacha mozorga bir necha bora kelganligi avval aytib o‘tili.

Otabek ruhoniyyati qaysidir ma‘noda dunyoning qorong‘iligiga qarshi olov yoqayotgan devona ruhiyatini bilan o‘zaro kesishadi. Bunday munosabat shakli adib ruhoniyyatiga borib taqaladi. Yozuvchi tarjimayi holi bilan bog‘liq



manbalarda qabriston ziyorati bilan bog'liq xotiralar mavjud. Qabriston – tiriklar bilan o'liklar o'rtasidagi chegara. Inson ko'ngli halovat istaganda, o'tganlarni yodga olish asnosida o'z "men"i bilan qaytadan yuzlashadi, o'z-o'zini tergaydi. Savollarga javob topa olmay qolganda odam qabristondan javob izlaydi. Qabriston badiiy makon sifatida bejiz roman xronotopidan joy olmagan. H.Qodiriyning "Otamdan xotira" xotira-qissasida shunday yoziladi: "Dadam ko'pincha bahor kezlari ana shu Xo'jaa'lambardor qabristoniga yolg'iz borib, negadir uzoq-uzoq o'tirib qaytardilar. Hatto bunday hollarni goho men tunlarda ham sezardim. Unutmayman, bir gal dadam kechki payt mazkur qabristonga meni ham birga olib bordilar. Atrofdan hech kimsa yo'q, men gul terib dadam oldiga taxlayman, u kishi esa o'z xayoli bilan band... Bora-bora asta qorong'i ham tusha boshlaydi, men ham gul terishdan zerikdim. Nihoyat, negadir mening ko'nglimga bir qo'rquv tushdi-da, dadam yelkasiga suyanib yig'lab yubordim". Yana bir o'rinda "dadamning hammahallasi Muhsin amaki shunday hikoya qiladi: Abdulla chamasi "O'tkan kunlar"ni yozib yurardi. Bir kuni Abdulla qayoqdandir kelib men bilan ko'rishdi va uydan po'stakmi, ko'rpachami chiqarib berishni so'radi. Men ajablanib ko'rpacha chiqarib berdim. U qo'ltiq qabriston ichiga qarab ketdi-da, salqin bir yerga ko'rpachani to'shab, o'tirib-o'tirib, bir narsa yozdimi, yo'qmi – bilmadim, bir vaqt qaytib chiqdi va ko'rpachani topshirib, xayrlashib, indamay yo'lga keta boshladi. Men uning nega bunday yurishini uncha-muncha fahmlasam ham jo'rttaga: – Shoshma, Abdulla! – dedim. U to'xtadi. – Mozorda o'tirib nima ish qilding? Abdulla yo'lida parvosiz ketarkan, kuldi: – O'liklar bilan gaplashdim!". Manbalarda yozuvchining "Xo'jama'oz" qabristonida shaxsan o'zi kechalari tunab qolganligi qayd etilgan. Bular nimani anglatadi? Donishmandlar "o'limni anglash tiriklikning hikmatidir", deb bejiz aytishmaydi. Aslida, imon yo'lida yashagan inson uchun qabriston qo'rqinchli makon emas, balki tiriklik hikmatining moddiy dunyo vositasida ko'rinishidir. Hadisda aytiladi: "Men sizlarni qabrlar ziyoratidan qaytargan edim. Endi ularni ziyorat qilaveringlar! Chunki u oxiratni eslatadi, sizlarga o'limni esga soladi. Ey, ziyorat qilaveringlar. Chunki u qalbni yumshatadi, ko'zni yoshlantiradi. Chunki sizlarga unda ibrat bor. U dunyoda parhezkor qilib qo'yadi" (Imom Muslim, Termiziy, Abu Dovud, Ibn Moja, Hokim, Tabaroniy rivoyatlari). Demak, yuqoridagi mazkur hadisi sharifdan qabrlarni ziyorat qilishda asosan ikkita foyda borligi ma'lum bo'ladi: Birinchisi, inson ziyoratga borib, o'zini o'nglaydi, dunyoning o'tkinchi ekanligini faqatgina ezgu amallar qolishini anglaydi. Mol-dunyo insonga vafo qilmasligi, bu dunyodan ulardan biror



narsa olib keta olmasligi, faqatgina insonning xayrli amallari qolishi ziyorat asnosida ko'ngildan o'tadi. Ikkinchisi, qabr ziyorati Rasululloh (s.a.v.) aytganlaridek, "qalbni yumshatadi, ko'zni yoshlantiradi". Xalqimizda: "Ko'ngling cho'ksa, bozorga bor! Ko'ngling ko'tarilsa, mozorga bor!", degan naql bor. Qodiriy hayotida, ayniqsa, ijodiy jarayon paytida qabriston ziyoratini tark etmagan, u odamzotdan xoli bo'lgan joydan hikmat qidirgan. "O'tkan kunlar"ni yozish jarayonida (1918-1919) yozuvchi qalb sokinligiga va ruh xotirjamligiga erishish uchun "o'liklar bilan gaplashgani" borganidir, ehtimol. Tashqi dunyodan uzilib, Oliy Hakam bilan samoviy uchrashuv orzusi yozuvchini qabriston ziyoratiga chorlagan bo'lishi mumkin. Roman yozilgan vaqtda yozuvchi 24 yoshlar atrofida bo'lib, ayni balog'at, tom ma'noda komil inson sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Qodiriyning tiriklik mazmuni haqida qarashlari dunyo donishmandlari falsafiy qarashlari bilan uyg'un tarzda ifodalangan. Uning 1926-yildagi sudlov hujjatlarida ayni yigitlik chog'ida "o'lim tansiqroq" deb aytishga jur'at etish hayot falsafasini anglab yetgan donishmand iqroridir. Tiriklardan hikmat qochganda, qabr sukunati ijodkorga ishonch va umid, asarni yozish uchun "jasorat" bergan bo'lishi mumkin. Insoniy "men"ning ijodiy "men"da o'z aksini topishi qabriston bilan bog'liq sahnalarda o'z aksini topgan. Jamiyat hayotida yuz berayotgan alg'ov-dalg'ovlar, yolg'on siyosatga tobe bo'lib qolmaslik uchun adib qabristondan panoiz izlagandir. Ammo ba'zi adabiyotshunoslar talqin qilgandek "qo'rqinchli" mozorda tunash yozuvchidagi jasoratni urg'ulashdan ko'ra dunyoning omonatligini eslab turish uchundir. Hayot-mamot chegarasidagi inson taqdirida o'rin tutgan islom falsafasi ustunligi Qodiriyga xos ifodalarda o'z aksini topdi va roman abadiyatini ta'minlagan omillardan biridir.



Guli NIGOR

## Olamni to'ldirar bir ishq sog'inchi...

### YOMG'IR

*U meni chaqirar:  
darchamdan bir ifor kirib keladi,  
Buvimning, bobomning mehrining isi.*

*U meni kutadi:  
Men shoshib chiqaman huzuri – ko'chaga,  
Olamni to'ldirar bir ishq sog'inchi...*

*Biz quvnaymiz butun zaminni  
To'ldirib yuborar shodlik – tomchilar,  
Kuldirib yuborar quvnoq tomchilar.*

*U meni kutadi, kutaveradi:  
(Ba'zida yoniga borolmasam-da)  
Tomchilar – sabotning sodiq elchisi.*

*U ba'zan ketadi, ketib qoladi,  
Bulutga o'ralib osmonga yetar.  
Biroq bilamanki bir kuni qaytar –  
U meni sevadi Zamindan Samoga qadar!*

### IQROR

*Osmon rangsiz...  
Namchil dardlar  
Tomchi bo'lib to'kilar yerga...*

*Sen ketmading, mangu qolding –  
Ma'yusgina bir dilda.*

*Endi shafaq qizarmas chunon  
Poyim tavof aylamas  
Yo'lak...  
Qaytolsaydim yoningga bir on  
Derdim: "Dunmas,  
Menga Sen  
kerak!"*

*Osmon hamon rangsiz,  
Shaffof tomchilar –  
Yuzimni, ko'zimni savalar mayin...  
Bunchalar tund ekan  
Bu dunyo sensiz?!*

*Yurib ketdim  
Umrimdan sassiz...*

## **TONGGA MAKTUB**

Tongga intiq yurak  
 Lahzalarda to'kilib turar.  
 Yetmadi senga men aytgan ertak.  
 Yetmabmish,  
 Demak, yana to'qish kerak.  
 Men yasharman "Bir bor ekan"da  
 Bu bir qachon ikki bo'ladi?  
 Qarayman to'kilgan yuragimga va  
 Kelasan deb qayta tiklayman –  
 Bag'ri yarim xotirlarimni.  
 Tunning qoq yarmi  
 Orzulardan armon unib chiqar,  
 Sabrning kosasi sharob-la to'lar,  
 Aytgan ertaklarim yoyilib yurar,  
 Kelmasang sog'inchim ming pora bo'lar.  
 Ruhimga chulg'anar savollar:  
 Tun zanjirin uzib qachon kelasan?  
 Nafratingdan o'zib kelasan qachon?  
 Yo'lingga intiqdir Guli Nigoring,  
 Qachon, qachon kelasan, ayt!?  
 Atrofimda sakrar qachonlar:  
 Ayt, qachon kelasan,  
 Ayt, qachon,  
 Qachon kelasan?  
 Yolvorishlar cho'kar vujudga  
 Nega jarohatlaysan yara yurakni?  
 Sog'inchim ekyapman yo'lingga  
 Qachon nihol chiqar bulardan,  
 Niholni Sevinch deb atayman qachon?  
 Qachon ko'raman ul gul ruxsoringni?  
 Iltijolar tutar dunyoni!  
 Kel sen. Tezroq kel, tezroq.  
 Qachonlarni yig'latib kelgin.  
 Sabrlarim to'kilar bamisli yaproq,  
 Faqat sen kel, faqat sen, tezroq!  
 Kelmasang gar...  
 Sabr kosa birma-bir sinar,  
 Subhidamni chilparchin qilar,  
 Ulug' daraxt – Sabotlar yonar,  
 Hayotning mazmuni – sevgilar yonar,  
 Yonar yana allanimalar...  
 Qofiyasiz she'rning qofiyasiz xotimasi...  
 Bu farahga to'la tong  
 Mening g'azabimda qolmasligi-chun,  
 Bularning barchasi yonmasligi-chun  
 Tezroq kel, tezroq,  
 Imillama, TONG!  
 Yo'qsa...

\* \* \*

Tun ko'ksini parchalab chiqqan,  
 Yop-yorug' xayolga qo'shilib oqdim.  
 Bargi xazonlardek chirib, uniqqan –  
 Tuyg'ularimni yo'qotdim, yoqdim!

Endi oq xayolga evrilib, yashab –  
 Tonglarning ko'ksiga kirarman nurdek.  
 Yashayverar g'amlar tirilmay, qaqshab –  
 Ular boqiy emas Qaqnusdek, guldek

Mening-chi, umrimda qirmizi, gulgun –  
 Afsunlar uyg'onar, ulg'ayar dillar.  
 Yashay oldimmikin jilmayib bugun,  
 Yashnay oldimmikin so'nmasdan burun?

## **BEGONALIK**

Sargardon tuyg'u borar  
 Ikkimizning oramizda.  
 Xo'rsinig'i dil yorar  
 Ikkimizning oramizda.

Berolmading, ololmadim  
 Qoldi hislar sargardon.  
 Kelolmading, qololmadim  
 Bo'ldi hislar sargardon.

Tong otadi  
 Bolishing –  
 Xo'rsiniqqa botadi.  
 Tong otadi.  
 Tushlarim –  
 Suvga hasrat aytadi.

Oramizda havolar...  
 Yot, begona navolar...  
 Uchramasang bo'lardi –  
 Tanimasdi g'avg'olar...

## Pasayish



Vadim MURODXONOV

# Ikki hikoya

Nikolay kichrayib borayotganini anglab yetgan kundan boshlab, uning yangi hayoti boshlandi.

Dastlabki oylar u doktorlardan umid qildi, ammo ular inson tabiatiga oid konservativ qarashlarini o'zgartirishni istamay unga yordam bergilari kelmadi. U buni ko'rib, sira tortinmasdan, ularga rasmana arzi dod qildi, shundan so'ng doktorlar picha sarosimaga tushdilar, uning gaplariga gumonsirab quloq tutdilar. Nikolay shunday paytlarda xayolan eshikni taraqlatib yopganicha shu zahoti ular huzuridan chiqib ketdi.

Uyga kelgach, eshik kesakisiga suyangancha bo'yini o'lchash usulini topdi. Qizil qalam bilan bo'yining pasayish joyiga belgi qo'ya boshladi.

Ota-onasi uning bu harakatini o'zlaricha tushundilar. Ular uylariga kelgan har bir kishiga faxr va g'urur bilan o'g'illarining qanchalik o'sganligini eshik yondoridagi belgilarni ko'rsatib maqtandilar.

Nikolay, agarda bir oyda uch millimetrdan yo'qotadigan bo'lsa, Isoning yoshiga kelib, sirkda o'ynashi ham mumkinligini chamalab qo'ydi. O'ylab-o'ylab, Nikolay endi bir yuz oltmishdan pastga tushmaslikka ahd qildi. Keyin uning yana bir imkoniyati bor edi – ixtiyorida ulg'ayish oldi bo'lajak ajoyib besh yil turardi.

Vadim Murodxonov nomi o'zbek adabiyot muxlilariga yaxshi tanish. Iste'dodli shoir, o'ziga xos yozuvchi va ajoyib tarjimon Vadim Murodxonov o'zbek adabiyotining katta targ'ibotchisi. U 1974-yili Qirg'izistonning Bishkek shahrida tavallud topgan. 1990-yili oilasi bilan Toshkentga ko'chib kelgan. 1996-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning xorijiy filologiya fakultetini tamomlagan.

Vadim Murodxonovning nasriy asarlari "Noviy mir", "Znamya", "Oktyabr", "Drujba narodov", "Novaya yunost"; she'rlari "Zvezda Vostoka" hamda "Jahon adabiyoti" jurnallarida chop etilgan.

Shu o'rinda bir gapni aytish lozim: Vadim Murodxonov o'zbek adabiyotining tom ma'noda katta targ'ibotchisi hamdir. Uning tarjimasida Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Vafo Fayzulloh, Qutlibeka kabi shoirlarimiz she'rlari rus tilida e'lon qilindi. Ayniqsa, Vadimning 2013-yili Moskvada bosmadan chiqqan "Uzbekskiy slova" ("O'zbekona kalom") kitobi adabiy davralarda iliq fikrlarga sabab bo'ldi. Kitobning ikkinchi qismiga shoirning o'zbek shoirlari asarlaridan qilgan badiiy tarjimalari kiritilgan. 2018-yilda Vadim Murodxonov va German Vlasov tarjimasida Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasi "Tarlan" nomi bilan "Drujba narodov" jurnalida, so'ng shu nom bilan kitob shaklida nashr qilindi.

Biz hozir hurmatli jurnalxonlar e'tiboriga havola qilayotgan Vadim Murodxonovning ikki hikoyasi ham o'ziga xosligi, qahramonlarining ruhiyatiga kira olishi, inson ichki kechinmalarini ustalik bilan ifodalab berishi bilan ajralib turadi. Bu hikoyalar o'quvchini oylashga, inson ruhiyati, xayolotining cheksizligi haqida tafakkur qilishga, yosh qalamkashlarni esa hikoya janri imkoniyatlaridan unumli foydalangan yozuvchi mahoratidan o'rganishga undaydi.

**Tarjimon**



Harbiy xizmatga chaqiruvchi yigitchalar yechinib olganlaricha qo'llarida raqam va kartochka bilan u stoldan-bu stolga o'tib yurardilar. Ozg'in hamda qiltirig' o'spirinlar ketma-ket va osongina to'siqlardan o'tib, joylarini egallab borardilar. Barzangilari esa nogironliklarini rasmiy lashtirish uchun toqat bilan kutib o'tirardilar.

Birinchi turdan o'tgan Nikolay va boshqa o'spirinlarni shahar tibbiy komissiyasiga harbiy xizmatga chaqiriluvchilardan birining onasi – oriqqina xotin ham keldi. Ayol o'g'lini Gordeyev deb chaqirdi. Yo'lda Nikolay ayolning gaplariga quloq tutib keldi, aytishicha, armiya oilasidagi bari erkaklarini tortib olibdi. Eri harbiy saboq payti jon beribdi.

To'ng'ich o'g'li Afg'onistonda bedarak yo'qolibdi. Ona boshini adl ko'targanicha so'nggi Gordeyevni qurbonlikka olib kelmoqda edi.

–... Boshmoqlaring hali bus-butun, kelasi hafta Shumilinlarnikidan kelib opketishadi...

Ona bilan o'g'ilning poyabzal haqidagi gaplari beixtiyor Nikolayning miyasiga harbiycha kiyim berilganda, "gavdasining o'sishini" nazarda tutib, o'z o'lchamimdan kichikrog'ini olishim kerak, degan fikr keldi. Biroq komissiyada o'tirgan doktorlardan birining ilgari Nikolayni dardidan qilgan shikoyatlari esiga tushdi-yu, u harbiy xizmatga yaroqsiz, deb topildi.

Nikolay ko'chaga chiqdi, bir yil mobaynida o'z dardi bilan andarmon bo'lib yuraveribdi, endi bu hodisalar uni tark etganday, atrofida bo'shliq paydo bo'lganday sezdi o'zini.

– Zo'r-ku! – dedi quvonchi ichiga sig'may Yulya. – Demak, chorshanba kuni festivalga borarkanmiz-da. Bo'lmasa tekinga olib kiraqolgin, deb Rudikdan iltimos qilmoqchi bo'lib turuvdim.

– U hurpaygan malla sochlarini tuzatganicha oynadan o'girilib, unga qaradi: – Ha-ya, ertaga nima qilmoqchi edik? Dala-hovliga borishimiz kerak edi-ya. Biz onam bilan ketamiz, sen ham birga borasan. Yer kovlashvorasan.

– Albatta...

– Biror nima dedingmi?

Bundan ikki yil muqaddam, endi uchrasha boshlaganla paytlar, Yulyaning o'zidan bo'yi balandligi unga sira ta'sir qilmadi. Jillaqursa, landavur o'spirinlar ko'rganlarida ularni qo'llarini mayna qilib ko'rsatmasdilar. Nikolay o'sha paytlardayoq o'zining qusurini bilar, shuning uchundir ayollar poshnalarini ko'rgani ko'zi yo'q edi. Ustiga-ustak, Yulya o'sish bobida favqulodda qobiliyatini tobora namoyon qilmoqda edi. Qiz Nikolaydan farqli o'laroq, o'z yutuqlarini

qayd qilib bormasdi, lekin buningsiz ham ushbu muvaffaqiyatlar, ayniqsa, pasayib borayotgan sherigi fonida yaqqol ko'zga tashlanib turardi.

– Shoshmay tur, seni sevgilimdan xush-toringa tushirib qo'ymasammi, – deb hazil qildi to'satdan Yulya.

Bir kuni Nikolay o'zida qandaydir tushunib bo'lmas qat'iyat bilan yur, suratga tushamiz, deb Yulyani olib bordi. Aslida qiz bian birga maydon-da suratga tushmoqchi edi, lekin u so'nggi lahzada fikridan qaytdi va Yulyani xiyobonga sudradi, ular bu yerda maymun bilan birga suratga tushdilar. Shu tariqa ular: Yulya maymuncha bilan; Nikolay birgalikda suratga tushdilar.

Nikolay suratkash bilan savdolashgunicha, Yulya maymuncha bilan o'ynashdi, unga yong'oq berdi, silamoqchi bo'ldi. Quyidagi tasvirdagi surat paydo bo'ldi: Yulya maymuncha bilan; va Nikolay.

Nikolay kichrayishiga bosqichma-bosqich nazar solib chiqarkan, badanida faqat bitta oqish dog'dan boshqasini ko'rmadi.

Bu hali xastalik endi boshlanayotgan damlar edi. Doktorlar bu borada bari umidni bemorning ruhiyatiga bog'ladilar va yordam berishga o'zligini bildirdilar va so'nib borayotgan umid chora izlab, tepasida charx urib aylandi.

Endi Nikolayning so'nggi umidi diplomli hamkasabalari haydab solgan, yaqin-orada buzilajak shahar kasalxonasiga yondosh binoda bemorlarini qabul qilayotgan ekstrasens Lyubov Aleksandrovna qoldi. Ekstrasens ayol Nikolayni shaffof kleyonka solingan stolga yotqizdi, badanida turgan qo'lini ushladi-da, chakralar<sup>1</sup> haqida so'zladi. Faqat shu ayolgina Nikolayning gaplarini oxirigacha ham ishonqiramay, inkor qilishga intilmay, gap qo'shmay quloq tutdi.

Bu holatdan minnatdor Nikolay sog'ayib ketishi bilan ekstrasensni siylashga ham tayyor bo'ldi. Ammo uchinchi seansga kelib, shu narsani anglab yetdiki, u endi vujudida chakralarning tozalanishini emas, balki faqat xaloskorining qaynoq qo'llarini his eta boshladi.

Endi Nikolayga Lyubov Aleksandrovna, uning energetikaga bo'lgan ehtiyojidan emas,

<sup>1</sup> **Chakra** – (sanskiritdan so'zma-so'z: halqa, nilufar ma'nosida) induizmning ruhiy tajribasida inson nafis badanidagi ruhiy energetika markazi, shuningdek, tantra va yoga tajribalarida diqqatni jamlash obyektidir. Chakra konsepsiyasi induizm va buddizm, aksariyat okkult tizimlar, shuningdek, muqobil tibbiyotning har xil turlarida qo'llaniladi.

balki bemorning bolalarga xos bo'lmagan ni-gohidan o'ng'aysizlanayotganligi tufayli juda ko'p gapirayotganday tuyuldi.

– Bukchayma, to'g'ri o'tir! – unga tanbeh berdi otasi. – Necha marta aytish kerak axir. Kelish-gan yigitsan, qara, engashsang, ishtoning xalta bo'lib, bujmayib qolyapti!

Buvisi dasturxon atrofiga kelib o'tirdi. Agar-da buvisining xotirasi faromushligini aytmasa, Nikolay unga ishongan bo'lardi. Buvisi ertasiga bemalol unutishi uchun har qanday sirni oila-ning bari a'zolariga yetkazishga shoshilardi.

Xotirasining zaiflashishi buvisiga faqat noqulaylik tug'diribgina qolmagandi. Endi buvi urushgacha qadar bo'lgan do'lvor samimiyat bi-lan almisoqdan qolgan oq-qora tasvirdagi "Ufq" suratidan zavq olib kulishi mumkin edi. Buvi uchun har bir kun teatr tomoshasiga aylana-rdi, besabr bola-chaqalarining dashnomlari esa odatiy hol bo'lib qolgan edi.

Bundan besh yil ilgari ularnikiga ko'chib kel-gan buvi yana o'n yil yashashni va'da qilgan va go'yo kelgusi umrining uzunligiga ko'ra kampir Nikolay bilan tengqur edi. Buvi xuddi nevarasi Nikolayga o'xshab hajman kichrayib borayot-gan edi. Lekin u o'z va'dasini yilma-yil hech bir o'zgarishsiz takrorlagani takrorlagan edi.

Nikolay dala-hovliga ketishini xabar qilishi bilan o'rtada aytilgan gaplar ko'p martalab o'y-nalgan ssenariy bo'yicha kechdi:

– Ha, sening uyda qiladigan biror ishing yo'q-da. Uyga faqat qorningni to'yg'azish uchun kelasan, – javradi onasi.

– Shu haftada ishga kirasan, – pisanda qildi otasi go'yo onasining fikrini quvvatlaganday.

Buvisi esa ko'zlarini ajablanib pirlpiratdi, so'zlay dedi, ammo kerakli so'zlarni topa olmay uchoviga birma-bir qarab chiqdi.

Nikolay erta bilan saharda uyquga qonmay, o'rnidan yengil qo'zg'aldi. Avtobus yo'lkirasiga puli yetmasligi hamda hali oldinda elektrpoy-ezdni kutish borligi va bu manzarani boshdan kechirish uni belgilangan soatdan ancha ilgari uydan quvib chiqardi.

Tramvaylar cho'chishi mumkin bo'lgan biror kimsa ko'rinmagan ko'chada ovoz berdi. Sariq kiyimli farroshlar ilk yo'lovchini yo'l supurib qarshi oldi.

Nikolay odam ichida o'zi elektrpoyezd bor-mikin, deb turgan va bunga ishonish qiyin bo'lgan daqiqaga ulgurgisi keldi. Shamol temir yo'l shpallari orasida yashnagan maysalarni teb-ratar, kassirning kvadratsimon uycha darchasi



tim-tirs yopiq, unda-bunda turgan uyquchan yo'lovchilar keraksizday tuyulgan bostirma osti-da achinarli ko'rinardi.

Biroq quyosh olis mavze uylari tomlari uzra ko'tariladi, perron turli-tuman ovozlarga to'ladi, kassa oynasi ochiladi – shunda elektrpoyezd-ning paydo bo'lish ehtimoli yanada oydinla-shadi.

Yo'lovchilar ko'plashib o'zaro besabr gapiri-shadilar, yonida turgan odam qo'lidagi soatga qarab qo'yadilar va o'zlarini go'yo hozircha hududdan mahrum yagona davlat fuqarolari-day his qiladilar.

To'dalashib turgan odamlarga yaqin tishsiz somsa sotuvchisining paydo bo'lishi kutishning bari bosqichlari o'rtasidagi dovonni belgilab beradi. Bu daqiqadan boshlab elektrpoyezdning kelishi muqarrar bo'lib qoladi.

Yulya onasi bilan poyezd jo'nashiga yetti daqiqa qolganda keldilar, bu vaqt Nikolayning yuragida ularning kechikishlariga umid tuyg'usi g'imirlab qolgan edi.

– Chipta oldingmi? – so'radi Yulya uning sa-lomlashishiga javoban.

Kassadan sal nari siljishlari bilan elektrpoyezd ko'zga tashlandi. Elektrpoyezd uzoqdan jimitday, sassiz va yot ko'rindi. Ana, elektrpoyezd buyoqqa burildi. Endi poyezd vagonlari qatori to'xtagan lahza eshik ro'parasida turib olish uchun perrondan joy egallab qo'yish kerak.

Biroq poyezd ilgariladi-da, vagon eshigi nariga borib qoldi va unga odamlarni itarib chiqishga to'g'ri keldi.

Nikolay Yulyani chiqarib qo'yishga cho'chidi va tortinganidan zinada qoqilib ketdi.

Keyingi bekatda Nikolay vagonda o'tirgan ayolga ko'zi tushdi, uni sinf rahbari Nadejda Georgiyevnaga o'xshatib yubordi. Ayolni yon tomonidan begona kishilar basharalari to'sib olganidan u bu ayolni o'qituvchisimi yoki u emasmi, bilib ololmadi. Nikolay, o'qituvchisi uni ko'rib, qara-ya, qanchalik ulg'ayibsiz, deyishini eshitgisi keldi.

– Qayoqqa? – uning kurtkasidan tortdi Yulya.

– Joyni egallab olishadi-ku.

– Chekib kelmoqchiman.

– Yigirma daqiqadan so'ng birga chiqamiz.

Tag'in tushib ketma, Xudo saqlasin, yana boshqa joyda tushib qolasanmi.

Nikolay bu safar Yulyaning onasi qizini bo'lg'usi qaylig'iga qo'pol muomala qilgani uchun koyiyotganini loqayd tingladi.

Poyezddan tushishga hozirlik ko'rayotganlarida, oxirida kelayotgan Nikolay yuzi bilan qopga urilib ketdi. Qop orqalab olgan yo'lovchi, qayerda tushasiz, degan savolga javob beraman, deb, dam o'ng, dam chapga o'girildi va qopi bilan o'tirganlarning boshlariga tegib ketayozdi. Uning keyingi bekatda tushishini bilib, tinchlandi va joyida turib qoldi. Bu paytga kelib, poyezd to'xtadi.

– Kolya, ey ahmoq, tush! Poyezd hozir yurib ketadi! – qichqirdi Yulya qop orqasidan.

– Tusholmayapman, – dedi u qimirlagan sari guruch donalari to'kilayotgan yirtilgan qopning to'r teshigiga qarab.

Poyezd jadalladi. Nikolay, perronda qolgan odamlar kabi hajman kichrayib borayotgan stansiyaning beso'naqay soyaboni tobora o'z shakl-u shamoyilini yo'qotib borayotganini ko'rди. Ko'zi shu lahzada barmog'ini chakkasiga nuqqan Yulyaga tushdi. Qizning sarosimaga tushgan yuzi xushro'y ko'rindi. Nikolay bu chehrani yodida saqlab qolmoqchi bo'ldi, ammo endi tez orada bu yuz eskirib ketgan suratga o'xshab faqat xayoldagina namoyon bo'ladi. Aql bovar qilmas mahobatli, mox bosgan, antiqa egri-bugri tog'lar borgan sari temir yo'lning chiziq tasmasiga yaqinlasha bordi.

## Maktub

**K**irillning biryaqin tanishi Moskvaga ketayapman, agar birovga biror narsa yuborish kerak bo'lsa, marhamat, deya o'z xizmatini taklif etdi. Tanishi, ochig'i, shunchaki odamgarchilik yuzasidan shunday taklif qildi. Balki shuning uchundir Kirill bu gapni ushlab oldi.

Shunda Kirillning Moskvada bir do'sti yashashi, xayrlashishlari oldidan u bilan manzil almashgani yodiga tushdi. Agar yozuv stolinig bir burchida yondaftarchasi butun turgan bo'lsa, u albatta do'stining adresini topadi, faqat uning ismi sharifini eslasa bo'ldi.

Yondaftarcha dastlab qidirganida topilmadi, Kirill bunga parvo qilmay, birdan maktub yozishni boshlab yubordi.

“Salom, Yuriy! – butun diqqatini jamlab xat yoza boshladi-da, birdan to'xtab qoldi. So'ng ikkilanmay, davom etdi: “Mening ishlarim o'sha-o'sha. Tahririyatda ishlayapman, har xil bir onlik narsalarni yozayapman va bir onlik qoniqish hosil qilyapman, chunki hech qachon hech qanday abadiyatga daxldor narsalarni yozishning uddasidan chiqmadim va hatto yillar mobaynida ular miyamda paydo bo'lgan zahotiy qoralamalarni yo'q qilishni o'rgandim”.



Kirill hozir yozganlarini o'qirkan, matn tumtaroq bo'lib chiqqanday, aniqlik yetishmayotganday bo'lib tuyuldi, so'ng u xatni miyasi tiniq ishlayotgan payti erta bilan qayta yozishga ahd qildi.

“Esingdami, sen mendan tanlagan kasbimdan pushaymon qilmaysanmi, deb so'raganding, – deb murojaat qildi ertasi kuni u do'stiga. – Tan olib aytaman, bundan zerikarli mashg'ulot bo'lmasa kerak. Boshqa bir oddiy odamniki singari jurnalistning hayotida voqea-hodisalar o'z-o'zidan, kutilmaganda paydo bo'lmaydi. Jurnalistning o'zi bu voqea-hodisani topadi, shishiradi yoki o'zi, yo muharrirning talabiga ko'ra uni pisand qilmay o'tkazib

yuboradi. Maqolaning hajmiga qarab to'g'rilangan, ta'bimizga moslangan voqea-hodisa bizning qo'llarimizda o'zining ilk, onasi o'pmagan jozibasini yo'qotadi.

Yaqinda tahririyatimiz hovlisida so'nggi urushdan qolib ketgan minalarni topib, ularni qazib chiqardilar. Bu haqda yozishimizni man etdilar, gazeta xodimlari mina qazilgan xandaqlardan hatlab o'tganlaricha tahririyat topshiriqlarini ado etish uchun shoshdilar.

Kirill yozganlarini o'qib chiqdi-da, so'ng, “ilk, onasi o'pmagan jozibasini” jumlasini yana qayta ko'rib chiqishga qaror qildi.

Matn kattalashdi. Tanishining Moskvaga jo'nashi noma'lum muddatga orqaga surilganini eshitgan Kirill buni yozayotgan maktubining yana-

da yaxshiroq chiqishi uchun bir imkoniyat deb qabul qildi.

“Men xizmat taqozosi bilan shoirlar bilan muloqotda bo'lishimga to'g'ri keladi. Yoshlari va qiladigan ishlaridan qat'i nazar, ora-sira o'zlarining nochor, yordamga muhtoj ijodiy “notavon”lari haqidagi og'riqli tashvishlarini yashirishga urinishlaridan ularni hech bir xatosiz tanib olish mumkin. Ular tahririyatimizga nashr qilinayotganiga atigi besh yilgina bo'lgan “bolalikdan beri bizning gazetasimizni o'qishlari” uchun emas, balki boshqa joylardan rad javobi olganlari uchun ham kelardilar. Shunday esa-da, ana shu tan olinmagan tug'ma iste'dodlar ijodlari mevalari qanchalar kulgi uyg'otardi menda! Men ular tajriba orttirsinar, deb birortasini qaytarmadim. Shunda beixtiyor mening qanday qilib adabiyot-nashri tahririyati ostonasidan hatlaganim yodimga keldi. Nasr bo'limi mudiri o'shanda menga, “ochilmasligimni avjiga chiqarishimni, ya'ni hadeganda o'zimni namoyon qilmasligimni yoki Asar yozish uchun aqldan ozishimni maslahat bergan edi. Galati odam edi-da u...”

Ba'zan Kirill birdan esiga kelib qolganday, do'stidan hol-ahvol so'ray ketar, salomatligi, ishi, kayfiyatini surishtirardi. Xotirasi pand berib qolishidan qo'rqib, bundan nari tayinli mavzularga o'tishga jur'at etmasdi.

U Moskvaga hech nima jo'natmasligiga aniq ko'zi yetar, shuning uchun ham tanishining ketishi xabari unga kutilmaganda yangilik bo'lmadi.

Kirill xuddi shu kuni xijolat-pazlikni yengish uchun maktub yozishda davom etdi.

Rus tilidan  
**Ma'suma AHMEDOVA**  
tarjimasi.



Bahodir QOBUL

## OY YOG'DUSIDAGI QORLI CHO'QQI

**D**o'stim, o'z fikriga ega, gapniyam ach-chiq-chuchugini joy-joyiga qo'yadigan yozuvchi ukalarimizdan birining, "Aka, siz Ilhom Hasanov bilan ko'p bo'lgansiz, hayotlari haqida jurnalga bir narsa yozib bersangiz, yaxshi bo'lardi, ustoz maqomida bo'lgan..." degan taklifdan yer yorilmadi kirib ketsang. Ayniqsa, oxirgi jumlasini. Mashoyixlarimiz aytgan matal mazmuni xayolda aylanadi: "Senga bir harf o'rgatgan kishining haqqini ming tillo bilan ham ado etolmassan".

Kundan kunga uzoqlashib borayotgan talabalik davrining boshida, 1983-yilning kech kuzida Samarqandda Ilhom aka Hasanov bilan tanishganman. Viloyat gazetasi bo'lmish "Zarafshon" tahririyati ostonasida. Kechagidek esimda. Ilhom akaning kursdoshi, o'sha vaqtlar gazetaning mas'ul kotibi o'rinbosari lavozimida ishlagan Hamza Shukurov bizlarni tanishtirgan. Men o'n sakkizga o'tgan talaba va gazetada musahhah yordamchisi bo'lib ishlardim. Hikoyalaram, maqolalarim viloyat, respublika matbuoti yuzini ko'ra boshlagandi.

Men Hamza akaning otasi uyida yashardim. Ertalab ishga birga kelib, yarim kechasi, gohida tongga yaqin ishdan qaytardik. Gazetchilik. U vaqtlar viloyat gazetasi bir haftada besh marotaba chiqardi. Kunlarning birida ertalab ishga kelib, mashinadan tushgan ham edikki uzun bo'lyi, qotmadan kelgan, kashmiri nimasi bilandir qishlog'imiz odamlariga o'xshab ketadigan Ilhom aka qo'lida bir dasta qog'oz bilan yaqin keldi. Ular salomlashdilar. Biz – ikki notanish ham salomlashgan bo'ldik. Shundan keyin Hamza aka bizlarni tanishtirdilar.

– Ilhom Hasanov, yozuvchi, fakultetimizda o'qituvchi...

Meni Hamza Shukurovga amakilari, ustoz Nuriddin Shukurov topshirgandilar. Ilhom aka Nuriddin Shukurovning ishongan shogirdi edi. Ilhom aka odamlar ko'nglidan o'tgan narsalarni sezishlarini, ba'zi narsalarni boshqalardan oldinroq ilg'ashlarini, ko'pchilikdan birinchi bo'lib fikr bildirishlarini, bildirgandayam, eng to'g'ri fikrni bildirishlarini, biror ishga odamlardan avval harakat qilishlarini, amalga kirishishlarini, odamlar u kishi o'ylagan narsalarni oradan ancha vaqt o'tib shu fikrga kelishlarini keyinchalik anglaganman.

Oldinroq his etish... Iste'dod degani balki shudir. Fozillik ham shu bo'lsa kerak, ehtimol. Olimlig-u odamiylik desayam bo'lar, balki... Adolatsizlik oldidagi, adolatsizlikka uchragan va adolat muhokama etilayotgan yig'ilishlardagi holatlarini, jon kuydirishlarini tasvirlash uchun, avvalo, odam o'sha tabiatga sazovor bo'lishi lozim. Ilhom aka mening ko'z o'ngimda har bir harakati bilan zulmatlarni bir qarashda chekinishga majbur qiladigan qilichday bo'lib qolaveradi.

Ikki uchrashganimizda Ilhom aka qo'lidagi qog'ozlarni Hamza akaga tutqazib, "biz bugundan boshlab bunday ko'rishamiz", deb quloqlarini ochgan va biz boshqatdan ko'rishganmiz. Ming yillik aka-ukalardek, do'stlardek.

Birinchi aytgan gaplari: "Men sizni kunduzgida o'qishingiz uchun qo'limdan kelganini qilganman. Lekin, bildimki, qo'limdan hech narsa kelmas ekan. O'qishga kirolmay qolishingizni aybdorlaridan biri menman. Kirish imtihondagi inshoni o'qiganman. Fakultetni bitirib chiqqanlarniyam ko'pi, aniq ayta-man, bunday yozolmaydi. Sizni oltin medal bilan maktabni bitirganingiz va o'qishga kirishingiz haqida birov birovga iltimos qilmaganligi bir-ikkitan qattiq shoshirgan edi. Inshoni esa bemalol esse deb gazeta-ga bersa bo'ladi..."

Insho erkin mavzuda, – Vatan haqida, O'zbekiston haqida edi...

O'shanda Ilhom aka yigirma to'rtning ustida edilar. Bir oyoq gazetada, ishxonada, bir oyoq fakultet, o'qish

joyida o'tgan ajoyib davrning eng esda qolar damlari shamolining epkini, odamlarning nigohi, mehri hali-hanuz kishiga entikishlar hadya etadi.

Ilhom aka boshqacha odam edi. Yurish-turishiyam, gap-u so'ziam.

Universitetning o'zbek va tojik filologiyasi fakulteti qoshida tashkil etilgan "Shalola" adabiy to'garagining o'zi bir universitet edi. Biz bu yerda adabiyotga oid eshitmagan gaplarimizni eshitar, o'qimagan narsalarimiz bilan tanishar edik. Adabiyot, dunyo adabiyoti, turkiy adabiyot degani nima ekanligini shu mashg'ulotlarida tushunganday bo'lganmiz. "Devoni lug'otit turk"ni shu davrada birinchi marta ushlab ko'rganmiz. Universitetda har bir o'qituvchi o'zining sohasi, fani bo'yicha dars o'tib, savol-javob qilsa, bu yerda unday emasdi. Biz "Shalola"da bir-birimizning yozganlarimiz bilan tanishish, tahlil qilish, fikr bildirish bilan birga adabiyot nima ekanligini anglay boshlaganmiz. Ilhom aka ta'biri bilan aytganda, "adabiyotda qalbdan ko'ra bo'g'iz ko'proq ishtirok etishi" adabiy, ijodiy emas, boshqa jarayon ekanligini anglaganmiz. Aristotelning "Aflotun – mening qimmatli do'stim, lekin haqiqat undan qimmatliroqdir" degan so'zlarini daftarlarimizga o'shanda ko'chirganmiz. Ko'cha-ko'yda, ishxona-yu o'qishxonalarda eshitmagan tushunchalarimiz: "yalpi baxtsizlik sharoiti", "O'quvchini yolg'onlar ko'magida ezgulikka yo'llab bo'lmaydi", "Haqiqatni bitta-ikkita odamning orzu-istaklariga moslab turlanmaslik, tuslamaslik kerak", "Schastlivoy detstvo" degan yozuvli shapkani kiygan bilan bolalik baxtli bo'lib qolmaydi" degan tushunchalarni Ilhom akaning og'zidan eshitganimizda ne bir xayollarga borganimiz hali esdan chiqmagan.

Shuningdek, to'garak a'zolariga adabiy asarning alifbolari – syujet qurilishidan tortib, portret tasvirlarigacha, badiiy vositalaridan tortib monogol-u diologlarni o'rnida berishgacha, fikr oqimi, matnosti oqimi, fikr to'lqinining uzluksizligi, so'zning issiq-sovug'i, tafti, nafasi, rangi, hidi bo'lishiniyam ko'rga hassadek qilib o'rgatishga jahd qilgan Ilhom Hasanov edi. Ilhom akaning bir ko'zi hamisha soatda bo'lardi. Soatga tez-tez qarardi. Har bir daqiqalari hisobda ekanligini bilardik. Universitet yoshlar ittifoqining yetakchisi edi.

Ilhomi Hasanov o'zbek tilini o'ta yaxshi bilardi, o'zbek tilini hurmat qilardi deyish, albatta, juda erish tuyuladi. Ilhom aka tilimiz uchun bor-yo'g'ini berishga tayyorlardan biri edi. Men guvohman. Ota tilimizga davlat tili maqomi berilgandan keyingi chehralaridagi ulug'vorlik masrurligi bilan bir qatorda yelkaga, zimmaga juda katta yuk tushganligini, bu yukni ko'tarish hammagayam emasligini his etish mas'uliyatini ko'rganman.

Xudo mehribon bo'lib davlat idoralarida ona tilida ish yuritish boshlanishi bilan jurnalistlarga e'tibor kuchaygan edi. Respublika matbuotida "Sharqqa sharqonalik yarashadi" turkum maqolalarim bosilib, ular mulohaza uchun Samarqand viloyat ijroqo'miga yuborilgan ekan. O'sha vaqtlar yozma matbuotda chop etilgan maqolalar mutasaddi tashkilotlarga mulohaza uchun yuborilardi. O'sha maqolalarda Samarqand viloyati, shahrida joy nomlarining g'aribona shamoyili ko'rsatilgan, sharqona nomlar yarashishiga umid bildirilgandi. Qonun qabul qilingandan bir oy o'tar-o'tmay viloyati ijroiya qo'mitasida "Davlat tili haqidagi qonunini amalga oshirish komissiyasi" hamda "Joy nomlarini o'rganish, toponimik komissiya" faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari boshlangan, viloyat ijroqo'mining raisi Toshbo'ri Qilichev yuqorida qayd etilgan maqolalar bilan tanishib, muallifni chaqirishni ustoz jurnalist Abdurayim Ubaydullayevga topshirganlar. Ustoz viloyat ijroiya qo'mitasida mas'ul lavozimda ishlardilar. Biz birgalikda ijroqo'm raisi oldiga kirdik va oradan o'n daqiqa o'tmay, maqolalarda ko'rsatilgan barcha takliflarni amalga oshirishni ikkovimizga yukladilar. Menga yuqorida qayd etilgan har ikki komissiya ishini tashkil etish va tarkibini shakllantirish haqida ijroqo'm qarori loyihasini kiritish tayinlandi. Men komissiyalarning mas'ul kotib bo'ldim. Bu mutlaqo yangi va judayam mas'uliyatli vazifa edi.

1990-yilning 27-oktyabrida Davlat tili qabul qilinganligining 1 yilligini munosib o'tkazish komissiya ish rejasiga kiritilgandi. O'sha vaqtlar Registon maydonining yonida, Ulug'bek madrasasining orqasida so'lim va go'zal "Shoirilar bog'i" bo'lardi. Biror ming kishi sig'adigan amfiteatri bilan. Ijodiy uchrashuvlar maskani edi u joy. Ona tilga davlat tili maqomi qaytishining 1 yilligi bayrami Otamakoning ana shu maskanida nishonlangan. Mazkur bayram ssenariysini yozganlardan biri Ilhom Hasanov edi. Qo'lyozmalar menda. Bayramdagi turli chiqishlar, sahna ko'rinishlari ishtirokchilarini tayyorlash bilan bog'liq barcha-barcha tashvishni Ilhom Hasanov o'z zimmasiga olgan edi.

Ona tili bayramining ikki yilligi shodiyonalarini ko'rish nasib etmadi.

Ilhom Hasan bizga, yoshlarga Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Lutfiy, Ogahiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizni yaqindani, ta'nishtirganlari, xayollariga esh, dardlari bilan hamdard bo'lishlari, ularni yuqtirgani bilan ham qadrlidirlar.

Nuriddin Shukurov boshchiligida, tarixchi olim Amriddin Berdimurodov va Ilhom Hasanov tashkilotchiligida Sohibqiron tug'ilgan kun sahar mardonda otalar qabrlarini ziyorat qilishni o'rganganlarimizni qayd etmaslik haqiqatga tik qaray olmaslikdan boshqa narsa emas.


Ilhom Hasanning yozuvchi, dramaturg, adabiyotchi olim va mohir tarjimon ekanligi haqida bu mavzuda gapirishga haqqi borlar gapirsa yarashadi.

Ilhom aka bilan oxirgi uchrashuvimiz Samarqanddan Toshkentga bir ish bilan yo'lga chiqqanimda bo'lgan. U kishi ham Toshkentga kelayotgan ekanlar. O'sha davrning qizil rangli "Ikarus"ida birinchi qatorda gaplashib kelganmiz. Qiziq. O'sha gurung ham boshdan oyoq adabiyot, adabiy jarayon haqida, ijodiy ishlarimiz haqida bo'lgan. Qanday kitoblar o'qiyotgani, ijodlari haqida bildirish bilan birga mening nimalar bilan band ekanligimni so'raganlar. Men Orol mavzusida materiallar yig'ayotganim, "Mukofatga suv" degan bir narsa yozayotganimni, asar tuzilishi, muammaosi, yechimi, qahramonlari orqali

tabiat va inson dardini o'zimizcha uyg'unlashtirgan holda Orol dard-u hasratini aytib bergandim. Ilhom aka "mendayam Orol dardiga bag'ishlangan bir narsa tug'ilmogda, lekin Orol haqida yozish uchun u yerga borib, bir-ikki kun bo'lsayam yashab, ko'z bilan ko'rib, havosini olib yozsak yaxshi bo'lardi" degandilar. Keyin, oradan ancha yillar o'tib, Orol dengiz o'rnidagi tuz sahrolarida yurib, yashab, ishlab, nonini yeb, nafaqat Orol haqida yozish, balki o'rganishdan oldin ko'rishni, eshitishni, ilg'ashni o'rganish kerakligi anglaganman.

Ilhom Hasanov tarjimasidagi Dimitriy Nikolayevich Logofetning "Buxoro tog'lari va tekisliklarida" asarini o'qishning o'ziyoq adibning, tarjimonning kimligini ko'z o'ngingizda bor bo'yi bilan ko'rsatadi. Tarjimaga asar tanlash didining ne chog'li muhim ekanini peshonaning ustiga chiroqday osib qo'yadi. Yurtimizning qadim tabiati tarovati betakrorligidan, nafasidan, urf-odatlarimiz tozaligidan, tilimiz kuch-qudratidan tuyinib suyuning, kuyining. Tarjimonlik san'atining ajoyib namunasidan bahramand bo'lishingizni ilindim. Ko'p gap hamisha yuk.

"Musulmon olami noqonuniy tug'ilishni hatto bilmaydi va tan olmaydi, tabiat qonunlari asosida tug'ilgan hamma vaqt qonuniy tug'ilgan hisoblanadi va shuning uchun ota-bobolarining nomini olishadi. Biz yevropaliklar ham osiyoliklarning bu tajribasini o'rganib, o'zlashtirishimiz kerak va bu o'rinda shuni



eslash joizki, Sharq o'z bolasini o'ldirishni aslo bilmaydi. Yevropacha asoslardagi fohishabozlik musulmon davlatlarida yaqinda paydo bo'lgan, u ham bo'lsa, Sharqda yevropaliklarning musulmon davlatlarini bosib olishining oqibatidir.

Nahotki bularning bari biz o'ylagandan boshqacha bo'lsa?

Ha, o'zingiz tasaffur qiling, musulmon o'ziga xotinni sotib oladi, bu xuddi bizda ayol erni sotib olgani va unga sep kelganiga o'xshaydi. Demak, bizda ayol haq to'laydi, musulmonlarda esa – er...

Qarshimizda Denov vodiy-si o'zining quyuuq o'simliklar olami, oppoq baquvvat tanli asriy chinorlari bilan namoyon bo'ldi... Yakka va guruh-guruh bo'lib o'sgan baland chinorlar boshida turnalar in qurgan.

Oy o'zining kumush nurlari bilan tevarak atrofni yoritgan.

Toliqqan otlar qo'nim topishlarini sezib, qadamlarini tezlatadilar. Qorli cho'qqilar oy yorug'ida yaltirab tovlanadi. Faqat zulmat ichida qolgan ufqning bir chekkasigina ma'yus qorayib turardi. Sezilar-sezilmas miltirayotgan yulduzlar oy yorug'ini yanada kuchaytirayotgandek tuyulardi. Tun musaffo, ham salqin edi. Soy va ariqlardagi suvning shildirashi tun qushlarining chug'urlashlariga qo'shilib ketayotgandi. Tuya karvonlari qo'ng'irog'ining hazin jiringlashi bu yaxlit ohangni yanada ta'sirliroq qilayotgandi.

Go'yo ulkan bir ibodatxonada chiroqlarning miltillagan shu'lalari ostida vazmin va tantanavor marosim o'tkazilayotgandek tuyulardi.

Xuddi bizning ibodatxonada ekanligimizni ta'kidlagandek, tun sukunatida uzoq-yaqinga azonning sehrlil ohangi taraladi:

"La ilaha illalloh – Allohdan boshqa iloh yo'qdir!!!"

Minoraga chiqib olgan odam buni ko'tarinki so'zlar bilan uqtirib, hammani namozga, ana shu go'zal olamni yaratgan va uni boshqarayotgan Tangriga toat-ibodat qilishga chaqirardi.

Elchixonaning yopiq ayvonidagi olovning yengil shu'lasi keng hovlini g'ira-shira yoritdi. Ayvonga chirmashgan uzumning ko'k barglari biz tunaydigan joyga alohida bir go'zallik baxsh etadi".

Mashoyixlar bekorga xotiraning uyg'onganligi go'zaldir, demagan ko'rinadi, chog'i.



**Azizbek NOROV**

1990-yili tug'ilgan.  
Qarshi davlat universitetida tahsil olgan.  
Respublika yosh ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi.

# "EYNSHTEYN JUMBOG'I"

Hikoya

1

Dekabrning asov shamoli tun bag'rida o'zini har yonga urib, bo'riday uvillaydi. Uylar ham sovuqdan junjikkanday bag'ridagi chiroqlarini o'chirib, shamolga jo'r bo'lib, qorang'i tun va-johatini yanada orttiradi. Biroq shu imoratlar biqinidagi tarovatidan g'alati taassurot uyg'otadigan ikki qavatli binoning pastki qavatidagi derazada zaifgina yorug'lik miltillaydi.

Tokchadagi yovg'on, bir necha kun turib qolgan sabzavotlar xonaga badbo'y his taratardi.

Suvoqlari ko'chib ketgan devorga omonatgina suyangan bir kimsa erigan shamdek shumshayib o'tirardi. Uning nigohi bir nuqtada – jahoniy fizik olim Albert Eynshteynning tilini ko'rsatib tushgan mashhur surati<sup>1</sup>da ma'no-mazmunsiz va shuursiz qotib qolgandi. Olim ham uning holidan kulib o'tirganday edi go'yo. Izg'irin derazaning salqi bo'lib qolgan oynasini betinim shapatilar, yoriq joylariga tiqib qo'yilgan paxtani itargancha, to'g'ri uning ajin bosgan yuziga urilardi. Uning yoshi endi qirqni oshgan bo'lsa-da, sochlari qordek oppoq edi... Samoning par yostig'i teshilganday laylak qor yog'ardi. U iztirob to'la ko'zlarini yumib oldi. O'shanda ham shunday laylak qor yog'ardi...

2

... Ichki telefondan kotibaning mayin ovozi eshitildi:

– Xayrli kun, Azim aka. Birinchi qor bilan. Rahbarimiz sizni so'rayapti.

Azim "Istiqlobbank" xususiy bankining boshqaruvchisi eshigini jur'atsizgina taqillatarkan, miyasida ming xil o'y charx urar edi. "Nima gap bo'lishi mumkin?" U ichkarida uzog'i bilan o'n daqiqacha bo'ldi. O'z xonasiga keliboq, uyga qo'ng'iroq qildi:

– Malika, bir xushxabarim bor. Qani, uning nimaligini top-chi? – dedi xotiniga dabdurustdan.

– Xushxabar? Nima bo'lishi mumkin?.. Aytavering-da. Bilasiz-u, topishmoqlarga tishim o'tmaydi... Baribir topolmadim. O'zingiz ayta qoling.

– Bilasanmi, meni kredit bo'limi rahbari etib tayinlashdi...

Malikaning yuragi hapqirib ketdi. O'zini pardek yengil his etdi. Oyoqlari yerdan uzilganday bo'ldi. Ruhi olis-olislarga parvoz ayladi. Xotiralar epkini esdi, ular musiqiy sonatalarga aylanib, uni allalay boshlaganidan eriga tuzuk-quruq javob qaytarolmadi. Azim bilan u sevishib turmush qurgandi. Boshida ota-onasi Azim yetim qolib, mehribonlik uyida ulg'aygani bois, o'ylanib qolishgandi. Bir tomondan ancha qarshilik qilishib, qizlarini bu murodidan qaytarishga jonlarini jabborga berib tirishishdi, boshqa tomondan esa ikkilanishardi. Ikkilani-shda har ikki yo'lga mayl, moyillik bo'ladi.

<sup>1</sup> Surat fotosuratchi Seyss tomonidan 1952-yilning 14-martida olimning 72 yoshida tasvirga olingan. Suratlarining asl nusxasi 9 dona bo'lib, ulardan biri 2009-yili auksionda 74 ming AQSH dollariga sotilgan.



Onasining so'zi bilan aytganda: "Bunaqa oilaparrar yigitlar hozirgi zamonda anqoning urug'i". Xullas, qarindosh-urug' oldidan o'tishdi. Ikki yoshning orzu-omoli ushaldi.

\* \* \*

Yangi lavozimni "yuvish" uchun Azim bo'limining barcha xodimlarini uyiga, kechki ziyofatga taklif etdi. Ziyofat ziyofatday bo'ldi. Har holda uzzukun ta'bi tirriq, ayniqsa, hamkasblar davrasida yanada tundlashib oladigan bosh hisobchi Rustam Rahimovichning qulfi dili ochilganidan, bir marta o'yin-kulgi avjiga chiqqanida semiz-go'shtdor qo'llarini ko'tarib raqsga tushganidan ziyofat ko'ngildagidek o'tdi, desa bo'lardi. Barcha qadah so'zlari Azimning sharafiga yangraganidan esa uning istiqboli porloq bo'lishi tayindek edi. Modomiki, davradagilarning hech biri bunga e'tiroz bildirmagan bo'lardi.

Azim mehmonlar bilan xayr-xushlashib, uyga qaytib kirganida Malika gazetaga o'ralgan o'ntacha somsani qo'lga tutqazdi-da, ularni kekxa qo'shnisi Salim boboga eltib berishini tayinladi. Juda toliqqandi. Ko'ziga momiqqina yostig'idan o'zga hech narsa ko'rinmas, ayni dam undan qadrli narsasi yo'qdek tuyuldi. Shu boisdan, hozir kekxa qo'shnisi bilan ezmalanib o'tirishga sira xohishi yo'q edi. Ulardan bir qavat yuqorida turuvchi Salim boboning uyida yo'qligi esa ayni muddao bo'ldi. Yo kekxa qo'shnisi har doimgi odatiga ko'ra ertaroq uxlab qolgan yo jiyanlari o'zlari bilan olib ketishgan. Azim xayolidan o'tkazganicha, ortga qaytib oshxonadagi stolga somsani qo'yarkan, yog' bosib qolgan gazetadagi "Eynshteyn jumbog'i" deb nomlangan sarlavhaga ko'zi tushdi. Diqqati jam bo'ldi. Engashdi. Qiziqsinib uni o'qiy boshladi:

### **"EYNSHTEYN JUMBOG'I"**

"Aytishlaricha, buyuk fizik Albert Eynshteyn bolalik chog'larida mantiqiy bir topishmoq o'ylab topgan. So'ng o'ziga yordamchi tanlashda ham nomzodlarga aynan shu topishmoqni berib, ularning mantiqiy fikrlashini tekshirib ko'rgan ekan. Uning yordamida oddiy insonlardan intellektual elitani ajratib olish mumkin. Biroq odatda 98 foiz aholi bu topishmoqni yechishga qodir emas. Agar o'zingizni sayyora-mizning qolgan ikki foiz kishisi safiga qo'shishni istasangiz, javobini topishga urinib ko'ring. Ushbu jumboqning bir nechta talqinlari mavjud. E'tiboringizga 1962-yili "Life" jurnalining dekabr sonidagi ilk talqinini havola etamiz:

1) Beshta uy bor. Ularning barchasi turli rangda.

2) Har bir uyda bir nafar odam yashaydi. Ularning millati har xil: yapon, ukrain, ispan, ingliz, norvegiyalik.

3) Har bir odam ma'lum bir ichkilik ichadi, ma'lum bir savdo belgisidagi tamaki chekadi va ma'lum bir jonivorni boqadi.

4) Besh kishining birortasi ham bir xil ichimlik ichmaydi, hech kim bir xil savdo belgisi ostidagi tamaki chekmaydi va hech kim bir xil jonivor boqmaydi.

Savol: Ulardan qaysi biri suv ichadi? Kim zebra boqadi?.."

– Voy! – Malika Azimni ko'rib cho'chib ketdi. So'ng qo'llari bilan katta ochilgan og'zini berkitdi. Go'yo o'zga bir olamdan qaytib kelganday Azim uchib tushdi.

– Nega baqirasan? – qoshlari g'ijimlangan matodek chimirildi.

– Sizni Salim bobonikida deb o'ylabman...

– Uyida yo'q ekan, – xotining gapini kesdi Azim.

– Sizni bilmadim-u, men juda toliqdim... yotaman, – Malika Salim boboga atalgan somsalarni idishga joylab qo'ydi.

Azimning labidan ko'chgan tabassumi xotinini yotoqxonagacha kuzatib qo'yib, tag'in ko'zlarini gazetaga tikdi:

"... Yordam kerakmi? Unda e'tibor bering:

1. Ingliz qizil uyda yashaydi. 2. Ispan it boqadi. 3. Ukrainalik choy ichadi. 4. Yashil uy oq uydan chapda joylashgan. 5. Yashil uy egasi qahva ichadi. 6. "Old Gold" chekuvchi kishi shilliqqurt boqadi. 7. O'rtadagi uyda yashovchi kishi sut ichadi. 8. Sariq uyda yashovchi kishi "Kool" chekadi. 9. Norvegiyalik birinchi uyda turadi. 10. "Chesterfield" chekuvchi odam tulki boquvchi kishi oldida yashaydi. 11. Ot boqadigan odam "Kool" chekadigan kishi oldida istiqomat qiladi. 12. "Lucky Strike" tamakisini chekuvchi kishi po'rtaxolli sharbat ichadi. 13. Norvegiyalik havorang uyda yashaydi. 14. Yapon "Parliament" chekadi. 15. "Old Gold" chekuvchi odam suv ichadigan kishiga qo'shni turadi.

Xo'sh natija qanday? Yana o'ylab ko'ring.

1, 2, 3, 4, 5 uyning rangi qanaqa? Unda qaysi millat vakili turadi? U qanday ichimlik ichadi? Qanday belgidagi tamaki chekadi? Qaysi jonivorni boqadi?"

"... – Sen g'oyat qobiliyatli odamlar haqida eshitganmisan?! Gapiiir!

– Yo'q... – yig'lamsiradi bola.

– Bilishing kerak, bolam. Eshita-yapsanmi, bilishing kerak!

Tepakal, maykasidan qorni do'ppayib chiqqan, jundor erkak besh-olti yashar bolaning yuziga shapatiladi.

– Yig'lama, yig'lama dedim!.. “Katta” odam bo'lishing kerak, bolam! Qara, – u odatda bolali oilalarda uchrab turadigan tartibsizlik, ya'ni har yonda o'yinchoqlarday sochilib yotgan kitoblarni ko'rsatdi. – Qara dedim... O'zi bir qorovulman... shunday bo'lsa hamki, qo'limga pul tushdimi, uyga kitob tashiyman, senga... sen “katta” odam bo'lasan, puldor... Meni... Bizni bu jarlikdan qutqarishing zarur! Yo'qsa, bu la'nati hayot, kasallikday yopishib olgan yo'qchilik bizni harob qiladi, o'z domiga torta-veradi, bolam. Azim, g'oyat iste'dodli bo'lasan...

Azim otasining hamma gapining ham mag'zini chaqolmas, biroq uning bor umidi ekanini fahmlardi.

– ... Sen mening najotkorimsan! Umidimsan...

Otasi teskari o'girilib, deraza raxiga kuchsiz musht tushirdi. So'ng boshini xam qilib, keng yelkalari silkinib-silkinib qo'ydi. Azimning ko'zi jiqqa yoshga to'ldi...

“... – Oting nima sening, “geniy” bola?

– Menikimi?

– Seniki, albatta, o'zimnikini bilan.

Maktab direktori bilan uning o'rinbosari kulib yuborishdi.

– Azim... – qimtinibgina javob berdi u.

– Yaxshi, Azimboy. Hammaning og'zida sen, o'qituvchilarning alqab charchamaydi. Aytishlaricha, dah o'emishsan. Shunga... tanishib qo'yaylik dedik. Kun kelib sen “katta” odam bo'lasan. Shunda tanimay qolmay-sanmi?

Ular tag'in kulishdi. Bu kulgidan direktor xonasining shifti o'pirilib tushadigandek tuyuldi. Har holda Azim shu o'yda shiftga cho'chib tikildi, so'ng yer chizdi...

Oliyog'ha uni hamma “tirik ensiklopediya” desa, bankda “dah o'” deb atash ommalashdi, bora-bora bu uning laqabiga aylandi. Alalxusus, bolalik yillarida ham, yoshi ulg'ayganida ham, yillar davomida orttirilgan laqablariga munosib bo'ldi. Garchi, yurak xurujidan erta qazo qilgan otasini yo'qchilik girdibodidan xalos etolmagan ersa-da, o'zini qutqara oldi. Ammo og'iz to'ldirib, baxtliman demoqqa jur'ati yetmasdi...

Ana shu xotira bamisoli kino tasmasidek xayolidan lip-lip o'tarkan o'zini “Eynshteyn jumbog'i”ni yechishga qodirdek his qildi. Tun yarmidan oqqaniga qaramay, qo'liga qalam olib, yengini shimardi. Qulay o'tirib olib topishmoqni yechishga kirishib ketdi.

– Uxlamaysizmi? – Yotoqxonadan xotining bir oz noz-ishva aralash ovozi eshitildi.

– Uxlayver. Birozdan so'ng yotaman.

Malika musaffo tongdek pokiza, shudring ingan guldek baxtiyor edi. Erining shu taxlit turishini havas bilan kuzatib turdi-da, keyinroq uxlamochi bo'lgan eridan andak og'rinsa ham, hissiyotni qo'zg'atib yuboruvchi atiri iforini taratib, kelib Azimning yelkasidan quchdi, tim qora sochlaridan o'pib qo'ydi.

– Chalg'itasan-da... – entikdi Azim yotoqxonaga yo'l olgan xotini kuzatib.

### 3

Soat tungi uch. Azim stolga muk tushgan holda “Eynshteyn jumbog'i”ni topishga urinardi. Ammo hadeganda omadi kelavermadi. Odatda bir ishga qo'l ursa, go'yo u chaynalgan kassetaday to uni yakuniga yetkazmaguncha miyasida g'ujg'on aylanaverardi. Alalxusus, bu damlarda mag'rurlik hissi butun qalb-qo'riga singib, o'y-xayollarini chilvir kabi tang'ib tashlardi. Mana, navbatdagi qog'ozni ham astoydil g'ijimlab axlat qutisiga uloqtirdi. “O'xshamayapti, – xitob qildi u asabiylashib boshini qash-



larkan. – Shunchalik mushkul bo'ladi, deb sira o'ylamagandim". Boz ustiga, pastda g'uj bo'lvolgan daydi itlarning betinim ulishi, qarama-qarshisidagi soatning mudrab, bir tekisda xurrak otayotgani – chiq-chiqlashi, ba'zan itlarning ulishi tinib, soat chiq-chiqlamay qo'yganday tuyulganda oraga cho'kkan jimlik ham g'ashiga tegardi. So'ng barchasiga qo'l siltadi-da, o'rniga cho'zildi. Biroq qandaydir g'alati va notanish, nafsilamirini aytganda, qachonlardir tanish, ammo ayni fursat unutilgan his ich-etini sich-qondek kemirardi. U yoqqa ag'anadi, bu yoqqa ag'anadi. G'ujanak bo'lib yotdi. To'lg'ondi. "Uff" tortdi. Sanoq sonlarni yo'qladi... qo'ylar otari guv etib o'tdi... ammo izlaganini topolmadi. O'rnidan turib, tag'in jumboqni yechishga urinib ko'rmoqchi bo'ldi.

Malika subhi olamda uyg'onganida yonida eri yo'q edi. Birinchi ish kuni bo'lgani bois ertaroq turgandir, degan o'yda oshxonaga kirib qo'llariga siyoh tomgan, sochlari patalak bo'lib ketgan, nigohlari zo'riqqan va bedor, ko'zlar qontalash, maykachang Azimni bir nimalar yozayotgan holda uchratdi. Stolning tevarak-atrofini don cho'qiyotgan jo'jalarday g'ijimlangan qog'ozlar bosib ketgandi.

Ajablangan Malikaning banogoh kulgisi qistadi:

– Ha, rahbarlarga ham osonmas ekan-da.

Azimning qovog'i ko'pchigan xamirday osildi:

– Gapni qisqa qil-da, oshxonaga yo'rg'ala.

Tezroq nonushta tayyorla, bo'lmasa... – gapini chala qoldirib, nigohini yana gazetaga tikdi-da, eshitilar-eshitilmas "kechikaman" deb gapini yakunlab qo'ydi.

– Tinchlikmi, Azim aka?

– Ishing bo'lmasin! Senga nima dedim. Tezda nonushta tayyorla. Ishga kech qolaman. – Bu gal rostakamiga urishib berdi.

Malika eriga ajablanib qaradi, eri unga hech qachon bu qadar qo'rs-qo'pol muomala qilma-ganidan biroz dovdirab, eshik bo'sag'asida qotib qoldi, so'ng lom-mim demay og'ir qadamlar bilan oshxonaga yo'naldi. Nonushta tayyorlashga urinarkan, harakatlari juda sekinlashib ketdi, go'yo vaqt to'xtab qolgandi. U Azimning fe'l-atvoridan mutlaqo bexabar ekanini o'ylab siqildi. Qulog'i shang'illay boshladi. Ayni shu damda butun uy, o'zi, eri, oshxona va hatto oshxona buyumlari ham alahsirayotganday tuyuldi.

Azim esnaganicha nonushta qildi. Malika erini kuzatgani eshik oldiga keldi. Shoshilib poyabzali-ni kiyayotgan Azim shu damda xotiniga boqqani-

da uning yosh bolaga o'xshab arazlagan nigohida "mendan kechirim so'rab, yuzimdan o'pib qo'y" degan so'zlarni uqqan bo'lardi. Boqmadi...

– Yaxshi boring, Az... – Malikaning gapi chala qoldi. Azim lom-mim demasdan eshikni "qarsil-latib" yopib ketdi. U piqillab yig'lab yubordi...

... – Bugun soat 10:00 da bo'lim xodimlari bilan ilk majlisingiz bor. Tushlikdan so'ng soat ikkida esa "Hamkor-invest" korxonasi-ning vakillari bilan uchrashishingiz lozim, – deya o'tkir atir hidiga burkanib kotibasi kirib keldi.

Biroz o'tib ish stoliga o'ndan ortiq jilddagi hujjatlarni keltirdi. Azim qo'l uchida biroz ish-lagan bo'ldi. Ammo erinchog'ligi tutib ishlagisi kelmadi. Uning kamdan-kam hollarda ishdan bosh tortishi edi. "G'ayratli yigit, mehnatdan qochmaydi. Menimcha, kredit bo'limini ishon-sak bo'ladi... tortadi" degandi o'shanda bank boshqaruvchisi o'rinbosariga. Kecha yarim tundan beri ko'nglini g'ash qilayotgan "Eyn-shteyn jumbog'i"ni xayolidan qanchalik chiqarishga urinmasin, buning uddasidan chiqolma-di. Qo'ynidan tartib bilan buklangan gazetani chiqarib yana topishmoqni yechishga kirishdi. "Bu gal albatta topishmoqning javobini topa-man" deb umid qilgan bo'ldi. Go'yoki topolmasa, izzat-nafsining burni yerga ishqalgan, g'ururi xo'rlanganday tuyuldi. Tanasidagi butun tomir-larda issiq qon emas, sovuq manmanlik irmoq-lari oqayotganini o'zi hali anglab yetmagandi.

Avvaliga kotibasi soat 10:00 da xodimlar bilan majlisi borligini eslatdi, soat ikkiga yaqin esa "Hamkor-invest" korxonasi-ning vakillari bilan uchrashuvi borligini yana bir bor yodiga solib xizmat burchini o'tadi. Solishga soldi-yu, baloga qoldi-da bechora. Ikki holatda ham Azim unga "Tinch qo'ying meni!" deya urishib berdi. Kotiba joyiga kelib o'tirarkan, o'pkasi to'lib kela boshladi. Odatda mudom "ayol bu – mo'jiza! Ularni e'zozlash kerak" deydigan Azim tush mahaligacha ikkita ayolni besabab yig'lash-ga majbur qilgani parvoyiga kelmasdi. Zero, o'y-xayollarini zabt etgan xudbinlik chilvirlari tarang tortilgandi. Uning qiyofasida boshqacha Azim namoyon bo'layotgandek edi go'yo.

#### 4

Bir hafta davomida uzluksiz "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga harakat qildi. Lekin har safar uning bu urinishlari zoye ketardi. Shu ko'yda bir oyni ham o'tkazdi. Uning nazdida bamisoli taqvim jadvalidan qaysidir oy varag'ini bir zumda yulib olganday o'tdi bu kunlar.

Azim inson uchun dahshatli bo'lgan – vaqtni his etolmay qolgandi. O'tgan bir oy davomida xotiniga umuman e'tibor bermay qo'ydi. Xuddi uyda o'zi tanho yashaydigandek. Xotini sal og'iz ochadigan bo'lsa, jerkib berar, og'zidan yaxshi so'z chiqmaydigan bo'lib qoldi, hatto ichib kelganida xotinini uradigan odat chiqardi. Ammo Malika sabrdan sarg'ayishni ma'qul ko'rdi. Azim ishxonadagi ishlarni ham unutdi. Butun kunni “Eynshteyn jumbog'i”ni yechishga sarflardi. Vaqt o'tgan sayin u qo'pollashib borar, asabiylik uni deyarli har daqiqada “yo'qlardi”. Tashqi ko'rinishiga esa chidab bo'lmasdi. Soqollari o'sib, yonoqlari bo'rtib chiqqan, ko'zlari kirtayib qolgandi. Ko'p o'tmay sochiga oq oraladi. Ishda ham tushlikka chiqmay “Eynshteyn jumbog'i”ni yechishni ma'qul ko'rardi. Tushlik qilmagach, negadir tez-tez boshi og'riydigan bo'ldi. Ammo bora-bora bunga ko'nikdi chog'i, boshi og'rimay qo'ydi. Baribir ichini it tirnardi. “Nahotki, men “Eynshteyn jumbog'i”ni yecholmasam?! Axir, o'ta bilimdon edim-ku. Bunga nega tishim o'tmayapti? Aqlim o'tmaslashib qoldimikin yo? Bitta Eynshteynning topishmog'ini topolmasam, shuncha o'qiganlarim qayoqqa ketdi unda? Nahotki, men dunyodagi ikki foiz bilimdon kishilar qatoriga kirmasam? Nima uchun unda odamlar meni “geniy”, “daho” deb ataydilar? Nega?!” Azim muvaffaqiyatsizlikka uchraganida alam bilan har gal shu so'zlarni xayolidan o'tkazar, jazavaga tushar, asabiy-lashardi. Shu kunlarda tez-tez otasi tushiga kiradigan bo'ldi. Tushlari ham bir xil tarzda kechar. Tun emish... otasi undan o'n-o'n besh qadamcha narida emish. Yoniga boray desa oyog'i o'ziga bo'ysunmas, baqiray desa, ovozi chiqmas-mish. Qandaydir ko'rinmas va baquvvat qo'l uni mahkam tutib turarmish. Bu qo'llardan yulqinib chiqay desa, ular go'yo ombirdek yanada qattiqroq siqarmish... Ko'p o'tmay ularning orasidagi masofa kengayib, o'rtada kichkina soylik paydo bo'libdi. Otasi ham og'iz ochmas, faqatgina o'g'liga g'amgin tikilarmish... mudom shu joyda uyg'onib ketadigan bo'ldi. So'ng o'z-o'ziga gapiradigan odat chiqardi. Hadeb “bu xudbinlik emas, bu mag'rurlik emas” derdi.

Parishon yuraverganidan qo'shnilarining bergan salomini ham eshitmas, ular esa ortidan pichir-pichirlashib qolishardi. Asabi rubob torlariday taranglashaversa, manzarga chiqib chekadigan bo'ldi. Garchi xotiniga yoqmasa-da, chekishda ham, ichishda ham as bo'lib oldi.

Azim yarimlab qolgan sigaretani kuldonga ezig'ilib o'chirdi. Chap ko'zi ko'kargan Malika balkonga chiqib eriga hadiksirab so'zlay boshladi:

– Azim aka... Azim aka, sizga nima bo'layapti o'zi? Avvallari unaqa emasdingiz-ku, qanday baxtli hayot kechirardik-a?.. Azim aka, sizni nima jin urdi? Ro'zg'or ishlariga ham e'tibor bermay qo'ydingiz. Men bilan-ku umuman ishingiz yo'q... Ozib ketganingizni qarang... Me'yorida ko'p chekayapsiz, ichayapsiz, hatto... menga qo'l ko'taryapsiz ham...

Malika yig'lamoqdan beri bo'lib erining ortidan quchdi. Azim jahlini zo'rg'a bosib turardi.

– Qo'ying shu topishmoqni... Shu topishmoqni o'ylab topgan Nyutonning uyi kuysin.

Azimning labida zaharxanda tabassum o'ynadi:

– Bu topishmoqni Nyuton emas, Albert Eynshteyn o'ylab topgan, g'alcha.

– Nima farqi bor. Axir, bu bema'nilik-ku!

– Bema'nilik?

Azim o'zini tutib turolmadi, asab torlari taranglashib, “g'azab” kuyini ijro etdi. Malikani tag'in do'pposladi. Biroq sahari mardonda uyg'onganida Malika yotoqxonada ham, oshxonada ham, umuman uyda yo'q edi, uning ortidan javonlardagi kiyim-kechaklari, mayin nigohlari, yoqimli tabassumi, xushbo'y iforlari ham ergashib ketgandi. “Hoynahoy onajoni-sinikiga ketib qolgan bo'lsa kerak, – o'yladi Azim. – O'zi ketar yor-yor, o'zi kelar yor-yor”. U bu oilaviy mojaroga jiddiy e'tibor qaratmadi. “Qaysi er-xotin urushmay, tortishmay yashayapti” deb qo'ydi o'z-o'ziga tasalli berib.

## 5

Shu asnoda oradan kunlar, oylar o'tdi. Tanishlari uning abgor ahvoliga qarab turib, inson shunchalik ham o'zgarishi mumkinmi, deya ishongilari kelmasdi. Oldingi jussadan asar ham yo'q. Eti ustixoniga yopishib qolgandi.

Ertalab ishga kelganida yangi kotibasi unga xat borligini aytdi. Oldingi kotibasi uning qo'polligi va jizzakiligiga chidolmay ishdan bo'shab ketgan edi. Maktubni ochib qarasa sudan ekan. Turmush o'rtog'i ajrashish to'g'risida sudga ariza beribdi. Azimning ichidan zil ketdi. Ikki lunjiga xuddi qizib turgan dazmol bosilgan-day bo'ldi. Karaxt bo'ldi-qoldi.

Malika Azimni ko'p kutdi. Azim uni qanchalik do'pposlamasin baribir erini sevardi. O'zgarishiga umid qildi. Kechirim so'rab kelishini kutdi. Ko'zlarini derazadan tikilgancho sho'rqillagani

sho'rqillagan. Ammo eridan xat-xabar bo'lavermagach, taqdirga tan berib ajrashishga qaror qildi. Azimning ko'ngli biroz iyigandek bo'ldi. Xayoli joyiga keldi, karaxtlik tarqadi. "Ertagayoq borib Malikani onasinikidan olib kelaman. Baqamti o'tirib hammasini kelishib olamiz. Mening u bilan ajrashish niyatim yo'q. Menga nima bo'layapti o'zi?".

Biroq ertaga buning mavridi bo'lmadi. Ishxonaga borganida boshlig'i bo'shsh to'g'risida ariza yozishini buyurdi. U nima uchun deb so'ramadi. Sababi o'ziga ayon edi. Aksincha, ichida boshlig'iga shu vaqtgacha dumini tugib yubormaganiga tahsin o'qidi, boshlig'i uch-to'rt bor tartibga chaqirganida, dakki berganida yuziga bezbetlik niqobini taqib oladigan bo'ldi. Muhim buyruq va qarorlarni imzolamay qo'yan, rasmiy tashkilotlardan kelgan maktublarni bir chetga uloqtiraverar, oqibatda bo'lim ishlari orqaga ketib qoldi, mijoz hamda hamkor korxonalar bilan esa umuman ishlamay qo'ydi. Xodimlar o'z bilganlaricha ish yuritishmoqda. Oylik hisobotlar tayyorlanmay qo'ydi. Qo'polligi tufayli deyarli har kuni qo'l ostidagi xodimlarni haqoratlab, ranjitardi. So'nggi vaqtlarda egniga yuvilmagan kir-chir kiyimlarni ilib yurganidan, ulardan badbo'y hid tarqalaverar, kotibasi isqirt boshlig'ini ko'rganida burnini jiyirar, unga yaqin yo'lamaslikka harakat qilardi. Xo'jalik ishlari mudiridan har hafta bog'lam-bog'lam oq qog'oz va yon daftarchalar olishdan charchamasdi. (Bularning bari "Eynshteyn jumbog'i"ni yechish uchun kerak bo'lganda). Ishdan bo'shatish uchun bundan boshqa yana qanday sabablar bo'lishi kerak? Xullas, boshlig'i bildirgan ishonch boshida chil-chil sindi.

Azim lash-lushlarini yig'ib, indamay to'ppato'g'ri uyiga jo'nadi. Oylar bir-birini quvlab o'taverdi. U esa "Eynshteyn jumbog'i"ni yechmoqqa urinishdan charchamas, biroq, uning tinimsiz mehnati hech samarasini bermasdi. Ba'zida u bir haftalar topishmoqqa e'tibor bermay yurdi. Ammo bu jasorat ko'pga cho'zilmas, jumboqni yechishga bo'lgan bema'ni ishtiyoq, xudbin qaysarlik va kasallik unga kanadek yopishib olgandi. Biroq inson nahotki, bir narsaga shunchalik qattiq bog'lanib qolishi mumkinligiga hayron bo'lardi. "Rafiqamni ertaga olib kelaman" degan so'zlarining oxiri yo'q edi. Azim dastlabki oylarda ish qidirmadi. Yig'ib qo'yanlarini sarflab yotdi. Odatda 24 soat uyda bo'lar, ba'zida tomoqqa ul-bul xarid qilgani pastdagi do'konga tushib chiqardi. Tilida va dilida bir kalom tushmasdi:

"Bu xudbinlik emas, bu mag'rurlik ham emas".

## 6

Bir kuni Azim behuda isrof bo'lgan qog'ozlarni yig'ishtirayotganida ularning ichidan uch oy oldin suddan kelgan ajrim arizasini ko'rib kapalagi uchdi. O'z qarorlarini o'zgartirib kelishlari uchun sud tomonidan ajratilgan vaqt o'z poyoniga yetgandi. Ertaga sud. Har holda, rasmiy xatda ko'rsatilgan sana ertaga keladi. Yo adashayaptimi? Ehtimol. Axir, u vaqtni his etmay qo'yganiga ancha bo'lgan-ku. Biroq odatda, ko'ngil bir noxushlikni sezganida, uning xatar borasidagi tasavvurlari ro'yobi shu qadar aniq-tiniqlik kasb etadiki, alal oqibat ular o'rtasida deyarli farq uchramaydi. Uning hasratga limmo-lim taxminini devorda osig'liq, asl qiyofasini yo'qotgan, chetlari burishib-tirishgan yil taqvimini ham tasdiqlab turardi: ertaga sud! Hech qanday his-hayajonni ifodalamaydigan, qat'iy va biror-bir savolga "non-nasiba" qoldirmagan so'zlar bir-biri bilan chaplashib, go'yo baliqdek qog'oz uzra suza boshladi. Shu tobda Azimning ko'zlarini yupqa parda qoplaganday bo'ldi... Tuni bilan xotiralar lazzatidan entikib, namiqqan kipriklari qirg'oqlariga uyqu kemasi kelmadi, yaqin yo'lamadi ham.

Ertasi kuni qog'oz peshinda o'tgan sudda Malikaga arizasini qaytarib olishini aytgan barcha gaplari havoga uchdi. Biroq Azim bo'sh kelmay sudyaga "ajrashmoqchi emasman!" deb oyoq tirab olmoqchi edi. Har holda qaysarlikda mulohaza nima qilsin. Ammo xotinining ko'zlariga boqib turib unda o'ziga nisbatan hech qanday mehr uchqunini ko'rmadi, u Malika qiyofasida o'zga inson paydo bo'lganini fahmlab qoldi. Taassufki, vaqtni ortga qaytarishning imkoni yo'q. Yo'qsa, dunyo dunyo bo'lmasdi. U taslim bo'ldi. Ikki tomonning roziligiga binoan ularni qonuniy ravishda ajratishdi. O'rtada farzand bo'lmagani ajrimni osonlashtirdi. Nazarida, Malikasiz hayoti ranglidan oq-qora tasvirli oynai jahonga aylanib qolganday bo'ldi.

Ko'pincha barcha narsani nazoratimiz ostiga olishga urinib, fursat boy berilsa-da, gohida hammasini ortga qaytarishga haqli va qodirdek his qilamiz. Bu aldamchi hissiyot esa alamdandiydasi oqarib, o'rtangan ko'ngilga taskin beradi, xolos. Nega deganda, bosib o'tilgan izlarni kecha yoqqan qor qoplab ketganiday, ortga yo'l doim ham bo'lavermas, qachonki masala xususiylikdan umumiylikka ko'char ekan, demakki, qayerdadir xohish-irodamiz bilan boshqa

shaxsning xohish irodasi albatta to'qnashadi, u bilan hisoblashmay ko'ring-chi.

**7**

Azimning qismati tarixini chizayotgan taqdiri azalning hech kutilmaganda oq rangli mo'yqalami nihoya qilib, u qora ranglisiga o'tgandi go'yo. U taqdirga, sho'r peshonasiga la'natlar aytib ichkilikka mukkasidan ketdi. Olti oy davomida alamini ichkilikdan oldi. Kayfi taroq kunlari uydagi hamma jihozlarni (ular ham sanoqli va g'arib ko'rinishga kelib qolgandi), buyumlarni sindirar, biroq barcha narsani har yonga uloqtirishga borgan qo'li "Eynshteyn jumbog'i" bosilib chiqqan gazetaga kelganda, g'aroyib tarzda o'z kuchini yo'qotardi. Nari borsa, bir g'ijimlab qo'yar, keyin esa xuddi dazmollagandek sahilarni qo'li bilan obi-tobida tekislab chiqardi. Oradan ancha vaqt o'tib hovuri bosilgach, yana Albert Eynshteynning jumbog'i javobini izlay boshladi. Bir kuni bosh egib, Malikaning yashash tarzi qobig'ida yo'qligiga ko'nika olmay qaynonasining uyiga yo'l oldi. "Uylarini sotib, boshqa shaharga ko'chib ketishgan... aynan qayerga ekani hech kimga ma'lum emas" xuddi muzeydagi antiqa eksponentga obdon razm solayotganday sinovchan baqrayotgan ko'zlarning pastki qismida to'xtovsiz ochilib-yopilayotgan og'izlardan o'ziga kerakli shu so'zlarni ilib oldi. "Kimsiz? Ismingiz nima? Ularga qarindoshmisisiz? Nega ularni qidirib yuribsiz?" kabi savollarni javobsiz qoldirib, kelgan yo'liga ravona bo'ldi. Azim birin-ketin uchragan ruhiy zarbalardan so'ng gangib yurdi. Boshini qayga urishni bilmasdi. Bu orada yig'ib qo'ygan pullarining ham tagi ko'rinib, dasta-dasta pullar ham xuddi o'ziga o'xshab tirriqlashib qoldi. Azim dastlab besh-ol-tita tashkilotlarga ish so'rab bordi. Ish beruvchilar uning soqolli yuziga, to'zigan kiyimlari, yag'iri chiqib ketgan shimiga boqib uni haydab solishdi. Keyin u ishtahasini pasaytirib maktab, bog'chalarning hisobchi lavozimlariga umid bog'ladi. Tashqi ko'rinishi bergan ilk taassurotni suhbat bilan tumanday tarqatsa-da, biroq ta'lim muassasasi rahbarlari uning ish faoliyati to'g'risidagi hujjat bilan yaqindan tanishganlarida, qanday ayb ila bo'shatishganliklari ma'lum bo'lgach, unga "qisqartirish" kelgan deya oppo-oston va siyqasi chiqib ketgan bahona bilan eshiklarini yopishdi. Azim ketma-ket yopilgan eshiklardan endi buyog'iga o'z mutaxassisligi bo'yicha hech bir joyda qo'nim topolmasligini angladi. Keyinchalik pul topish uchun har qan-

day ishga rozi bo'ladigan bo'ldi. Mardikorlik qildi, qurilishlarda ishladi. Har qanday pulning isi taralgan barcha teshikka burun tiqdi. Tadbirkor qo'shnisining mashinasini ijaraga olib, kirakashlik qilishni boshlagunicha hech bir ishda qo'nim topmadi. Avvaliga ishlari biroz yurishgandek bo'ldi. Nahot, uning kelajak yo'lini belgilayotgan ilohning qora mo'yqalami yozishdan to'xtagan bo'lsa? Biroq. Yursa ham, tursa ham nuqul xayolida "Eynshteyn jumbog'i"ni o'ylayverganidan bir marta mashinani yo'l chetidagi beton to'singa urib oldi. Beton – beton-da! U mashinaning old tomon o'ng qanotiga go'yo qog'ozni g'ijimlaganday qattiq shikast yetkazgandi. Nima ham derdi: "Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi". Uyini sotib pulning bir qismini mashinani ta'mirlash uchun ustaxonaga berdi. Qolgan pulga yaqinlaridan qarz-havola qilib topganlarini qo'shdi-da, shahar chekkasidagi ovloq bir joydan ko'rimsizgina, sharoitlari o'ziga yarasha bir xonali uy sotib oldi. Bu uy ko'proq kulbaga o'xshab ketardi. Shu taxlit yillar o'taver-gach, "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga bo'lgan istagi pasaya bordi. Azim shu yo'sinda o'n olti yil kirakashlikda umrguzaronlik qilganini ham payqamay qoldi. Hech kim uning qiyofasiga boqib, yoshi qirqda deb sira o'ylamasdi. Oppoq sochlari, ajin bolalagan yuzlari, qartayib qolgan ko'zlariga boqib, hech ikkilanmasdan yoshiga oltmishni bersa bo'lardi. Shu yillar ichida on-da-sonda tushiga mashhur olim, fizik, ixtirochi Albert Eynshteyn kirib turardi. Sochlari oppoq, nigohlari teran olim har safar Azimning ustidan kulgani kulgan: "Ey notovon banda, oddiy bir topishmoqni yechaman deb umring o'tdi-yu, yana o'zingni "daho" deb hisoblashingga o'laymi?.. Boshdan baland sakrab bo'lmaydi... Falle runter aus dem himmel und schleife deine kenntnisse<sup>2</sup>... – Eynshteyn goh o'zbekcha, goh nemischa so'zlar, yana tushunarsiz tilda allambalolar gapirardi. – Shuni bilib qo'yki, bu aqling bilan hech qachon topishmog'imni yechishga qurbing yetmaydi. Jo'ja ulg'ayganida burgut emas, tovuq bo'lganidek, sen ham hech qachon daho bo'lolmaysan, aksincha, keksayganing sari aqliy darajang pasaya borayapti. Tushundingmi?! Xa-xa-xa!". Bu tushlardan so'ng olovga suv purgalgandek Azimning ishtiyoqi gurillab o't olar, g'azabi qaynab, "topishmoqni albatta yechaman" deya o'ziga-o'zi va'da berardi.

<sup>2</sup> Osmondan tushib bilimingni charxla (nemischa).

Aprelning ajoyib tonglaridan birida istarasi issiq jurnalist yigit Azimning mashinasiga o'tirib qoldi. Yo'l davomida suhbatlashib yaxshi chiqishib qolishdi. Jurnalist mashinadan tushar chog'ida Azimga o'zlarining gazetasi yangi sonini berishni unutmadi. Azim kechga tortib uyga kelgach, zerikarli kechki ovqatdan so'ng oynai jahonda futbol ko'rdi. Ko'p o'tmay undanam bezidi. Deraza yaqiniga kelib, tashqariga qiyo boqdi. Ko'zlari tevarak-atrofnii ko'rmas, aksincha, ular o'y-xayollarida chuvalashib yotardi. Bezovta edi. Ich-ichidan allaqanday noxushlikni seza boshladi. O'ylab qarasa, hammasi joyida. Xavfsirashga hojat yo'q. Biroq qandaydir ko'ngilxirachilik yuz beradiganday. Chuvalashib yotgan xotiralari qarmog'iga mashina xo'jayiniga ijara pulini to'laydigan muddat yaqinlashib qolgani ilindi-yu, ta'bi yanada xiralashdi. Deraza oldida tik turishdan bezib, yonboshladi-da, haligi gazetani ko'zdan kechira boshladi. O'rta sahifani ochganida qo'ldan gazeta shilq etib tushib ketdi. Ko'zlari kosasidan chiqquday bo'lib, sanchilgan yuragining og'rig'idan bukilib qoldi. Gazetada oradan 16 yil o'tib o'sha "Eynshteyn jumbog'i" gazetxonlar hukmiga havola etilgandi. Oradan 16 yil o'tib-a?! Azim bu topishmoqni yechmay, unutmaganiga bir yildan oshgan, ammo, gohida tunda siqilgan paytlari topishmoqni yechib ko'rishni kanda qilmasdi. Negaki, bu narsa 16 yildan buyon takrorlanaverib odat tusiga aylangandi. Azim cho'ntagidan dag'al hamyonini chiqardi. Hamyon haddan tashqari qo'pol, beo'xshov tikilgan, eskirib ketganidan chirk boylagandi. U hamyondan ko'p yillik hamrohi – buklangan gazeta qiyqimini chiqardi. Gazeta parchasi allaqachonlar sarg'ayib ketgan, buklanib siyqalangan chetlari kirmato bilan yelimlab qo'yilgandi. Undagi harflarning rangi o'chib, qog'ozi yoyilib ketgandi.

– Endi menga eskisi kerak emas, – yuzi g'amgin tus olib, hayotini barbod qilgan maqolani axlat qutisiga uloqtirdi.

Gazetada qaytadan bosilgan "Eynshteyn jumbog'i"ni hafsalasizlik bilan yecha boshladi. Biroq qo'l uchida amallarni bajararkan, ular o'z-o'zidan osongina yechila boshladi. Azim peshonasini tirishtirib, endi astoydil kirishdi. Birozdan so'ng "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga muvaffaq bo'ldi. "Nega javobi to'g'ri chiqdi?" Basharti bu savolni o'ziga 16 yil avval berganida, shubhasiz, kulaverib ichagi uzilgan bo'lardi. Ammo ayni vaqtda xursand bo'lishdan ko'ra ko'ngli ma'yus tortib qoldi.

– Nega javobi chiqdi?.. Yoki oradan 16 yil o'tib, aqli bo'lib qoldimmi?.. Hech narsaga tushunmayapman, ey Xudo!.. O'zing meni imondan ayirma... Aslo bunday bo'lishi mumkin emas...

U tushunmovchilik changalida ayovsiz va berahmlarcha ezg'ilanardi. Sarosimaga tushib, ishonqiramagan nigohda topishmoqning javobini tag'in tekshirib chiqdi. Yo'q, adashmabdi. Nihoyat, 16 yillik izlanishlardan so'ng "Eynshteyn jumbog'i"ning javobini topibdi-da... Shunday ekan, nega xursand bo'lmayapti. Qani o'sha uzoq kutilgan halovat, mag'rurlik nashidasi? Shu paytda Albert Eynshteyn mashhur tilini ko'rsatib tushgan surati romidan og'ib o'tib, to'ppa-to'g'ri uning qarshisiga keldi-da, Azimning bo'ynidan buqqandek bo'ldi, ko'z oldi qorong'lashdi. Nafasi siqilganday og'zini kappa-kappa ochdi. Peshonasidan reza-reza bo'lib ter oqdi. Barchasi shubhali. 16 yil davomida ertangi kun bilan yashab kelganiga topishmoqni yechishga bo'lgan umidsiz maqsad sabab bo'lgandi. Mana, topishmoqni yechdi ham. Endi u nimani maqsad qilib yashaydi? Nimagaga intiladi? 16 yilning deyarli har daqiqasida "Eynshteyn jumbog'i"ning savollariga tikilaverib-tikilaverib, uning har bir so'zi, har bir harfi yod bo'lib ketgandi. Tunda uning uyqusini buzib, topishmoqning istalgan joyidagi so'z yoki qatorni so'rang, u bir zum ham talmovsiramay aytib bergan bo'lardi. Bu jumboq uni tunlari ham, tushlarida ham bezovta va ta'qib qilardi. Yangi gazetadagi topishmoqda esa bir so'z erish, o'zgacha tuyuldi. Yugurib borib biroz oldin axlat qutisiga tashlagan 16 yillik "qadrdoni"ni qo'lga oldi va yangisi bilan solishtira boshladi. Barcha savollar to'g'ri. Lekin eski gazetada topishmoqni yechishga ko'mak beruvchi so'zlarning biri, ya'ni "Norvegiyalik havorang uyda yashaydi", degan so'z yangisida "Norvegiyalik havorang uy oldida yashaydi", deya yozilgandi. "Nega bular bir-biridan farq qilayapti?" xo'rsindi u. Fursat o'tmay boshi devorga urilgandek bo'ldi. U hammasini tushundi. Hamma, hammasini! Aslida yordamchi so'z "Norvegiyalik havorang uy oldida yashaydi", bo'lgan. Ammo eski gazetada birgina "oldi" so'zi tushib qoldirilib, katta xatoga yo'l qo'yilgan. Shuning uchun ham har gal javob to'g'ri chiqavermagan. To'g'ri ham chiqmasdi-da!.. Birgina "oldi" so'zi emas, Azimning 16 yillik umri ham tushib qolgandi.



**Sergey KNYAZEV**

1981-yili Moskvada tug'ilgan. Rossiya Gumanitar universiteti hujjatshunoslik fakultetini hamda A.M.Gorkiy nomidagi Adabiyot instituti oliy adabiyoti kursini bitirgan. "Kumush kecha" ("Vecher seribritya") she'rlar kitobi muallifi.

Rus she'riyatining nisbatan kenja avlodiga mansub Sergey Vladimirovich Knyazev qiziqishlari keng, o'zi tarjimai holida yozganidek adabiyotdan tashqari musiqani sevib, ayniqsa, o'tgan asr 60–70– ingliz-amerika, 80-yillar sovet jaz-rok musiqasining muhibi va ijrosisi bo'lganiga qaramay, uning she'riyat yo'lidagi izlanishlari va yutuqlarida Pushkin, Yesenin va Rubsov an'alarini dadil davom ettirayotgani seziladi. Uning so'z ohangini, she'r jarangini, ma'no zalvorini savqi tabiiy ila chuqur his qilishi bir o'quvchi sifatida e'tiborimni tortdi.

Rus tilidan **Vafo FAYZULLOH**  
tarjimasi.

## Yurakda yomg'irlar tinmas hech

\* \* \*

*Bu dunyo kitob go'yo, shamol varaqlar,  
Olis yulduzlardan keltiradi xat –  
Neki yorug' xalq qilingan, mangu charaqlar,  
Neki asli zulmat – kul, tutun faqat.*

*Intilar tongotarga bashariy borlig',  
Ko'klarda tikilgandir kumushrang gulband –  
Neki yorug' yaratilgan qolgaydir yorug',  
Neki asli zulmat – xok, ko'mir faqat.*

*Bu dunyo kitob go'yo, shamol varaqlar,  
Hech kim tushunmaydi hech on bu xatga,  
Lek yorug' yaratilgan mangu charaqlar,  
Neki asli zulmat, qaytgay zulmatga.*

\* \* \*

*Ortda qoldi, yorijon, bari,  
Baxtli damga yaqin juda ham.  
Yo'l olgandir oftob g'arb sari,  
Biz sharq sari tashlaymiz qadam.  
Mayli bu tun yog'dirsa ham qor,  
Qorda izlar ko'rinar yonib.  
Muz ostida suv oqadi, yor,  
Nasib etsa, icharmiz qonib.*



\* \* \*

Yana porlar kumush jilva tun,  
Yana mening tinchim tunalgan –  
Olis ishqning sokin yog'dusi  
She'r daftarim sari yo'nalgan.  
Ko'z ochadi hislar iboli,  
Dunyo demas dunyo oralab,  
Faqat unut siymong xayoli  
Qay oynalar ortida porlar...

\* \* \*

Shaharda anqiydi tiyramoh...  
Daryoda to'ngigan oqar suv,  
Osmonda bulutlar cho'kkan choh,  
Titrashar qatorda so'zlar duv...  
Achchiq haqiqatlar zamoni,  
So'ngra kelar izma-iz sevinch.  
Barglar ufuradi armonni,  
Yurakda yomg'irlar tinmas hech.

\* \* \*

...Qalb bir tog' so'z uyumi ag'darilgan jar,  
Ketmas san'atda ham, xotirsizlikda...  
Hech vaqo yo'q – na-da nasr, na she'rlar,  
Faqat tunlar bordir uyqusiz – sodir etgan  
aqlsizliklar...

## ISLOM

Mushaf uzra kalomlar yombi,  
Karaxt ko'cha, suzadi azon.  
Shu'lalanar kumush oyning o'rog'i –  
Qo'ng'iroqlarga zor emas imon...  
Xayoli bir... xaloyiq daryo:  
Intil ul Zot ulashar hikmat.  
G'am-sevinchda, g'azabda dunyo,  
Har bandaga tutadi ne'mat...

Shu lahzada dil topgan qo'rg'on,  
G'am-g'ussaga bu yer beomon...

\* \* \*

Osilganda oy xiyobon ko'kida  
Yelkam osha nafasini tuyaman,  
Uyqu buzar, qahri qattiq, guppi, g'ar,  
Ishonmaydi mo'jizaga bir manman.  
Oynam qoqqar shu lahzada gul bahor  
Boshqa yonga boqqanimda ul deydi:  
"Qaylardadir intiq kezadi dildor...",  
Qisqaradi tunlar bari ham endi...

\* \* \*

Irina Goryunovaga

O'z uyingda go'yo qafasda: sen o'zingga o'zingsan mahbus,  
Ishonch badar, iqbol darbadar, iroda ham ko'zyoshga manxus.  
Shart qandayin, shunday bajarmoq bu dunyoda bilganing faqat,  
Oynani shart ochasan, paydo soniyada kechgan haqiqat –  
G'imir-g'imir hamishagiday, avto shovqinida ezilgan yomg'ir...  
Hammasiga siltagancha qo'l – boqar sening kulbangga kimdir.  
Qo'lda qora fonusi bilan yelkasida narvoncha uning,  
Hech kimdan hech neni so'ramay, kirib ketar qo'yniga tunning.

# SHE'R HAM, SHOIR HAM MILLAT UCHUN OYNA...

1. XX asr o'zbek she'riyatidagi mavzularning tur-faligi, tashbehlarning ohorli ekannida ustoz shoirlarning chuqur bilim va saviyasi ko'rinib turadi. Bu she'riyat tarixiy voqealarga, ulug' shaxslarga murojaat etdi, shuning barobarida, turfa kechinmalarni ifodaladi. Qisqasi, baland intellektual she'riyat bo'y-bastini ko'rsatdi, boyidi. Bugungi yoshlar she'riyatini bu jihat ila maqtab bo'lmaydi. Ular bir nechta doimiy mavzu va ko'proq, ko'ngil izhori bilan cheklanib qolishayotganday. Yoki o'quvchi bunday serqirra, serma'no she'rlarni o'qimay qo'ydimi? Umuman, zamon-doshlarimiz qanday she'rlarni ko'proq o'qiyapti?

2. Yaqinda bir qadrdonimiz aytib qoldi, bizning adabi-yotda hali telefon haqida tuzuk-quruq asar yozilmagan ekan. O'ylanib qoldim, chindan ham she'riyat har vaqt davr ruhi, kayfiyatini o'zida jo etib kelgan. Ammo hozirgi she'riyatda ana shu ruh sezilmaydi, ellik yil oldin yasalgan qolip-tashbehlari hali ham "trend"da. Aytmoqchimizki, texnologik asrning unsurlari sezilmaydi. Bizningcha, metroga tushib manziliga yetib borguncha simlari shuvalashib qolgan quloqchinini epaqaga keltirolmay xunobi chiqib yotgan yo'lovchi haqida ham go'zal she'r yozish mumkin. Bu bir misol, ammo bunday vositalar hayotimizda ko'p-ku. Kundaligimizdan muhim o'rin olgan mobil telefon haqida she'r yozsa, kishi modernist bo'lib qoladimi? Bu borada qanday fikrdasiz?

3. Internet va ijtimoiy tarmoqlar turmushimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy tarmoqdan foydalanmagan, biror kun yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, bu omil ijodkorga, o'z-o'zidan adabiy jarayonga ham ta'sir etmay qo'ymadi. Hozir "internet adabiyoti" degan tushuncha ham mavjudki, bundan asosan yoshlar "unumli" foydalanib, hali siyohi qurimagan asari uchun "like" yig'ib olishmoqda. Xo'sh, sizningcha, ijtimoiy tarmoqlar adabiy jarayonga, xususan, ijodimizga qanday ta'sir ko'rsatyapti?

4. Xalqimiz ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar degan maqol ko'p ishlatadi. Albatta, bu maqol she'riyatga, shoirga-da, taalluqli. Bugungi she'riyatimizda-gi ustoz-shogird an'analari, adabiy maktablar haqida fikringiz qanday?



Go'zal RO'ZIYEVA

1. Savolni o'qirkan-man Afandi haqidagi bir latifa yodimga tushdi. Afandi uyda atrofiga

bir uyum kitobni yig'ib olib, hali u, hali bu kitobdan ko'chirib, nimalarnidir yozib-chizib tursa, xonaga xotini kirib qoladi. Erini sira bunday holatda ko'rmagan zavjasi hayron bo'lib, nima qilayotganini so'raydi. Afandi ishidan chalg'imag, javob beradi: "Ko'rma-yapsanmi, kitob yozyapman!" Sodda xotin uning javobidan qanoatlanmay, yana so'raydi: "Afandim, kitobdan ko'chirish qachondan beri kitob yozish bo'lib qoldi?" Hozirjavob qah-ramonimiz bir mo'yi ham qilt etmay, sopini savolning o'zidan chiqaradi: "Ey o'qimagan xotin, kitobdan kitob yaraladi-da, shuniyam bilmaysanmi!" Afandining yumor hissiga boy, o'ta aqlli odam bo'lganini hisobga olgan holda, gap adabiyotning oltin qoidasi haqida ketayotganini tushunish kerak. Ya'ni kitob ko'chirish bilan emas, o'qish va o'rganish orqali yoziladi.

XX asr o'zbek she'riyati mavzularning tur-faligi, tashbehlarning ohorliliigi, bu she'riyat tarixiy voqealarga, ulug' shaxslarga murojaat etganligi, shuning barobarida, turfa kechin-malarni ifodalaganligi bilan juda baland mavqega ega. Negaki, bu davrda yashab ijod qilgan aksar ustoz shoirlar o'z ustida tinmay ishlaganlar, yaratish va ijod ishi bir foiz iste'dod va to'qson to'qqiz foiz mehnat bilan amalga oshirilishini hamisha yodda tutishgan. Balki shu sababli ham ular yaratgan she'r va dostonlarning ko'pi she'riyatimiz durdonalari-ga aylangan.

Ammo, bugungi yoshlar ijodini kuzata turib, she'riyat oddiygina ko'ngil izhori vositasiga aylanib qolmayaptimi degan xavotir ko'ngildan kechadi. Balki she'riyatning ko'lami, mavzusi torayib qolgani uchun ham bugun ko'pchilik she'r o'qimas? Yaqinda bir tanish ijodkor bilan bugungi kitobxonlarning ko'pda saviyasizligi, yaxshi asarni tanlab o'qiy olmasligi, shuningdek, haqiqiy she'r bilan faqat qofiyali qatorlardangina iborat "shig'ir"larning farqiga borolmasligi haqida gaplashganimizda, suhbatdoshimning "Ha, endi, shu opamga o'sha pochcham bo'laveradi-da", deya shu saviyasiz ommaga shu adabiyot bo'laveradi ma'nosidagi gapidan so'ng chuqur o'yg'a toldim. Demak, qaysidir bir adibning "Har bir adabiyot o'z davriga munosib" degan fikrlari haqiqat bo'lib chiqadimi? Aslida-chi, she'riyat qanday bo'lishi kerak?

She'riyat – qalb va iste'dod birlashgan o'zanda yaratilgan irmoq. U pokiza buloq. Buloq suvi shunchaki chanqoqni qondirish vositasi bo'lmaganidek, she'riyat ham shunchaki she'rxonning mutolaasi uchun yaratilmasligi – faqatgina hislar bayonidan iborat bo'lmasligi lozim. U adabiyotda inson qalbi va tuyg'ulariga ta'sir qilishning eng yaxshi yo'li ekan, unga go'zal ma'nolar jamlanmasi, o'quvchiga eng yaxshi insoniy tuyg'ular beruvchi, shu bilan birga, uning tafakkuri va dunyoqarashini bo-

yituvchi vosita deb qaralsa, she'riyat o'z vazifasini ado etgan bo'ladi. Mana shunday qaralmagan va haqiqiy she'riy durdonalar yaratilmaganda edi, dunyoga mashhur adib, Nobel mukofoti sovrindori Herman Hesse "Bor bilimimni shoirlardan olganman" deb tan olmagan bo'lardi. Bunday she'riyatni yaratish uchun esa bugungi ijodkorlardan ko'proq mutolaa va o'z ustlarida ishlash, o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon klassikasi bilan tanishish, shuningdek, she'riyatdagi bugungi adabiy jarayonlardan ham boxabar bo'lishlari talab qilinadi. Qisqasi, o'qish va o'rganish, ruhiyatni hamisha boyitib borish zarur. Axir, biz o'quvchiga o'zimizda borinagina bera olamiz. Shu o'rinda, Xorxe Luis Borxesning o'z davri yozuvchilariga qarata aytgan gaplarini bugungi yosh shoirlarga aytgim keldi: "Servantes Servantes bo'lish uchun hatto ko'chadagi e'lonlarni ham bitta qoldirmay o'qir edi. Siz bo'lsa, ikki sahifa o'qimay buyuk yozuvchi bo'lsan, deysiz-a, sen'or..."

**2.** Yaxshi ijodkor avvalo yaxshi sayohatchi bo'lishi kerak. Negaki, Erkin Vohidov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Adabiy ijod hamisha So'z olamiga sayohatdir. Ijodkor So'zni tirik jon deb biladi va So'z bilan so'zlashadi". Uning olamiga yo'l esa yaxshi asarlar orqali o'tishi hech kimga sir emas.



So'z olamiga sayohat haqida gap ketar ekan, asrimizdagi texnologik qurilma va vositalar nomlarining adabiyotga kirib kelishi tabiiy hol va ularning asarlarda qo'llanilishi bilan bu modernistik ruhdagi adabiyot yoki modern she'riyati bo'lib qolmaydi. Bu shunchaki, insonning kiyimi o'zgargani bilan kiyim ostidagi odam va uning qalbi o'zgarmasligi kabidir. Bu texnologik unsurlar nomlaridan foydalanishdan maqsad esa, shu davr muhitini aks ettirish va fikrni bugungi o'quvchi tezroq tushunadigan qilib yetkazishdir. Ammo bu borada bizda haliyam o'tgan asrdagi qoliplardan chiqilmayapti, degan fikrdan yiroqman. Ijodkorlar, xususan, bugungi tengdoshlarimiz she'rlarida asrimizning texnik qurilmalarini "qahramon"ga aylantirish hodisasi ozmi-ko'pmi bor. Masalan, Bobur Elmurodning "Fotoapparat va men", she'rini olsak. Lirik qahramon fotoapparatga "Sen boqqan chog' nega odamlar Xushsuratdir, kulgidan to'ygan. Men termilsam – sarg'aygan o'tlar Va daraxtlar gullamay qo'ygan". deya nido qiladi. Fotoapparat tufayli onasining dilbar, otasining bardam qad kerib turgani, do'stining ulug'vor va bekam-u ko'st ekanligini, baxtli bo'lib ko'rinish uchun unga ham ko'z tashlashini so'raydi. Garchi bu yerda fotoapparat majoziy obraz bo'lsa-da, o'quvchi asliyat va surat yillar mobaynida bir-biridan farqlanib borishini yaxshi biladi. She'rdagi samimiylik tufayli mo'jizaga ishongisi keladi. Yoki o'zimning ham "Telefon simi" she'rim borki, unda oddiy telefon aloqasining uzilganligi tufayli ikki insonning taqdiri o'zgarib ketishi qalamga olingan.



**3.** Internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilar uchun ilmiy va amaliy ahamiyati katta. Hayotimda uning faqat ijobiy taraflarini ko'rganim, faoliyatimda beminnat yordamchi bo'lgani uchun ham bunga ijobiy qarayman. Televizorga chiqib olib, global tarmoqni yomonlaydiganlarning fikrlariga ajablaman. Shoir Sadridin Salim Buxoriyning shunday to'rtligi bor:

*Illat izlaganga illatdir dunyo,  
G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo.  
Kim neni izlasa topgay begumon,  
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo!*

Xullasi kalom, hikmat izlab, ijtimoiy tarmoqlarga kirgan oddiy foydalanuvchi, adabiyot tomondan qaralganda esa yozganlarini ko'pincha biror narsaga arzimaydigan deb bilib, boshqalardan yashirib yuradigan ijodkor edim. Ammo ijtimoiy tarmoqqa kiringach, qoramalarim ko'pchilikka manzur bo'lganini bildim, ustozlar e'tiboriga tushdim. Garchi, maqtanish bo'lib tuyulsa-da, yozgim keldi: "facebook" tarmog'ida do'stlashganimga birinchi kuniyoq ustoz Xurshid Davrondan she'rlarim haqida iliq fikr bildirilgan maktub olganman. Ertasi kuni (o'sha kuni tug'ilgan kunim edi) ustoz o'zining "Xurshid Davron kutubxonasi" portalida ijodimdan namunalar va she'rlarim haqida qisqacha fikr-mulohazalarini e'lon qilgandi. To'g'risi, hayotimdagi hech bir tug'ilgan kunim o'sha kundagichalik esda qolarli bo'lmagan. O'rni kelganda, aytishim kerakki, Xurshid Davronni

adabiyot maydoniga hurkibgina kirgan ko'pchilik yoshlarning o'ziga ishonch paydo bo'lishida, yozganlari nimagadir arzishini ko'rsatishda jonkuyar bo'lgan sanoqli ustozlardan biri, deyish mumkin.

O'sha kundan boshlab, rosti, yozganlarimga jiddiy qaray boshladim, o'z ustimda ishlay boshladim. Yozganlarimni esa ustozlar nigohi bilan tahrir qila boshladim. Qisqasi, ijtimoiy tarmoqning faqat foydasi ni ko'rib kelayotgan odamman.

**4.** Internet tarmog'ida bir surat ko'rgandim. Unda qo'llarini narvon shaklida bir-birlarining yelkalariga qo'ygan bir necha odam va bu "narvon"dan ildam yuqorilab ketayotgan bolakay tasvirlangan. Bu rasmda ustozlarning shogirdlari kamoloti yo'lida qanchalik jafakor bo'la olishlari aniq va judayam tushunarli qilib ko'rsatilgan. Shu-shu qayerda ustoz va murabbiylar haqida so'z ketsa, o'sha surat ko'z oldimga keladi.

Har bir sohada bo'lganidek, she'riyatda ham ustoz va shogird an'anasi katta ahamiyatga ega. Ustoz ko'rgan yoki hech bo'lmaganda qaysidir shoirni o'zining ma'naviy ustoz deb bilgan ijodkorning yozganlari boshqa tengdoshlaridan, ayniqsa, o'z bilganicha qog'oz qoralab yurganlardan keskin farqlanadi. Ijodining ma'lum bir pallasigacha ustozining nafasi va ruhi, shubhasiz, uning yozganlarida sezilib turadi. Balki bu ruh yosh ijodkorning toki o'z yo'lini topib olgunicha unga hamrohlik qilar, uni yomon tanqidlar-u nazarlardan, o'zi tanlagan yo'ldagi past-baland chohlardan himoya qilar. Bilmadim, negadir menga shunday tuyuladi.

Bugungi she'riyatimizda Omon Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Azim Suyun kabi katta avlod vakillarining, qolaversa, bir qancha keyingi davr shoirlarining adabiy maktablari shakllanib bo'lganiki, ko'plab yoshlarda ularning she'rlaridagi o'ziga xos ovozlarni, tashbeh va majozlarni sezib qolamiz. Qaysidir yosh shoir yoki havaskor ijodkordagi biror satr bizga Usmon Azim yoki Xurshid Davronni eslatib yuborsa, bilamizki, bu ijodkor o'sha shoirdan ta'sirlangan, ijodidan zavqlangan. Bu holat, meningcha, ijobiy hodisa. Chunki yuqorida nomlari tilga olingan ustozlarning ham ilk ijodiy namunalarini o'qirkanmiz, ularda Abdulla Oripov yoki Erkin Vohidov qalamidan tomgandek o'xshashlikni sezib qolamiz. Ammo ularda mana shu ustozlar an'anasini davom ettirish va keyinchalik o'z ustida muntazam ishlash natijasida o'zining yo'nalishini, uslubini topib olish kuzatilgan. Endi ularning maktabida yetishib chiqqan shogirdlardan ham kamida ular darajasidagi adabiyot odamlari kamol topishiga ishonaman.



## Suhrob ZIYO

**1.** XXI asrda yozilgan she'rlarda tuyg'ularning o'z ohangini topib ifoda etish, ruhiyatni quyucq tasvirlashga urinish


ko'zga tashlanadi. Bu yaxshi bir tomondan. Ammo chekka qishloqda yozning jazirasida yer chopayotgan dehqonga sizning ruhingizda kechayotgan talato'plarning qizig'i bormi? U ekinining suvsizlikdan qovjirab qolmasligidan xavotirda, dalasini o'g'itlash uchun qarz ko'targan, uni qaytarishni o'ylaydi. Bolaligimda Abdulla Oripovning she'rlarini aytib yurgan oddiy qishloq odamlarini ko'p ko'rganman. Dalada, bobomning chaylasida Omon Matjonning "Turg'unlik yillari" degan ikki-uch sahifalik she'rini bir suvchi yoddan aytib bergandi. XX asr she'riyatining afzalligi u davralarda, adabiy kechalarda, ommaviy chiqishlarda shakllandi. Bugun kimdir o'z tuyg'ularini shunday mohirlik bilan tasvirlaydi, original tashbehlardan foydalanadi. Ammo u she'rdagi ijtimoiy dard yo'q. Ijtimoiy she'r boshqa, lirik she'r boshqa deguvchilar bor. Lekin mumtoz shoirlarimiz muhabbat, ilohiy ishq mavzusida ham hech bo'lmasa, g'azalning begona baytida xalq dardiga ishora qilib o'tishgan. Bugun ijtimoiy mavzuda nimadir qoralaydigan bo'lsak, bu yoziqning badiiy yetukligi haminqadar bo'lib qoladi. Bir yo'l qurilsa, undan to'lqinlanib she'r yozvorsak, taxminan, uni Vatan taraqqiyotiga, bu yo'l bizni kelajakka eltishiga urg'u beramiz. Undan shodlanganimizni izhor qilamiz. Kechinmani yozish oson-da! Qabul qilish ham oson. Bunday yoziqlarning yo'q bo'lib ketishi ham oson.

**2.** XIX asr oxiri XX asr boshlarida zamona uchun yangi bo'lgan voqeliklar haqida she'rlar yozishgan. Masalan, Muqimiy va Furqatning "Surating" radifli g'azallari dastlabki fotoapparat suratlariga bag'ishlangandek tuyuladi menga. O'tgan asrda, bugungi she'riyatimizda ham metro, tramvay, poyezd, samolyot kabi texnikalarning obrazli ifoda etilganini bilamiz. Mirzo Kenjabekning "Tongda samolyotlar uyg'otar

meni..." deb boshlanuvchi she'rida samolyot tuyg'ularni bir-biriga bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qilgan. Usmon Azimda "Omadliman, mana qarshimda kompyuter va stol-u qog'oz" degan satrlar bor. Poyezd she'riyatimizda obraz darajasiga ko'tarilgan degim keladi. U bilan bog'liq minglab misralarni keltirish mumkin. Chunki bu narsalarni biz tafakkur qila olamiz. Uning vazifasini, qanday ishlashi haqida tasavvur bor bizda. Shu tasavvurni badiiy idrok etamiz. Unga asoslanib biror yangi gap aytamiz. Bugungi yosh shoirlarda ham yangi texnologiyalar haqida nimalardir bor. Ammo aytganingizdek, mobil telefon, fleshka, quloqchin kabi maishiy hayotimizda keng tarqalgan qurilmalar badiiy ijodga ko'chmagan. Bunga sabab biz hali zamonaviy texnologiyalarni badiiy idrok qila olmayotganimiz bo'lsa kerak. Hali o'zbek tafakkuri texnologik taraqqiyot yo'siniga moslashib ulgurmad, shekilli. Balki yozganlarimiz sabab bunga bir darcha ochilar.

**3.** Avval vaqtli matbuot sahifalarida yangi muallifning asari bosilishi uning adabiyot maydoniga kirib kelayotganini bildirgan. Ammo bir muddat matbuotdagi turg'unlik, muharrirlarning "siyosiy hushyor"ligi yosh ijodkorlarning jiddiy mashqlarining ommaga





havola etilishiga to'siq bo'lib qoladi. Deylik, men yozganlarimni tahririyatlardan biriga olib borsam, bunaqa she'rlar mening yoshimga to'g'ri kelmasligini aytishgan. Poytaxtga kelgan dastlabki paytlarim adabiy nashrlarning birida bo'lim muharriri mendan "Vatan haqidagi yengil-yengil she'rlaring yo'qmi?" deb so'radi. Men yo'q dedim kulgidan o'zimni tiyib. Shundan keyin biror nashrga she'r qo'ltiqlab bormaydigan bo'ldim. Bilasizmi, bu yosh ijodkorlarni maddohga aylantirishning bir yo'li. Shundoq yozsam, chop etilarkan, deb o'ylab qolishadi. Ammo inson fikr aytishga muhtoj. Ijtimoiy tarmoq esa keng maydon, unda bekorchi ham, muxolif ham, ziyoli ham, rahbar ham o'z so'zini aytayotir. Nega endi ijodkor o'zini tortishi kerak. O'ylashimcha, o'tgan asrda internet bo'lganda jadidlar o'z harakatlarida undan unumli foydalanishgan bo'lardi. Hozir esa shoir-yozuvchilar internet maydonini blogerlarga boy berib qo'ygan. Tabiatan og'ir, mulohazakor ziyolilar ma'lum voqeaga munosabat bildirgunlaricha uchqur blogerlar shov-shuv qilib bo'lishadi. Oqibatda jamiyatning umumiy fikri o'rtamiyona qarashlar asosida shakllanib qolyapti. Ziyolilarimiz internetda ham jamiyatni yetaklovchi kuch bo'lishsa, qaniydi. "Like" yig'ishga kelsak, men ham she'rimni internetga qo'yaman. Birinchi munosabatni bilgim keladi. To'g'ri, aksariyat bunga yuzaki munosabat bildiradi. Lekin ba'zi insonlar yozganlarimni kuzatib borishini, zarur bo'lganda, yuz ko'rishganda, o'z fikrini bildiradi. Keyin bu yosh ijodkorlarning o'zaro ijodiy muloqoti uchun ham asqatadi. Kimning nima yozayotganini bilib boramiz.

4. Chin ma'nodagi ustoz-shogirdlik adabiyotni yuksaltiradi. Ammo shogird atalmish ustozdan nimadir tama qilmasin. "Lolazor"dagi chorshanbiyevlar bilan adabiyot yaralmaydi. Hali arziri narsa yozdim deb hisoblamayman-u, lekin kimdandir so'rab yozganimdan bir so'zni o'zgartirmayman. Yozganimni birovningdir ortidan ko'tarib yurgim kelmaydi. Buni o'jarlikka yo'ysa ham bo'lar. Tengdoshlarimizga qarab ko'p o'y xayoldan o'tadi. Birimiz yozgan ikki satrimiz sabab kibrga berilganmiz. Boshqamiz tirikchilik ortidan ovora, yana birimiz kimnidir etagini tutib, shu odamning yonida yursam shoir bo'laman deb xomtama bo'lamiz. Men ijodni muttasil iztirob chekish deb hisoblayman. Va o'zim buni uddalolmayotganimni yaxshi bilaman. Qolganlarning ham vijdoniga havola. Shavkat Rahmon aytgan-ku, "Bilsangiz, agar shoirlik jasorat so'zining tarjimasidir". Jasorat umrning ayni bir lahzasida sodir bo'ladi. Har nafasni jasorat bilan o'tkazish, har so'zni jasorat bilan yozish asl shoirlik belgisi, xolos. Bundan mag'rurlanish yarashmaydi. Ijod maydonida ustoz ijodi va amali bilan ana shu jasorat uchun bo'lg'usi ijodkorning ruhini tayyorlashi kerak. Bu har kimning qo'lidan ke-lavermaydi. Shoirning tanida bo'lmasa, Navoiy kelsa ham uning so'ziga jon kirib qolmaydi. Shu ma'noda ijodning bir ustuni badiiyat bo'lsa, boshqa ustuni jasoratdir. Buni qay darajada namoyon bo'lishi iste'dod va mahoratning ishi. Kimnidir ustoz deb ortidan yursam, boshqalar nimadandir umidvor deb o'ylashidan cho'chiyman. O'zim sevgan shoirlarni o'qiyman, o'rganaman. Ba'zan yozganlarimga ta'siri oshib ketganini sezib qolaman. O'qishdan to'xtayman. Nasr o'qiyman. Muxlis shoirning she'rini o'qiydi, ijodkor esa o'zidan avval o'tganlarning, katta adiblarning shaxsiyatidan ham saboq olishi kerak. Ularning xatolarini takrorlamaslikka harakat qilishi lozim. O'zim ixlos qo'ygan ijodkorlar qaydadir e'tiqodiga pand berganini bilsam, undan ixlosim qaytib ketmaydi. Chunki ular e'tiqodiga sobit turgan damlarda asl asarlarni yaratib qo'yishgan. Ular buyuk ekan deb illatlariga ham taqlid qilib yurgan tengdoshlarimga esa, rosti, achinaman. Shoirning she'ri ham, shaxsi ham millat uchun oyna. Jamiyat toza so'z bilan birga toza insonlarga ham muhtoj.



## *Kuchli odamlar hamisha oddiy bo'ladi*

*Lev Tolstoy hikmatlaridan*

Agar gapirmaganingga bir marta afsuslansang, sukut saqlamaganingdan yuz bor nadomat chekasan.

Axloqiy faoliyat insonning eng yuksak vazifasidir.

Barcha baxtli oilalar bir-biriga o'xshash, lekin har bir baxtsiz oila ayri baxtsiz.

Ko'p bilish emas, eng keragini bilish muhim.

G'iybat odamlarga juda yoqadi. Birovni muhokama qilmaslik va bu bilan suhbatdoshingni ajoyib huzurdan mosuvo eta olish juda qiyin ish.

*Aytadigan gapi yo'q odam hammadan ko'p gapiradi.*

Kutishni bilgan odam hamma narsaga erishadi.

Mayli, har kim o'z eshigi oldini tozalasini. Agar har kim shunday qilsa, hamma ko'chalar toza bo'ladi.

*Baxt – tabiat bilan bo'lish, uni ko'rish, u bilan muloqot qilishdir.*

Men sevadigan hamma narsamga ega emasman. Lekin o'zimda bor barcha narsani sevaman.

Yaxshi bo'lganimiz uchun bizni yaxshi ko'rishadi, deb o'ylaymiz. Aslida, ular yaxshi bo'lganlari uchun bizni yaxshi ko'rishlarini anglamaymiz.

Nikoh singari o'ta muhim, keskin, hamma narsani o'zgartiradigan va ortga qaytish imkonsiz bo'lgan ish yo'q. Faqat o'lim shunday, xolos.

Halol yashash uchun intilish, yanglishish, urilib-surilish, doim kurashish va nimalarnidir boy berish kerak. Loqaydlik – qalbning pastkashligidir.

*Muhabbat – sevadigan kishingning hayoti bilan yashashdir.*

Faqat o'zingga ma'lum narsa haqida gapir. Aks holda jim tur.

*Hamma insoniyatni o'zgartirishni istaydi, lekin hech kim o'zini isloh etish haqida o'ylamaydi.*

O'rtacha va keraksiz narsalarni ko'p bilgandan, kam bo'lsa ham yaxshi va kerakli bilimga ega bo'lgan afzal.

Agar o'qituvchi faqat ishga muhabbatli bo'lsa, u – yaxshi o'qituvchi. Agar faqat o'quvchini suysa, unga xuddi ota-onasiday mehrlil bo'lsa, hamma kitoblarni o'qigan-u, lekin ishini va o'quvchilarini yaxshi ko'rmaydigan muallimdan afzaldir. Agar o'qituvchi o'zida ishiga va shogirdlariga muhabbatni jam qila olgan bo'lsa, to'kislik maqomiga erishibdi.

Odam hamisha baxtli bo'lishi kerak; agar baxting tamom bo'layotgan bo'lsa, yaxshilab razm sol, qayerdadir xato qilding.

San'at yaxshini yomondan ajratishning bir usuli, ezgulikni tanishning bir vositasidir.

Xotirangiz emas, tafakkuringiz sa'y-harakati bilan egallangan bilim chinakam bilimdir.

Sevgisiz yashash oson. Lekin bunday hayotda mazmun yo'q.

Hamma reja tuzadi, lekin bu rejasi kechgacha bormi-yo'qmi – o'zi bilmaydi.

Odamlar ko'pincha vijdonlari tozaligi bilan mag'rurlanadi. Aslida, ularning xotirasi yaxshi ishlamaydi.

Odamlarni qanday gapirishga o'rgatishadi. Asl ilm qachon va qanday sukut saqlashni bilishdir.

Ta'lim bilan tarbiyani ajratib bo'lmaydi. Bilim bermay turib tarbiyalab bo'lmaydi. Har qanday ta'lim tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

*Odam ko'nikmaydigan sharoit yo'q. Ayniqsa, atrofdagi hamma shunday yashayotganini ko'rsa, bu juda oson kechadi.*

Odamlar muhabbat bilan tirik; o'zingga muhabbat – o'limning boshlanishi, Xudoga va odamlarga muhabbat esa hayotning boshlanishidir.

Urush – g'irrom va ahmoqona ish, chunki urushayotganlar vijdonlarining ovozini o'chirishga harakat qiladilar.

Olim – kitoblardan ko'p narsa o'rgangan kishidir. O'z davrining ilm va tajribalarini o'zlashtirgan kishi o'qimishli sanaladi. Hayotining mohiyatini anglagan kishi esa ziyolidir.



She'riyat inson qalbidagi olovdir. Bu olov yondiradi, harorat va nur beradi. Chinakam shoir ixtiyorsiz shaklda, iztiroblar bilan yonadi va boshqalarni ham yondiradi. Hamma gap shunda.

To'g'ri, oltin bor joyda tuproq ham ko'p bo'ladi; lekin bundan biror-bir aqlli gap aytish uchun istagancha valdirash mumkin degan xulosa chiqmaydi.

San'at yaxshini yomondan ajratishning bir usuli, ezgulikni tanishning bir vositasidir.

Har qanday yaramas o'zidan tubanroq yaramasni topishi va undan yaxshiroqligi bilan g'urulanishi, o'zidan rozi bo'lishi mumkin.

Eng hayratlanarli xatoliklardan biri – baxt hech narsa qilmay yashashda, deb o'ylashdir.

Rus tilidan **Orif TOLIB** tarjimasi